

656.
M80

N.A.Mo'mi^{rov}
G.N.Nazarova

656.01.

TEXNOLOGIK JARAYONLARNI BOSHQARISH VA POCHTA
XIZMATI



Toshkent – 2005

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
UNIVERSITETINING 50 YILLIK
YUBILEYIGA BAG'ISHLANADI

A N N O T A S I Y A

Ushbu kitobda O'zbekistonda pochta xizmatini rivojlantirish yo'llari, soxaga oid texnologik jarayonlarni boshqarish, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari hamda robototexnologik komplekslarning qo'llanilishi berilgan.

Kitob pochta xizmatini avtomatlashtirish soxasidagi mutaxassislar, aspirantlar va talabalar uchun mo'ljallangan.

KIRISH.....	4
I – bob. Texnologik jarayonlarni boshqarish, texnika taraqqiyoti va unumdonlik... 8	
2. Kompleks mexanizatsiyalash va epchillik.....	15
3. Marketing kerakmi?	23
4. Kompleks boshqarish	25
5. Epchil ishlab chiqarish sistemalari	31
6. Robotlashtirilgan komplekslar	41
7. Sifatning ishonchli nazoratchilari.....	59
8. Avtomat nima?	65
9. Avtomatlashtirish bosqichlari.....	92
10. Sanoat robotlarining kelajagi va ulardan ishalab chiqarishda foydalanishning ayrim masalalari.....	93
11. Robotatexnikaning o'sish holati va istiqboli.....	111
12. Robotatexnikaning chet eldag'i holati va taraqqiyoti.....	121
13. Robotlar boshqaruv sistemalarining taxlili	125
14. Ishlab chiqarishni robotlashtirishning iqtisodiy va ijtimoyi masalari.....	127
15. Robotlarning tarkibi va tuzilishi.....	133
16. Aloqa ko'tarma-transport qurilmalari	135
17. Mikroprosessor texnika vositasidagi avtomatlashtirilgan ish joyi.....	137
18. Pochta aloqasini avtomatlashtirishda axborot tizimining o'mni.	139
19. Ma'lumotlarni qayta ishlash.....	147
20. Faktlar va informasiyalar.....	148
21. Ishga oid ma'lumotlarni qayta ishlash.....	149
22. Sistemalni (tizimli) tadqiqotlar rivojlanishining ayrim xususiyatlari.....	152
23. Foydalanilgan adabiyotlar.....	157

KIRISH

Pochta qadimdan samarali aloqa vositasi sanalgan. Hozirda ham pochta bo'limlari, ayniqsa, markazdan olis joylarda axoli uchun atrof – olam to'g'risida turli – tuman axborot oladigan o'ziga xos markaz bo'lib qolmoqda. Shu tufayli bo'lsa kerak, qishloqlarda pochtalontarga aloxida hurmat bilan qarashadi. Axir, dilga yaqin kishilardan, do'stu yoronlardan eng yangi xush – xabarlarni, qolaversa, o'zlarini sevib o'qiydigan gazeta – jurnallarni, nafaqa va ijtimoiy yordam pullarini ular etkazib berishadi. To'g'ri turmushimizga zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalari jadal kirib kelmoqda. Xususan, elektron pochta va boshqa zamonaviy axborot almashinuvni vositalari paydo bo'lganiga qaramay, pochta aloqasi o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q. U bundan keyin ham ish faoliyatimiz va turmushimizda, davlat ishlarida alohida ahamiyat kasb etaveradi.

Bugungi kunda bu tizimda 189 pochta aloqa tarmog'i va uch mingdan ziyod aloqa bo'limlari mavjud bo'lib, unda o'n to'rt ming nafar kishi xizmat qilmoqda Shuning teng yarmini pochtalonlar tashkil etadi. 2003 yilda pochta xodimlari tomonidan tegishli manzillarga 11,3 million xat, obunachilarga 62,7 million nusxadagi gazeta – jurnal etkazib berildi. Pochta aloqa tarmog'i orqali 60,3 mingta posilka, 700 ming so'mlik pul jo'natmasi yuborildi. Shuningdek, xodimlar tomonidan gaz, elektr quvvati, kommunal xizmatidan foydalanganlik uchun aholidan 28 million so'mlik debitorlik qarzini yig'ishda kasbiy xizmat ko'rsatildi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar qoniqarli bo'lsa – da pota aloqa ishini zamon talablariga to'liq javob beradi, deya olmaymiz.

Shu o'rinda faoliyatga xalaqit bergen ayrim omillar mavjud. Masalan, 2001 yil 11 sentyabrdan AQShda sodir bo'lgan fojiali voqeordan so'ng ma'lum bo'ldiki, eng xavfsiz sanalgan pochta aloqasidan ham terrorchilik maqsadida foydalilanilgan. Shu sababli, bu borada ham tegishli chora – tadbirlar ishlab chiqishga to'g'ri keldi.

Sohning yillarda pochta jo'natmalari orqali saharlovchi va kasallik tarqatuvchi moddalarining tarqatilishiga oid voqealar yuz berganligi bois bir qator tegishli chora – tadbirlar ishlab chiqildi. Ma'lumki, Amerika Qo'shma Shtatlarida 2001 yilda «Kuydirgi» viruslari bo'lgan moddalar ongli ravishda tarqatilib, ko'plab kishilarning o'limiga sabab bo'ldi. Shuning uchun qisqa vaqt ichida pochta korrespondentsiyalari, jo'natmalari, posilkalari, banderollari va hokazolarni qabul qilish, qayta ishslash, tashish hamda topshirish texnologiyasini sezilarli darajada o'zgartirildi. Pochta aloqasi qoidalari va boshqa me'yoriy hujjatlarga zarur o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritildi. Shuningdek, pochta aloqasi xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan 7 ta yangi me'yoriy hujjat ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Bundan tashqari, nazoratchilar portlovchi va boshqa taqiqlangan buyumlar bo'lishi mumkin bo'lgan jo'natmalarni albatta tekshiruvdan o'tkazadilar.

Pochta bo'limlari xodimlari himoya vositalari (respirator, doka bog'ich, rezina qolqoplar) bilan ta'minlangan. Xorijda birinchi marta pochta orqali inson salomatligi uchun xavfli moddalar tarqatilgan holatlar qayd etilganda, bevosita xatlarni saralash bilan shug'ullanuvchi 4 mingdan ortiq xodim qayta emlashdan o'tkazildi. Pochta jo'natiladigan ish joylariga uch foizli xloramin eritmasi, yuvuvchi vositalari bilan ishlov berildi. Pochta yuboriladigan binolarga shubhalni pochta jo'natmalarini alohida ajratib qo'yish uchun idishlar o'rnatildi.

Yirik pochta aloqa tarmoqlarida ruxsatnomalar va ichki ob'ekt tartibi ancha kuchaytirildi. Pochta aloqalari korxonasi maxsus texnik ko'rik vositalari – statcionar va qo'lda ishlatiladigan metal qidiruvchi qurilma, shuningdek, gaz va spektonalizatorlar, radioktiv hamda buyumlarni aniqlovchi qurilmalar bilan ta'minlandi. Mutaxassislar chet davlatlarga masalan, Rossiya Federatsiyasiga tajriba o'rganish uchun borib kelishdi.

2002 yil avgustida terrorizmga qarshi kurashda ko'maklashish dasturi doirasida AQSh davlat departamenti O'zbekiston hukumati

bildi. hamkorlikda «Komyoviy va biol. jik faol pochta jo'natmalariga oid noxush hodisalarni muvosifqlashtirish» mavzuida o'quv kursi tashkil qildi. Uni AQSH davlat departmentining terrorizm bilan kurashish masalalari bo'yicha mas'ul xodim D.Kaufman o'tkazdi.

Seminar ishida ishtirok etgan O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati. Davlat bojxona qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi vakillari ushbu tadbirning o'ta muhimligini ta'kidlab, uning tashkilotchilariga o'z minnatdorchiligini bildirishdi. Tomonlar kelgusida bu boradagi aloqalarni, yanada mustahkamlashga kelishib olishdi. Xususan, respublikamiz pochta xodimlarini AQShda o'qitish shular jumlasidandir.

Biz Favqulodda vaziyatlar vazirligi, huquq – targ'ibot organlari, sog'liqni saqlash vazirligi bilan birga portlovchi qurilmalar, bakterologik, radioaktiv, zaharovchi va boshqa xavfli moddalar, buyumlar borligi shubhali deb hisoblangan pochta jo'natmalari aniqlangan hollarda hamkorlikda harakat qilish rejasи ishlab chiqilgan. Shuningdek, pochta kanallarida noqonuniy xatti – haraktlarni sodir etishga qarshi yo'naltirilgan choralar ham ishlab chiqilgan.

Hukumatimizning yangi axborot – kommunikatsiya va kompyuter texnologiyasini joriy etish to'g'risidagi qaroriga muvosif, AQSh Savdo va taraqqiyot agentligi bilan hamkorlikdagi loyixa doirasida korporativ pochta kompyuter tarmog'ini yaratishning texnik – iqtisodiy asosini ishlab chiqish tugallanmoqda. Buning uchun AQSh tomoni 431 ming dollar miqdorida grant ajratgan. Ushbu loyihani amalga oshirish orqali axoliga xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirishga muvaffaq bo'linadi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalariga asoslangan zamонавий xizmat turlari ko'payadi.

Hozirda barcha shahar va tumanlardagi pochta aloqalari tarmoqlari kompyuter bilan ta'minlangan. Pochta aloqasining mintaqaviy tashkilotlari hamda "O'zbekiston pochtasi" DAKning bosh

idorasi o'rtasida bai na hujjatlar almashinuvi elektron pochta orqali amalga oshirilmokda.

So'ngi yillarda pochta xizmatiga oid texnologik jarayonlarni boshqarishga xorijiy mamlakatlarda mulim ahamiyat kashf etilmoqda. Exnologik jarayonlarni boshqarishda robotlashtirilgan komplekslar, epchil avtomatlashtirilgan tizimlarning qo'llanilishiga kata ahamiyat berilmoqda. Shu sababli jumladan Rossiyada umuman robotlar, manipulyatorlar, robotlashtirilgan kompleks va epchil avtomatlashtirilgan tizimlar haqida umumiylar ma'lumotlarni talabalarga etkazib borish amalga oshirilib kelinayapti. Shuningdek o'quv rejasida ham yuqorida sanab o'tilgan kompleks va tizimlarning kelib chiqish tarixi va mohiyatini yorqinlashtirib borish mo'ljallangan. Shundan kelib chiqqan xolda kompleks mexanizatsiyalash, epchil avtomatlashtirilgan tizimlar, robotlashtirilgan komplekslarning yig'ilish jarayoni va shu kabilar haqida ma'lumotlar berishga harakat qilindi.

I BOB. TEX. OLOGIK JARAYONLARNI BOSHQARISH, TEXNIKA TARAQQIYOTI VA UNUMDORLIK

Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashitirish — fan — texnika taraqqiyotining eng muhim yo'nalishidir.

Iqtisodiy va sotsial hayotda tashkilotchilik va siyosiy ishlarda ba'zi ijobjiy o'zgarishlar sodir bo'ldiki, bular, avvalo, iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatdi.

Ishlab chiqarish taraqqiyoti tarixi eng qadimgi tosh plitadan tortib, to hozirgi zamon avtomatik mashinalari, tsexlar va zavodlar vujudga kelganiga qadar ishlab chiqarish qurollari asta — sekin rivojlanib borganligini ko'rsatdi.

Mashinasozlik o'zicha rivojiana bermaydi. U mashinalarga nisbatan qo'yiladigan talabning doimo o'zgarib turishiga mos ravishda rivojlanadi.

Stanok parkining strukturasini o'zgartirish, boshqacha qilib aytganda, o'z vaqtida asosiy o'rinni egallab kelgan kam unumli stanoklarni yuqori unumli stanoklar bilan almashtirish talab qilinadi. Yaqin yillarda stanoklarimiz parki qanday bo'ladi? Stanoksoziykda qanday yangiliklar ro'y beradi? Uzoq kelajakda metall kesish stanoklarining taqdiri nima bo'ladi? kabi savollar tug'ilishi mumkin.

Metallurgiya, kimyo, elektronika, optika, yarim o'tkazgichlar texnikasi, kibernetika va xatto yadro fizikasi soxasidagi yutuqlar stanoksozlarga xizmat qilmoqda. Hozirgi zamon stanogi, mubolag'asiz, fan soxasida to'plangan oxirgi yutuqlarni o'zlashtirib singdirib bormoqda.

Fanning aktual masalalaridan biri texnika taraqqiyotining samarali yolini topishdan iboratdir. Agarda ishlab chiqarish texnikasi va mehnat unumdorligini hozirgi darajada saqlab qolinsa u xolda ilmiy — texnika taraqqiyoti va mehnat unumdorligi maxsulot sifatini oshirishga oid masalalarni xal etish uchun ishlab chiqarishla ishtirot etayotgan

korxonalar va odamlar sonini ir necha marta ko'paytirishga to'jri keladi. Agarda mavjud texnikani erishgan taraqqiyot darajasida avtomatlashtirish, mavjud avtomat va yarim avtomatlarni, mashinani ham avtomatlashtirilgan sistemasiga moslansa ishlab chiqarishdagi jonli mehnat kamaytiriladi, ammo bu yo'l maxsulot mo'l-ko'lligini ta'min etolmaydi, chunki maxsulot ishlab chiqarish bor darajasida qolib, yangi korxonalar tashkil etishga to'g'ri keladi.

Demak, biz ta'kidlab o'tgan yo'llanma ham texnika taraqqiyotining bosh yo'llanmasi bo'la olmaydi. Shuning uchun maxsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda qo'l mehnatini kamaytirishning asosiy mezoni qilib mehnat unumдорligini oshirish quyilgan.

Qo'yilgan masalani to'g'ri xal etish uchun mehnat unumдорligini oshirishning ob'ektiv qonuniyatlarini chuqur tadqiq va taxlil etish kerak. Bu texnika taraqqiyotining samarali yo'lini topish imkonini beradi.

Birinchidan o'zgarmas tsiklga ega bo'lgan avtomatik liniyalar yangi texnikani qo'llashga to'siq bo'lib kelmoqda. Chunki ular faqat bir turli buyumlarni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangai bo'lib yangi buyumni ishlab chiqarishga o'tish uchun yangi liniya tashkil etishga to'g'ri keladi. Bu esa albatta maqsadga muvofiq emas.

Ikkinchidan avtomatik liniyalarning bunyod etilib, ishlab chiqarishga joriy etilishi uchun bir necha yil kutish kerak. Uchinchidan bunday avtomatik liniyalar tannarxi ham juda yuqori.

Bikir avtomatik liniyalarga nisbatan potokli mexanizatsiyalashdirilgan liniyalar epchilligi bilan ajralib turadi. Chunki bunday liniyalar etarli tarzda universal avtomatlar va mexanizatsiyalashniig universal vositalari bilan jihozlangan bo'lib, yangi tip va o'lchamdagisi detalga ishlov berishga o'tish qisqa vaqt ya'ni bir oy, xatto xafka ichida amalga oshirilishi mumkin. Qishloq xo'jalik mashinasozligi tarmog'ida stanokda ishlovchilarining qo'l mehnati 25

foizni tashkil etishini e'coorga olib, ular mehnatini avtom. lashtirish qanday katta rezerv ekanligini tasavvur etish mumkin.

Shunday qilib, mashinasozlar oldida biz takidlab o'tgan ikkala yo'llanmadagi muvaffaqiyatlarni egallagan va boshqa xatolardan xoli bo'lган ishlab chiqarishni bunyod etishdek yuksak muammo turibdi.

Bu muammoni xal etishning asosiy yo'llaridan biri sanoat robotlari asosida tuzilgan epchil avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishni joriy etish bo'lib xisoblanadi. Ya'ni, shunday texnikaviy tashkiliy kompozitsiyalar ishlab chiqarilishi kerakki, ularning fazoviy strukturasini o'zgartirishmay turib xoxlagan vaqtida yangi buyum ishlab chiqarishga o'tilsin.

Praktika shu narsani ko'rsatayaptiki, ishlab chiqarishni kompleks avtomatlashtirishda, ayrim jarayon va operatsiyalarni avtomatlashtirishga qaraganda iqtisodiy samara bir necha marta ko'p bo'lar ekan. Ommaviy ishlab chiqarishda mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning maxsus vositalari keng qo'llanilib, texnologik jarayon elementar operatsiyalarga bo'linib, potok liniyalari joriy etilgan.

Agar avvallari ommaviy ishlab chiqarishdagi maxsulot qismi doimiy o'sib borgan bo'lsa, hozir esa seriyali ishlab chiqarishdagi maxsulot qismi oshib bormoqda. Buning ustiga maxsulotni ko'p ishlab chiqarishga bo'lган talab ommaviy ishlab chiqarishga xos bo'lган, ya'ni ishlab chiqarishning yuqori o'sish darajasini talab etadi.

Seriiali ishlab chiqarishga qo'yilayotgan yangi talabni qoniqtirishni yagona yo'li ishlab chiqarishni yuqori unumдорли uskulalar bilan jixozlashdi.

Korxonalarga raqamlar yordamida tuziluvchi programma asosida boshqariluvchi stanoklarning kirib kelishi detallarni tayyorlash va o'lchash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Lekin detallarni yuklash va olish, kesish asboblarini almashtirish jarayonlari esa avtomatlashtirishmay qolaveradi. Umuman, hozirgi vaqtida asosiy texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish darajasi yordamchi va transport operatsiyalarini avtomatlashtirish darajasidan yuqori. Shuning

uchun raqamlar yordamida tuziluvni programma asosida boshqariluvchi perspektiv stanoklar juda ko'p ishchilar yordamida ishlatalib kelinmoqda. Ishchilarning asosiy vazifasi tayyor maxsulotlarni yuklash, tushirish, kesish asboblarini almashtirish, qirindilarini yig'ishtirish bo'lib qolmoqda.

Ko'rinib turibdiki, to'liq avtomatlashtirishga o'tish uchun ozgina qoldi, ya'ni malakasiz ishni bajarayotgan operatorni mashina avtomat bilan almashtirish kerak, xolos. Ana shunday mashina — sanoat robotlari bo'lib xisoblanib, u mexanik qo'llari orqali inson qo'li funktsiyasini bajarish qobiliyatiga egadir.

Robotlarni qo'llanilishi seriyali va mayda ishlab chiqarishdagi yordamchi operatsiyalarni avtomatlashtirish imkonini tug'dirib, kompleks avtomatlashtirish masalasini xal etib beradi.

Maxsulot sifatini oshirishdagi kapital mablag' talab etmaydigan asosiy yo'llari mehnat, ishlab chiqarish intizomini mustahkamlashga diqqat — e'tiborni oshirish, ishlab chiqilgan texnologiyaga bo'yshish, madaniy, sotsial shart — sharoitni yaxshilash va shu kabilar.

Ishlab chiqarish korxonalarida olib borilgan sotsial tadqiqotlarning birida quyidagi xolat namoyon bo'ldi Tokar ishchi ayol kishi bo'lib, birinchi smenada ishlar edi. Soat 12 gacha ishlab chiqargan maxsulotlari sifatlari bo'lib, 12 bilan 12 yarim oralarida ishlov berilgan maxsuloti brak bo'lardi. Tekshiruvlar shu narsadan dalolat berdiki, ayolning qizi soat 12 da o'qishini tugatib, so'ngra katta ko'chani kesib o'tishi kerak ekan. Shu xolatda ayolning es — xushi qizining xavotirsiz ko'chadan o'tishida bo'lib, detal sifatiga bo'lgan e'tibor kamayadi. Xuddi shunday xolatni kompyuterda ishlovchi ayollarda ham kuzatildi. Demak, sotsial masalaga e'tibor berish hayot taqozosidir.

Maxsulot sifatini oshirishning yana bir yo'li bu texnologik jarayonlarni tiklash, ya'ni har bir texnologik jarayonni xaqiqatdan to'g'ri tanlanganligiga kafillik bera oladigan sinov stendlari, nazorat qurilmalari mukammal bo'lishi kerak. Ana shu kamchilik sababli

Konstruktoring chizma taxtasidagi a texnologning qog'ozdagi ilg'or g'oyalari amalga oshirilmay davlatning juda ko'p kapital mablag'i bekorga sarf bo'lib kelmoqda.

Maxsulot sifati deganda faqat metall kesish stanogida, marten pechida, to'qish dastgoxida tayyorlanuvchi maxsulot sifatigina emas, balki konstruktor, olim, injener – texnologning ish joyida amalga oshirish kerak bo'lgan vazifasini ham z'tiborga olish kerak.

Sifatni oshirish uchun hamma xodim mehnatiga bir zaylda emas, xaqiqatdan ish natijasiga va sifatiga qarab baho berishni, kamchilik uchun tanbexlashni, ilg'orlik uchun mukofotlashni o'rganishimiz kerak. Fanning joriy etilish soxasi juda kengayib ketdi olim mehnatining xarakteri ham o'zgardi. Ko'pchilik olimlarning ish joyi sokin institut xonalarida emas, balki zavod tsexlari, tajriba o'tkazuvchi laboratoriyalardan o'rinn olmoqda.

Hozirgi kundagi umumiy intilish – ishlab chiqarishni intensiv yo'ldan olib borish hamma korxona kollektiviga tegishli masaladir.

Intensifikatsiyalash esa ikki yo'nalishda asosiy fondlarni yaxshilash va ulardan unumli foydalanish hamda boshqaruv sistemasini mukammallashtirish bo'yicha olib borilishi kerak.

Bunday ko'rsatkichning sababi nimadan iborat? Asosiy sabab, vanqi ishqa tushirilgan sanoat muvvatlarining o'z vaqtida foydalanishga topshirilmaganligi. Keyingi vaqtarda olib borilgan izlanish va tekshiruvlar shu narsadan dalolat berayaptiki, har bir o'ninchisi dastgoh ish bermayapti. Chunki har bir korxonadagi bor asbob – uskunalar, dastgohlar mavjud ishchi kuchi nuqtai nazardan va ishchining konkret imkonidan xoli tarzda yangilanib boradi, yoki eski uskunalarning imkon to'la xisobga olinmaydi. Bu demak, korxona raxbarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda maxsulot sifatini yaxshilash borasida davlat tomonidan sarflanadigan har bir so'mni xisob – kitob qila olishlari, har bir ishchi va kollektivning yuqori samarali mehnatini ta'minlashga erishishlari kerak.

Ayrim korx nalarda robotlarning qo'llanilish ko'ngildagidek samara bermayotganligi hozir ko'pchilikka sir emas. Unday bo'lsa nima uchun robotlar qo'llanilayapti? Bunday savolga odatda robotlar odamlarni charchatadigan og'ir qo'l mehnatidan xalos etib, muhim sotsial muammoni xal etayapti degan javobni ham eshitamiz. Albatta bu javob ham to'g'ri. Lekin robot faqat avtomatlashtirish vositasigina, xolos. Robotlarni qo'llashda faqat amallab u yoki bu uskunaga moslash emas, balki robotsiz ishlash mumkin bo'limgan joyda qo'llash tamoilini amalga oshirish kerak.

Demak, sotsial masala, ya'ni insonlarni og'ir qo'l mehnatidan ozod etish bilan birga ishlab chiqarish samarasini oshirishni ham o'ylash kerak bo'ladi.

Keyingi yillarda har bir texnika yangiliklari sanoat robotlari singari qo'llab-quvvatlanmoqda. Oxirgi yillarda robotlar va manipulyatorlarni ishlab chiqarish ikki barobar o'sdi. Biroq ularning mehnat unumдорлиги va ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga bo'lgan ta'siri biz xoxlaganimizdek emas.

Qator korxonalarda robotlarning paydo bo'lishi sezilarli darajada ishlab chiqarish samarasini oshirish imkonini bermadi. Nima uchun ularni qo'llash kerak bo'ldi? degan savol tug'ilishi mumkin. Birinchidan, robotlar muhim sotsial problemani xal qiladilar, ya'ni odamlarni og'ir va charchatadigan qo'l mexnatidan ozod qiladilar. Albatta, bu dalilni xisobdan chiqarib bo'lmaydi. Lekin shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, robotlar—faqatgina avtomatlashtirish vositasidir. Uni joriy etishda qator tamoillarga rioya qilish kerak: avtomatlashtirish vositalarini va sistemalarini sun'iy tarzda emas, balki atarsiz ishlash mumkin bo'limgan joyda qo'llash kerak. Ishlab chiqarishda yangiliklarni qo'llash hech qachon osonlik bilan xal etilmaydi. Ishni oxirigacha etkazish uchun katta kuch va chidam kerak bo'ladi.

Robotlarning afzalligini tan olishda sotsial omillar ishtirot etadi. Lekin bir vaqtning o'zida mehnat unumдорлигининг o'sishi va maxsulot

sifatining e'ishi xisobigagina ishlab chiqishi darajasini oshirish mumkin. Bu oson ish emas, albatta. Ushbu murakkab masalani xal etishda mutaxassislar ilmi va tashabbusiga suyanish, injenerlik masalalarini kompleks joriy etish kerak.

Tajriba shuni ko'ssatadiki, unumdor uskunalarning ko'payib borishi, o'z navbatida, ish xaqini qisman iqtisod qilish imkonini beradi, ya'ni iqtisodiy samaraning asosiy rezervi uskunalardan to'liq foydalanishga bevosita bog'liqdir. Demak, qo'l kuchi bilan bajarilayotgan ishlarni to'liq avtomatlashirish va bu jarayonni boshqara bilish asosiy masaladir.

Robotlarning bu tarzagi imkoniyatlari cheklangan bo'lib, ular uskunani boshqarmay, faqatgina mashina va dastgoxlarga xizmat qiladilar. Malumki, ishchini robot bilan almashtirishda bu tavsiyanomalar asosiy masala bo'lmay qolishi mumkin. Undan qat'iy nazar, uskunaning unumdorligini pasaytirish mumkin, chunki zamonaviy robotlar bar doim kerakli tezlikdagi xarakatlarni ta'min eta olmaydi. Masalan, bir qo'lli robot tayyor maxsulotni press ostiga uzatishni odamga nisbatan sekin amalqa oshiradi. Metallarni qirqish stanoklaridagi ahvol ham ko'ngildagidek emas, chunki 3—5 kg detallarni o'rnatishda ishchi 10—15 sekund sarflaydi, bir qo'lli robot esa taxminan bir minut sarflaydi. Boshqa tomondan qaravdigan bo'lsak robotlarning o'z afzalliklari bor. Masalan, ularning yordamida dastgoh va mashinalarni avtomatik rejimda ikki—uch smena davomida ham ishiashga majbur etish mumkin Eslab ko'rsak, ko'p korxonalarda smenali koeffitsient 1.3—1.6 dan oshmaydi, albatta shunday sharoitda soatbay unumdorlikdan yutqazilgan xolda ham sutkasiga mehnat unumdorligi oshishi mumkin.

Afsuski, bu imkoniyatlardan hozircha kam foydalanilmoqda. Chunki, robotlarni qollash planlarini bajarishda ba'zi ministrliliklar to'g'ri yo'lni tanlab ololmay, korxonalararo yakka—yakka robot tarqatishdan uzoqqa bora olimdilar. Agarda korxonada hammasi

bo'lib 35 ta robot bo'lsa, ularni uch smenada ishlatish ustidagi gap bo'lishi ham mumkin emas, chunki qo'shimcha maxsulot unga ketgan harajatni qoplamaydi. Bu o'rinda robotlardan katta guruxlar ko'rinishida foydalanilsa bo'ladi. Lekin bu xolda ham qaerda va qanday qilib ularni qo'llash mumkinligini diqqat bilan o'ylab ko'rish kerak.

KOMPLEKS MEXANIZASYALASH VA EPCHILLIK

Avtomatlashtirishning tamoillaridan biri shundan iboratki, u texnologik zanjirning eng kichik o'lchovidagi chegarasida kompleks jarayonni olib borishi kerak. Zamonaviy ishlab chiqarishda hainma narsa, ya'nii tayyor maxsulotdan tortib to chiqit qirindilarni olib tashlashgacha bo'lgan jarayonlar o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Texnologik jarayon mobaynida ishchiga ko'z ilg'amas juda ko'p mayda – chuyda ishlarni bajarishga to'g'ri keladi.

Hozircha bu ishlarning hammasini robotlar bajara olmaydi. Robotlardan samarali foydalanish uchun ular yordamida bitta texnologiya va yagona robotlashadirilgan kompleks bilan bog'liq bo'lgan dastgoh va mashinalarni birlashtirish mumkin.

Xaqiqatdan, bunday komplekslarni yaratishda robotlashtirishning asosiy yo'li namoyon bo'ladi. Robotda hamma mashina «logikasi» xisobga olinsa, ular odamsiz uch smenada ishlashga tayyordirlar. Buning uchun uskunalarini kompyuter yordamida boshqarishga bo'ysundirish epchil transport sistemasi bilan bog'lash va natijada epchil texnologik kompleksga ega bo'lish mumkin.

Shu bilan birga bir narsani aniq tasavvur qilish kerakki ko'p miqdordagi robotlarni oddiygina joriy etishdan ko'ra robotlashtirilgan, aniqrog'i epchil komplekslarni yaratishning o'zi juda katta ilmiy, amaliy muammoni keltirib chiqaradi. Hamma korxonalar ham o'z kuchlari bilan birga bunday masalalarni xal etish imkoniga ega emaslar.

Afsuski, ilmiy iqdriyot institutlari tomonidan kizrxonalarga bo'layotgan yordam sezilarsizdir. Ular shu vaqtarda umumiy printsiplarni ishlab chiqish va zavod loyixalarini ekspertiza qilish bilan cheklanadilar yoki robotlarning yangi modelini yaratadilar.

Shunday fikr tug'iladi, yuqori narxda bo'lsa ham past xarakteristikaga ega bo'lsa ham, robotlarni joriy qilish kerak, chunki ular odamlar o'rnnini egallaydilar, degan buyruqbozlik xis-tuyg'usi ham hukm surmoqda. Bu xavfli yanglishmovchilikdir. Robotlarning yuqori narxi ostida ularni loyixalashga tayyorlashga sarflangan katta mehnat turadi. Ish joylariga robotlarni o'rnatish, ta'minlash va ta'mir qilish katta mehnat talab qiladi. Xisoblar shuni ko'rsatadiki, agarda bitta ishchini robot bilan almashtirish o'zini qoplamasa, mehnat resurslarini iqtisod qilish to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas.

Bir so'z bilan aytganda, robotlarning ahamiyati ularni inson bilan almashinuvdagina emas. Kelajak epchil, uyushgan komplekslarnikidir. Robotlashtirish sotsial problemalarni unga zid bo'limgan xolda, iqtisodiy samara bilan mos keltirilgan xolda amalga oshirilishi kerak.

Sanoat robotlarini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallagan Yaponiya atrof-muxitda inson uchun juda xavfli bo'lgan ishlarni bajaruvchi, harakat qiluvchi «aqlli» robotlarning to'rtini yaratishda asosiy kuch xisoblanadi. Yaponiyadagi kabi ~~—~~ Yaponiyada bu iyali qiziqish natijasi Sukubadagi Xalkaro ilmiy ko'rgazmada o'rnatilgan, unda oddiy elektroorganda chaluvchi insonga o'xshash ajoyib aneroid (odamga o'xshash robot) ni namoish etilgan.

Tokioning ikki firmasi —Nitachi ztd va Toshiba Sogr tomonidan yaratilgan eksperimental robotlar sanoat tadbiqiga juda yaqin. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan apparat vositalarini xaqiqiy tajribali robotlar qatoriga kiritish mumkin emas, biroq ularning konstruktсиyalarini o'rganish yaqin kelajakda paydo bo'ladigan yapon robotlarning avlodini qanday ko'rinishda bo'lishini aniqroq tasavvur qilishimizga imkon beradi,

Nitachi firmasining harakat qiluvchi roboti batareyalar yordamida mustaqil ravishda xonada asta-sekin yura oladi. Bunday robot tekis bo'limgan yuzalarda ham xarakat qila oladi, chunki unda tayanchlari yuqoriga qarab ketgan narvon zinalari bor. Shunday qilib, uning xotirasida ma'lum yo'nalishlar saqlanib qolib, katta bo'limgan qarshiliklarni engib o'ta oladi. Shuningdek xarakat qiluvchi olti turli xarakatlanuvchi manipulyatorlari bilan eshikni ochishi yoki predmetlarni surishi, elektrik yoqib-o'chirish asboblarini manipulyatsiya qilishi va boshqa ishlarni ham bajarishi mumkin. U ish vaqtida har bir sekundda o'z xolatini va xarakatini, xarakat yo'nalishini qayta xisoblaydi.

Toshiba-firmasi Tokio universiteti pretsizion (yuqori aniqlik) mexanizmlar kafedrasining mutaxassislar kollektivi bilan birgalikda o'zlarining sanoat uchun kerakli bo'lgan aqlli robotlarini ishlab chiqdi. Amootu roboti xar biri 3 ta barmoqchalar va g'ildirak bilan tugagan 4 ta yig'ilgan oyoqdan iborat. Tekis yuzada siljish davomida u bilan kontakt har bir oyoqning g'ildiragi bilan yuzaga keltiriladi va xarakat g'ildiraklarning xarakati natijasida sodir bo'ladi. Qachon robotga zinapoya orqali yuqoriga chiqishga to'g'ri kelib qolsa, g'ildiraklar to'xtab qoladi va oyoqlar harakatga kiradi. Amootu robotining manipulyatori inson qo'liga xos bo'lgan harakatning olti turi bilan va elka burilishi, beldan gavdaning yuqori qismini ta'minlovchi xarakatning ekvivalentligining uch turi bilan xarakterlanadi. Ozuqasi pupovinniy kabel orqali beriladigan bu robot 360 kg massaga ega uning manipulyatori 10 kg gacha bo'lgan yukni ko'tara oladi.

Robotlashtirish avtomatlashirishning to'liq moxiyatini ochib bera oladimi? Avtomatlashirish faqatgina murakkab ilmiy-tehnika va ishlab chiqarish muammosi bo'libgina qolmay, o'z xolicha hamma kollektiv uchun sotsial maktab ham hisoblanadi. Har bir korxona xoxlasa-xoxlamasa juda chuqur tashkiliy-tehnologik o'zgartish kiritishi kerak. Buning ustiga turli xil psixologik to'siglar xisobiga

kollektiv muvaffaqiyatlaridan yuz% foiz foydalaniib ham bo'lmaydi. Shuning uchun har bir kollektivning o'z shaxsiy tajribasiga tayanish va ushbu tajribani mukammallashtirishga aloxida e'tibor berishga to'g'ri keladi.

Bir narsani ochiq e'tirof etish kerakki, robotlashtirishga bo'lgan «sun'iy» intilish ayrim vaqtida foyda o'rniga zarar ham keltira boshladi. Axir ishlab chiqarish cheksiz va turli xil bo'lib, avtomatlashtirshning har bir yo'llanmasi o'ziga xos aniq to'siq va qiyinchiliklardan tashkil topgan bo'ladi. Kelajagi porloq bo'lishidan qatiy nazar, robot kompleks avtomatlashtirishning bir bo'lagigina, xolos. Ko pincha robotni oiam panox ko'satkich deb qabul etib, avtomatlashtirishdagi hamma muammoni shunga olib kelib taqashadi. Bu niinaga olib kelishi mumkin? Vaqtinchalik ayrim tash kilotlar oldida xisobot uchun, xaqiqiy hayot taqozosidan chetlashgan tarzda va iqtisodiy samaradorlikni xisobga olmay robotlarni majburiy sotib olish va o'rnatish, albatta, o'z navbatida, kollektivda psixologik to'siq kelib chiqishiga, mehnat unumdorligini oshirish o'rniga asosiy fondni asossiz kuchaytirishga, olib keladi, xolos.

Shu narsani aloxida ta'kidlab o'tish kerakki, robotlashtirilgan komplekslar va epchil avtomatlashtirilgan sistemalarda skladdan tortib stanokdagi harakatlarni kompleks avtomatlashtirish va bu ishlarni elektron vicoqlash masinasi yordamida boshqarishga erishish kerak

Sanoat korxonalarini zamонавиу техника bilan qayta jihozlash masalasi ko'rilib yotgan hozirgi vaqtida faqat robotlashtirilgan komplekslar, epchil avtomatlashtirilgan sistemalarga mo'ljallashning o'zi hayotiy ish emas, albatta qo'l mexnatidan bir daniga mukammal avtomatlashtirilgan sharoitga o'tib olish mumkin emas. Ishlab chiqarishni asta - sekin mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish vositalari, programma asosida boshqariluvchi dastgohlar bilan jihozlab, ular asosida kompyuter orqali boshqariladigan robotlashtirilgan

komplekslar, ephchil modul va uchastkalarni buning etishga o'tish kerak.

Sanoat korxonalarini zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash masalasini yuqori darajada va qisqa vaqt ichida xal etish uchun mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish vositalarini ishlab chiqaradigan maxsus korxona bo'lishi shart. Shundagina, har bir zavod shu korxonaga murojaat etib kvartal, yillik, besh yillik va uzoq muddatga mo'ljallangan reja hamda buyurtmalarni amalga oshirishi mumkin. Robotlar texnikasiga oid ishlarni koordinatsiyalash guruxini tuzish kerak Ushbu gurux sanoat robotlarini, robotlashtirilgan texnologik komplekslarni qo'llash, yangi texnikani joriy etish tartiblarini aks ettiruvchi – metodik ko'rsatmalar ishlab chiqishi kerak. Bundan tashqari, robotlashtirish ob'ektlarini aniqlash maqsadida ekspert taxlillar ham olib borilishi talab etiladi.

Olib borilgan tekshiruv natijalari shu narsadan dalolat beradiki korxonalardagi texnikaviy rekonstruktsiya va qurollantirishga oid qiyinchiliklarni ikki guruxga bo'lish mumkin: 1) tashkiliy – texnikaviy; 2) metodologik.

Tashkiliy – texnikaviy muammoni xal etishga bo'layotgan asosiy to'siq quyidagilardan iborat: kerakli uskunani ishlab chiqara oladigan va sozlaydigan tashkilotni topish qiyin; ishlab chiqilgan loyixa asosida buyurtirilgan uskunani o'z muddatida olish qiyin ya'ni ta'minot sistemasi shunchalik eskirib ketganki, korxonaga yordam berish o'rninga uning ishini buzadi; korxona va tashkilotlar o'zaro shartnoma majburiyatlarini amalga oshirishni shart deb hisoblamaydilar.

Bizning fikrimizcha, xo'jalik mexanizmini qayta ko'rish albatta epchil operativ ta'minot masalasini ham o'z ichiga oladi.

Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni uchta tamoilga bo'yusundirish mumkin: birinchidan, robotlashtirish ob'ekti sifatida uchastka va tsexlarni shunday tanlash kerakki, u erda avtomatlashtirish vositalarini

joriy qilish va undan samarali foydalanishi uchun hamma shart – sharoitlar mujassam bo'lishi kerak. Hayotda esa bu tamoil ko'pincha buzilib turadi. Yangi uskunalar eskirgan uskunalar bilan bir qatorga qo'yiladi yoki oldindan samarasizligi aniq bo'lgan ishlarda foydalaniлади.

Joriy etilayotgan texnika faqat yangi bo'libgina qolmay, balki arzon va ishonchli bo'lishi ham kerak.

Nihoyat, uchinchi tamoil, kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni kadrlar bilan taminlash masalasidir.

Kerakli uskunaga buyurtma berish, uni o'z vaqtida olish maqsadga erishish yo'lidagi yarim ishdir, chunki uskunani to'g'ri, xizmat vazifasiga talab beradigan darajada ekspluatatsiya qilish muhim ahamiyatga egadir. Baxtga qarshi respublika mashinasozlik kompleksida yuqori malakali mutaxassislar – sozlovchilar, montajchilar, elektrshunoslar etishmaydi.

Yangi texnikadan to'liq foydalanish biz xoxlagan darajada emas. Bunga, bir tomondan, mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi kamchiliklar kirsa, ikkinchi tomondan, mutaxassislarning ishlab chiqarishni qayta qurollantirish ishi bilan band bo'lgan ishchilar kollektiviga rahbarlik qilishining sustligidir. Bu erda, albatta, mutaxassisning shaxsiy aybidan tashqari, u xizmat qilayotgan korxona rahbarining ham aybi hor Ishha kelgan vosh mutaxassis odatda bo'lib turadigan ishonchsizlik, tashabbusga quloq solmaslik natijasida mustaqillikni yo'qotib qo'yadi. Yosh mutaxassislarga jiddiy topshiriq berish o'miga ularni mamnuniyat bilan noo'rin jamoat ishlariga jalb qilish, qishloq xo'jaligiga yordam beruvchi ishlarga jo'natish odat tusiga kirib qolgan edi Attestatsiyalar esa norasmiy tarzda o'tkazilar edi Demak, kadrlar tayyorlashnnig yangi shakllarini izlash taqozo etilardi.

Hamma gap akademiya fani, oliy o'quv yurti fani, tarmoq institutlar va korxonadagi laboratoriylar va izlanish uchastkalaridagi

nazariy, amaliy va tajriba . 'hlarni mujassamlashtirish yo'lini tushishda edi.

Hozirgi zamон korxonalari turli xil texnologik jarayonlarni amalgalashirishi mumkin. Har bir korxona o'zicha ishlab chiqarish kompleksini uch smenada band etolmaydi, demak ushbu korxonalarining hech biri o'z— o'zini oqlay olmaydi. Baxtga qarshi bunday xolat oddiy tusga kirib bormoqda edi. Buning oldini olish uchun nima qilish kerak? Buning uchun ayrim texnologiyalar ko'rinishi va mavjud uskunalar bo'yicha bir necha korxonalararo kooperatsiyani amalgalashirishi kerak.

Korxonalarda avtomatlashtirish soxasidagi yangi tashkilotni yaratish hozirgi kun talabidir. Ushbu rolni amalgalashirishi yo'lidagi birinchi va asosiy vazifa esa korxonalarda ekspert tekshiruv va izlanishlar olib borishligidir.

Agar korxonalarda ekspert tekshiruvlar olib borilmas va shu tariqa ichki rezervlar qidirib topilmas ekan, qo'shimcha kapital mablag' va asosiy fondlar xajmi asossiz tarzda oshib boraveradi. Ekspert tekshiruvlar yordamida qaysi uchastkada, tsexdan qachon va qanday asosda kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish loyixalarini ishlab chiqish yo'l—yo'riqlari qidirib topiladi? Albatta, bunday murakkab va muhim muammoni uch—to'rt kishi oddiy xisob—kitob bilan amalgalashirishi olmaydi. Buning uchun eng avvalo nazariy tadqiqotlarni olib borish va metodik qo'llanmalar ishlab chiqish kerak.

Nazariy tadqiqot shuning uchun kerakki, hozirgi kunda korxonalarda yangi xo'jalik mexanizmini amalgalashirishda ishlatilayotgan va ishlab chiqilayotgan kelajakda bunyod etilayotgan asbob—uskunalarning xizmat vazifasi turlicha, ishlab chiqilayotgan maxsulot nomenklaturasi o'zgaruvchan; ishlab chiqarishning boshqaruv sistema va printsiplari hamda texnologik jarayonlarining ko'rinishi har doim dinamik o'sishda, shuning uchun ushbu faktorlarni oddiy model va xisob—kitob bilan amalgalashirish bo'lmaydi.

Chalkash faktori^{ar} ta'sirida xal etiluvchi muammeli imitatsion model yordamida echish mumkin. Ayrim fanlar rivojida modellashtirishga bo'lgan e'tibor etarli darajada emas. Misol uchun texnologik jarayonni boshqarish, robotlashtirilgan kompleks, epchil avtomatlashtirilgan sistemalarni olaylik. Mutaxassislarning beqiyos katta mehnatini e'zozlagan xolda, shu narsani qatiy e'tirof etish kerakki, pochta xizmati fani xali aniq va miqdoriy xisoblarga ega bo'lgan fan qatoridan o'rin organicha yo'q. Pochta xizmati texnologik jarayonlarini boshqarish, robotlashtirilgan komplekslarni, epchil avtomatlashtirilgan sistemalarni buniyod etish muammolarning taraqqiyot qonuniyatlarini xali to'liq tarzda tenglamalar va formulalarda aks ettirilganicha yo'q.

Shuning uchun keyingi yillarda imitatsion modellashtirishga katta ahamiyat berilmogda. Imitatsion modelsiz korxonani rekonstruktsiyalash, samarali avtomatlashtirilgan boshqaruvi sistemalari, robotlashtirilgan texnologik komplekslar epchil ishlab chiqarish modellarini buniyod etish va ulardan to'liq foydalanish masalasini xal etib bo'lmaydi. Ayniqsa uch smenali ishni tashkil etish muammoсини to'la – to'kis xal qilishda, korxona ichki rezervlarini qidirib topishda asbob – uskunalar unumдорлигини aniq belgilashda, perspektiv taraddudlarni aniqlab chiqishda imitatsion modelning roli benihoya kattadir. Imitatsion model bu mutaxassisning rasmiylashgan tafakkurini modellashtirish olib beruvchi inson – mashina sistemasidir.

MARKETING — KERAKMI?

Oliy o'quv yurti ishlab chiqarish, akademiya institutlari bilan birlgilikda mujassam ittifok tuzish kerak. Buning uchun o'quv ilmiy- ishlab chiqarish komplekslari, korxonalarda kafedra filiallарini tashkil etish, tajriba bazalarini hozirgi zamon asbob—uskunalari bilan jihozlash talabalarning ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotlarini hayotga, ishlab chiqarish sharoitlariga muvosiqqlashtirish, har bir yosh mutaxassis oldiga mustaqil vazifani xal etishni qo'yish va uning shaxsiy javobgarligini oshirish kerak.

Bu soxada ham qator siljishlar bor, lekin bu faqat ishning boshlanishidir, xolos, chunki xatto hozirgi zamon texnologik uskunalarga ega bo'lgan korxonalar ham rakobatlasha oladigan maxsulotlar ishlab chiqarish qurbiga ega emas. Chunki bunday korxonalar rakobatlasha oladigan maxsulotni ishlab chiqarish masalasi yo'l—yo'riqlari, usullari kompleksi, qisqacha qilib aytganda, shunday maxsulot ishlab chiqarish sistemasini egallamaganlar. Marketing sistemasi ishlab chiqilmagan. Bu nima degani? Marketing — talab, bozor ahvolni qaysi maxsulotni ishlab chiqarish kerakligi nuktai nazardan o'rGANISH sistemasidir. Texnika tomonidan taraqqiy etgan chet el mamlakatlarida 40 — 50 yildirki marketing texnologiyasi o'rgatilib kelinmoqda.

Sobiq sovet mamlakatida esa jamiyatshunoslar — marketingni — chirishning eng so'nggi bosqichidagi madadkor — sifatida ta'riflab kelishgan edi. Endi esa bunday ta'rif ustidan faqat kulish mumkin, xolos. Chunki marketingni o'rGANMASLIK chirishga asos solishi mumkinligini hayotning o'zi tasdiqlab berayapti. Albatta, ushbu soxani rivojlantirish uchun o'quv dasturlari, qo'llanmalar, metodik kurslarni ishlab chiqish va tashkil etish amalga oshirib kelinmoqda.

Hozirgi kunda istiqbolli rejistar kompleks dasturlarini umumiy xayolot tarzida emas, xayotga yaqinlashtirilgan xolda, jonli qilib ishlab chiqish masalasi tobora jiddiyroq ko'tarilmoqda.

Ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish perspektiv dasturini ishlab chiqishda yuqorida zikr etilgan muammolarni qanchalik tez va soz xal etsak, ishimiz shunchalik unumli va chet el texnologiyasi, texnikasi, ishlab chiqarish usullariga bo'lgan qaramligimiz shunchalik kamayadi.

Bu ishda xodimlarni, ishpab chiqarish mutaxassislarini, yordamchi ishchilarни qiziqtira oladigan, ragbatlantira oladigan iqtisodiy richaglarni o'ylab topishimiz, ishga tushirishimiz kerak. Hayotiy iqtisodiy richagsiz muvaffaqiyatga erishish mushkui.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra maxsulotning faqat 18 foiz yangi namunalarigina yil davomida yaratiladi. 37 foiz namunalari tayyorlashga ikki yil ketadi. 24 foizi esa 4 yil va undan ortiq muddatda tayyorlangan. Eng qizig'i shundaki, maxsulotning yangi namunalari seriyali ishlab chiqarilguncha ma'naviy eskirib qolayapti.

Bulardan tashqari, chet eldan olinayotgan mashina uskunalar to'liq kompleks talabga javob bermaydi, boshqaruv dasturlari, sun'iy qismlar tayyorlashga va bu uskunadan samarasiz foydalanish xollari ham sodir bo'lmoqda.

Xo'jalik vuritishning yangi usullari o'z nafosini boshqa ta'minlash, albatta, korxona kollektivini o'z burchiga — ishga boshqa nuqtai nazardan, ya'ni ishlab chiqarishni rivojlantirish, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ishlariga bir tomonlama emas kompleks tarzda qarashni talab etadi.

KOMPLEKS BOSHQARISH

Masalaga kompleks yondashmaslik juda ko'p yutqizuv, yo'qotuv va zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligi misollarda namoyon bo'lmoqda.

Oxirgi 50 yilda avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish avtomat zavodlar, odamsiz texnologiyalar va nixoyat, oxirgi 30yil ichida epchil avtomatlashtirilgan sistemalar xaqida juda ko'p gaplar, baxs va munozaralar, shu bilan birga ushbu soxada juda ko'p nazariy, amaliy izlanishlar olib borildi.

Biroq, shu vaqtgacha amalga oshirib kelingan ishlarda turli xil ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra kompleks yondashish, sistemalilik printsiplari to'la amalga oshirilmagan. Masalan, korxonalarda avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalarini joriy etish masalasini olib ko'raylik. Bunda shu vaqtgacha kim qanday xoxlasa shunday tarzda xal etiladigan masalani qo'ya bilar, uning echimini qidirar edi. Hayot esa bu uslubning mutlaqo samarasiz ekanligini isbotlab berdi va shu sababli avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalariga bo'lgan mulohazalar ham o'zgarib bordi.

Oddiy imorat qurishni olib ko'raylik. Avtomatlashtirilgan boshqaruv sistema to'liq joriy etilgan mamlakatlarda imorat qurilishi oldidan mukammal grafik tuzib olinib ish hajmi hamda kerakli materialni olib kelish yo'llari aniqlab olinadi. Bu ish grafik asosida to'la – to'kis amalga oshiriladi. Qizig'i shundaki, asosiy voqelik bu qurilish uchastkasiga olib keluvchi yo'l masshtabidir. Qurilayotgan ob'ektga odamlar albatta qo'njli etik kiyib borishi yuk mashinasidan boshqa mashina o'ta olmasligi, qurilish tugagandan keyin esa qorishma, beton, metall parchalarini xoxlagancha tashlab ketish natijasida u erga tuproq solib ekilgan daraxtlar ham imkonli boricha o'sishga urinib qurib so'ng ildizi betonga taqalganda quriy boshlaydi.

Ikkinchı nisol shaharning ko'chalaridan gaz – vodoprovod hamda kanalizatsiya trubalarini o'tkazish jarayoni xisoblanadi. Birinchi idoralararo to'sqinliklar sababli ushbu ishni kompleks boshqarilmasligi bo'lsa, ikkinchi amallab tugallangan ishni hamma talab qonun – qoida bo'yicha amalga oshirilmasligi oqibatida oylab, kvartallab yo'lni asfaltlab qo'yilmasligi, asfaltlangan taqdirda ham birinchi yomg'ir yoqqandan so'ng cho'kib ketishligidir. Qanchadan – qancha davlat mablag'larining bekorga sarflanishi insonlarga tug'dir iladigan noqulayliklar echilishi kerak bo'lgan masalaga kompleks yondashmaslikning oqibatidir albatta.

Masaiga sistemali, kompleks yondoshish oiladagi ikir – chikir ishlardan tortib davlat miqyosidagi muammolarni korxonalardagi intensivlash ishlarini xal etishda eng omilkor usul bo'lib xisoblanadi. Reja hamda ma'muriy buyruqlarni bajarishgina emas, raqobatlasha oladigan sisatli maxsulot uskunalar ishonchliliqi, kollektivni iqtisodiy tomondan rag'batlantira oladigan uslublarni qidirib topib zudlik bilan hayotga tatbiq etish kerak.

Zamonaviy dastgohlar oldida turgan hozirgi echilmagan masalalar nuqtai nazaridan birinchi qarashda bu mayda – chuyda masala bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin ulkan uskunada detallarga bevosita ishlov berishga faqat 30 – 50 foiz ishchi vaqtি ketadi, qolgan qismi esa detallar o'rnatishqa, tayyor maxsulotni mahkamlash, o'lchashlarni tekshirish, qirindilarni yig'ib olish uchun ketadi. 11 metrli planshaybali karusel stanogida yuqori malakali ishchilar bir smenada 5 tonnagacha bo'lgan qirindilarni qo'l bilan yig'ishtirib oladilar, o'lchovlar xuddi qurilish ruletkasi bilan olib borilgandek tuyuladi, detal esa qo'shimcha kalit va 3 metrli uzaytiruvchi truba bilan mahkamlanadi.

Yangi uskunalarni tezroq o'zlashtirish, programmalashtirilgan texnik qayta qurollanishdagi kamchiliklarni tugatish uchun, qidiruv ishlariga ijodiy hamdo'stlik brigadalari, ya'ni ishchi va mutaxassislardan

iborat, kashfiyotchilar va atsionalizatorlar ishi kerak. Bu esa ko'p ishlarning sur'atini ko'chaytirishga imkon beradi.

Ulkan stanoklarni ishlatish tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularning eng zaif joylari elektr uskunalar, gidravlik va boshqaruv sistemalarining bir-biriga tutash joylaridir.

Ular narxning 50 foizini tashkil etuvchi baza qismlari uskunaning aniq parametrlarini saqlagan xolda yana ko'p yillar ishlashlari mumkin.

Xisoblar shuni ko'rsatadiki, eskirgan uzellarni almashtirib va stanoklarni avtomatlashtirishning zamonaviy asbob—uskunalari bilan jihozlash, uskunalar ishlashini 1,2—1,5 baravar ko'paytirib, uning chidamliligini 30—40 foizga va xizmatini ham sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu xolda xarajatlar ishlab chiqarilayotgan stanoklar narxidan ikki—uch marta arzon bo'ladi.

Shuningdek, mamlakatimizdagи asosiy korxonalardagi yirik stanoklarning texnik xolatini tekshirib, kapital ta'mir qilish bilan zamonaviylashtirishning muddat va ro'yxatga olinishini belgilash kerak. Stanoklarning kerakli jarayonlarni ketma—ket amalga oshirish uchun uni programma bilan ta'minlash oson bo'lgan emas.

Lekin yaqinda Avstriya firmasi «Fest—Alpins» raqam bilan boshqaruv sistemasini ishlab chiqdi. Bu usul bilan ma'lumotlarni kiritish nutq rejimida ya'ni inson—mashina o'zaro dialogi jarayonida amalga oshiriladi va hisoblash texnikasida maxsus bilimlar talab qilinmaydi. Undan tashqari, tayyor informatsiyani rangli display ekranida tasvirlab, shu ekranda qaerda va qancha metalni olib tashlash qanday oxirgi shaklni qabul qilish mumkinligini ko'rsatish mumkin.

Mashina ishlov berish traektoriyasini «quradi» va uning o'zi ketma—ket qilinadigan jarayonlarni ishlab chiqib, ularni avtomatik tarzda xotiraga kiritadi. Buning aksi ham bo'lishi mumkin. Masalan, kiritilgan programmani ekranda yoritish, ketma—ket o'zgaradigan shakl bosqichlarini kuzatish mumkin.

Ivanovo ilmiy tekshirish va to'qimachilik sanoati texnologiya institut mutaxassislari to'quv iplarining uzilishni tekshirib turish uchun qurilma yaratdilar. U har kanday to'quv ishlab chiqarish dagi chiqitdan qutilishga yordam beradi qurilmasining uzilishini sezsa, elektromagnitlar to'quv mashinalariga pishitilgan iplarning kelishi ham to'xtaydi. To'quv bo'linmasi to'xtatiladi va ishchi nuqsonni yo'qotadi. Bu qurilma Ivanovodagi gazlama kombinatida sinovdan muvaffaqiyatli o'tdi.

Fan texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri o'nlab xattoki yuzlab o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan katta sistemalar deb ataluvchi sistemalarni tashkil etish va uni ekspluatatsiya qilish bilan bog'liqdir. Ularga misol bo'lib atom elektr stantsiyasi yoki minglab kilometrlarga cho'zilgan neft – gaz quvurlari xisoblanadi.

Katta sistemalarning samaraliligi shubhasizdir. Lekin ularning qaltis tomonlari ham bor. Masalan, bitta agregatnnng izdan chiqishi qoidaga muvofiq butun sistemaning izdan chiqishiga, ya'ni katta yo'qotishlarga olib keladi. Bu yo'qotishlardan qutilishga intilish, muhim masala qatoriga texnika ishonchlilagini oshirish masalasini kiritdi. Ishonchlilik, o'z navbatida, keraksiz tarzda ortiqcha metall ishlatish, zarur bo'limgan xolatlarda qimmatbaxo va kamyob materiallarni ishlatish va rezerv sifatida asosan bekor turadigan agregatlarni eistemaga kiritish bilan bolalashtirish. ... uchun ortiqcha planli – ehtiyyotkorlik ta'mirlari ham ishlatib turiladi; texnikaning aniq xolati shuni ko'rsatadiki, ularni ancha keyinroq ham o'tkazish mumkin, albatta.

Ma'lumki, oldindan planlashtirilgan yo'qotuvlarni birmuncha qisqartirish mumkin, buning uchun xizmatdagagi xodim faqat sistemani to'xtaganligi xaqidagi informatsiyani emas, balki uning sababini tezlik bilan bila olish imkoniga ega bo'lishi kerak. Xuddi shunday malumotlarni texnika diagnostikasining sistemalari va vositalari bera oladi.

Ayniqsa ishlov berish markaziga «ga bo'lgan transport vositalari, stanoklar, robotlar, boshqaruvchi qurilmalardan tashkil topgan epchil avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishda diagnostikaning roli o'sib bormoqda.

Katta sistemalardan farq qilgan xolda jarayonlarning barqaror xarakteri bilan bu erdag'i "epchil" tushunchasi o'zgarishga mo'ljallangan — ishlov beruvchi detallar va asboblar, transport oqimiga yo'llangan ishlov berish ko'rinishlari va rejimlari almashtiriladi. Bir so'z bilan aytganda, sistemaning hamma elementlari juda murakkab, dinamik sharoitlarda ro'y beradi. Shuning uchun uning xolatini kuzatib turish birmuncha murakkablashadi.

Undan tashqari bu masala texnika diagnostikasi yordamida xal etilishi mumkindir. Ular har qanday texnikani ekspluatatsiya qilishning samarasini, eng avvalo uning aniq xolatini baholash xisobiga oshirishda imkon beradi.

Bundan planli ogohlantirish ta'mirlaridan zaruriy xoldagi ta'mirga o'tish imkoniyati kelib chiqadi.

Bunday ta'mir faqatgina kerakli uzel va qurilmalar uchungina amalga oshiriladi. Bundan tashqari, xatolarni qidirish uchun sarflanadigan vaqtini iqtisod qilish evaziga uskunalardan foydalanish koeffitsienti ham oshadi.

Nihoyat, texnikaviy diagnostika sistemasi uskunalarini eng maqbul rejimda ekspluatatsiya etish imkonini berib, harajatlarni kamaytiradi. Texnikaviy diagnostika sistemasining roli ayniqsa yangi texnika va texnologiyani yaratishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Yangi texnika namunalarini ishlab chiqish va sinash, seriyali ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda texnikaviy diagnostika muddat, kuch va texnika vositalariga bo'lgan harajatlarni qisqartirib, yangi maxsulotni yuqori texnikaviy darajaga erishishiga imkon beradi.

Hozirgi kunda texnikaviy diagnostikaning iqtisodiy samara berishi mumkinligi isbot etildi. Texnikaviy diagnostikaning tannarxi xizmat

* etadigan uskunanining tannarxidan 10—15 foizni tashkil etadi. Uskuna^{**}ni texnika diagnostikasisiz ekspluatatsiya etganda tannarxi boshlang'ich tannarxidan 4—6 marta ortiq xarajat bo'ladi. Texnikaviy diagnostikaga saflangan har bir so'm o'rtacha 10—15 sum samara berishi isbot etilgan. Texnikaviy diagnostikani ishlab chiqish va joriy etishga chet elda ham katta ahamiyat berilmoqda. Masalan, yapon mutaxassislari inson ishtirokisiz ishlab chiqarishning boshqaruv sistemalarida ko'p darajali texnikaviy diagnostikani qo'llash tabiiy xolat deb xisoblaydilar. Buning uchun diagnostikaning namunali sistemalari, maxsus apparatlar va matematik ta'minotlar ishlab chiqilmoqda. Amerikadagi firmalar esa bir—biridan uzoq masofada joylashgan qator zavodlar texnologik uskunalari xolatini, texnikaviy diagnostikani amalga oshirish ustida ish olib bormoqdalar.

Bizning mamlakatimizda turli xil soxalarga mo'ljallangan texnikaviy diagnostikani ishlab chiqish bo'yicha ma'lum nazariy va amaliy natijalar qo'liga kiritilgan.

Biroq diagnostik sistemalarning joriy etilishi va bu soxadagi ishlarni tashkil etish darjasini hayot talabiga javob bermayapti. Asosiy kamchiliklardan biri diagnostika bilan shug'ullanadigan maxsus ilmiy—ishlab chiqarish tashkilotlarining yo'qligidir. Kadrlarni tayyorlash masalasi ham ko'ngildagidek emas. Iqtisodni intensiv yo'ldan olib ~~maxsus ilmiy vositalari~~ do'igan epchil ishlab chiqarish sistemasiga alohida e'tibor berish kerak. Diagnostikasiz epchil avtomatlashtirilgan sistema samarali ishlay olmaydi. Shuning uchun korxonalarda bosh texnolog qoshida texnikaviy diagnostika bo'yicha bo'linmalar tashkil etish kerak.

ECHIL ISHLAB CHIQARISH SISTEMLALARI

Echil ishlab chiqarish sistemalarining birinchi namunalarini joriy etilishi natijasida chaqqonlik, unumdarlik va past tannarx ta'min etildi.

Agar XX asrning birinchi yarmida avtomatlashtirish masalalari faqat ommaviy ishlab chiqarishga taalluqli bo'lgan bo'lsa 1950 – yillardan boshlab raqam bilan boshqariluvchi stanoklarning yaratilishi tufayli donali, mayda seriyali va seriyali ishlab chiqarishda avtomatlashtirish yo'llanmasi boshlandi.

Echil ishlab chiqarish sistemalarining joriy etilishi ham o'z nevbatida donali, mayda seriyali va seriyali ishlab chiqarishda kerak bo'lgan avtomatlashtirishni boshlab yubordi.

Mashinasozlikdag'i ishlab chiqarish vositalari taraqqiyotiga, ya'ni universal stanoklardan, maxsus stanoklardan, stanok – avtomatlardan avtomatik liniyalar va bikir zavod – avtomatlargacha bo'lgan davrga insoniyat 200 yildan ortiq vaqt sarfladi. Birinchi mexanizatsiyalashgan tokarlik – nusxa ko'chirish stanogi 1712 yilda, 1960 yilda g'arbiy mamlakatlarda (AQSh) birinchi bo'lib podshipnik xalqasini ishlab chiqarishga mo'ljallangan avtomatik zavod qurildi.

Taraqqiyotning yukorida eslatib o'tilgan bosqichi, asosan elektromexanik qurilmalar asosida avtomatlashtirish bilan xarakterlanadi. Bunday zavodlar mehnat unumdarligini 5 – 10 marta oshirib, tannarxni 30 – 50 foiz kamaytirib, faqatgina uzoq muddatgacha konstruktsiyasi o'zgarmaydigan ommaviy ishlab chiqarish da qo'llaniladigan detallarga ishlov berish uchun mo'ljallangan edi. Shunday qilib, avtomatik zavodlar unumdarligini oshirish ularning universalligini yo'qotish evaziga erishilgan edi. Bunday qarama – qarshilikni yo'qotish, yangi texnikaning ishlab chiqarishdagi harakatchanligini oshirish va nihoyat donalab va seriyali ishlab chiqarishni avtomatlashtirish masalalari mutaxassislarini yana universal stanoklarga qaytishga olib keldi. Avvaliga elektron texnikani

qo'llash 3vaziga raqamli programma bilan " boshqariladigan (RPB) avtomatik liniyalar, keyingi yillarda esa RPB bilan jihozlangan ko'p shpindelli avtomatlar yaratildi. RPB – stanok – avtomatlarni buniyod etishga insoniyat 30 yil vaqt sarf etdi. Haqiqatdan ham RPBlar donalab va seriyalab ishlab chiqarishda ma'lum samaraga erishgan bo'lsa ham, ommaviy ishlab chiqarishda sezilarli natijalar qo'lga kiritilmadi. Elektronikaning taraqqiy etishi, kompyuter va mikro – protsessorlarning qo'llanilishi RPB ning yangidan – yangi imkoniyatlarini ochib berdi. RPB bilan jihozlangan va kompyuter bilan boshqariladigan universal stanoklarning yaratilishi korxonalardagi ishlab chiqarish jarayonlarini va sanoatning boshqa tarmoqlarini avtomatlashtirishning yangi yo'lini ochib berdi. Ya'nii universal stanoklarning hamma afzalliklarini namoyon etib, yuqori unumdorlikda turli xil detallarni ishlab chiqaradigan avtomatik liniyalar va zavodlarga yo'l ochildi, ishlab chiqarishni epchil boshqarish imkoni tug'ildi. Ushbu yo'nalish kompyuter bazasidagi to'liq integrallashgan avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishga olib keladi. Bu yo'llanma taxminan 10—15 yil ichida nixoyasiga etadi.

Fan va texnikaning bundan keyingi taraqqiyoti mashina va sistemalarning ishonchliligi va o'z – o'ziga diagnostika qo'yish muammosini xal etib to'liq integrallashgan inson ishtirokisiz ~~ishlab chiqarish~~ ishlab chiqarish va zavodlarni barpo etilishiga olib keladi. Bundan keyingi bosqich mashina, sistema, zavodlarni to'xtamasdan o'z – o'zini rostlaydigan tarzda ishlaydigan xolatdagi ishlab chiqarishni buniyod etishga olib keladi. Ko'radigan, eshitadigan, sezadigan va nihoyat, o'ylaydigan mashinalar ushbu bosqich asosini tashkil etadi.

Chiqitsiz texnologiya, kukundan yoki bevosita suyuq metaldan presslash kompozitsion materiallardan foydalanishga o'tish, kesish bilan ishlov berish jarayonini kamaytirish o'z navbatida korxonalarda ilmiy – texnikaviy inqilobni vujudga keltirib, yangi ko'rinishdagi yuqori unumdor mashina, sistema va zavodlarni barpo etishga olib keladi. Bu

esa ayniqsa, epchil sistemi surʼi buniyod etishni rejalashtirish, uʼkunalar tarkibini hisoblash, epchil ishlab chiqarishni boshqarish uchun kerak boʼlgan parametr va ishlab chiqarish sistemasini tanlash bosqichida juda muhim xisoblanadi.

Epchil avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishning mazmuni shundan iboratki, bir detalga ishlov berishdan boshqa detalga ishlov berishga oʼtishda texnologik yoki xoxlagan boshqa uskunani sozlamasdan oʼtiladi, agar mabodo sozlash kerak boʼlib qolgan taqdirda oldingi detalga ishlov berish bilan parallel tarzda amalga oshiriladi. Epchil ishlab chiqarishda, odatda, asosan texnik, injener darajasidagi operatorlar qatnashadi, ishchining qoʼl mehnati esa juda köp boʼlмаган айтим ishlarda, masalan, yarim maxsulotlarni о’рнатишда talab etiladi. Epchil ishlab chiqarishni boshqarishda kompyuterning qoʼllanilishi hamma koʼrinishdagi – ishlarni kompleks avtomatlashtirishga imkon beradi.

Epchil sistemaning yangiligi shundan iboratki, ular ishlab chiqarishni tashkil etishning faqat potok usulining emas, balki bir mashinada, bir operatsiyada detalga imkon boricha toʼliq ishlov berishni nazarda tutuvchi markazlashgan ishlov berish xususiyatiga egadirlar. Yaratilgan va yaratilayotgan epchil sistemalar, masalan, mexanik ishlov berish, presslash, payvandlash, boʼyash, yigʼish va h. k. jarayonlarni avtomatlashtiradi. Epchil ishlab chiqarishni toʼliq tushunish uchun unga tegishli ayrim tushunchalarni koʼrib chiqish kerak.

Kompleks avtomatlashtirish — faqat bittagina emas, bir necha ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish boʼlib, koʼpincha asosiy va yordamchi operatsiyalarni avtomatlashtirish bilan bogʼliq.

Kompleks avtomatlashtirishga qandaydir texnologik jarayonni boshdan – oyoq avtomatlashtirish kiradi. Kompyuterdan kompleks avtomatlashtirishning ayrim masalalarini xal etishda foydalanish ishlab chiqarish integratsiyasini keltirib chiqaradi, yaʼni bir necha ishlab chiqarish sistemalarini, avtomatlashtirilgan jarayonlarni va boshqa

funktsiya hamda m^usalalarni yagona avtomatlashtirilg'an jarayonga mujassamlashtiradi.

Avvaliga qisman integratsiya bonyod etilib, keyin to'liq integratsiyaga o'tiladi. To'liq integratsiya deganda hamma ishlab chiqarish tsikli, texnologik jarayonlar, tashkiliy va boshqaruv masalalarini yagona bir-biri bilan bog'langan kompyuterlar asosida kompleks avtomatlashtirishni tushuniladi.

RPB da umuman sistemani yoki stanokni boshqarish nazarda tutiladi. Hozirgi kunda ayrim stanokni aloxida boshqarish va guruh stanokni kompyuter orqali boshqarish usullari mavjuddir.

Ishlov beruvchi markaz— (IBM) — RPB bilan jihozlangan ko'p maqsadga mo'ljallangan avtomatik stanok. IBM — korpusli va dumaloq detallarga ishlov berishga mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Avtomatlashtirilgan loyixalash sistemasi (ALS) — konstruktorlik ishlari va ishlab chiqarishni tayyorlash hamda rejalashtirishda keng tarqalgan.

Ish yuritishning informatsion sistemasi (IPS). Ushbu sistemadan ishlab chiqarish xolatini taxlil etish va boshqaruvchi xodimni qaror qabul etishi uchun foydalaniladi. Sistema ishlab chiqarish informatsiyasi potokini korxona faoliyati turli xil ko'rsatkichlarini, boshqarishning turli xil darajasidagi statistik ma'lumotlarni — har bir stanokdan operatordan direktorgacha ta'shib etib uskunaiidaning ishlash xolati maxsulot tannarxi, ta'minot masalalarini xal etadi. Gruppali texnologiya (GT). Bu shunday texnologik jarayonki, unda bir-biriga o'lchami shakli, texnologik ko'rsatkichlari bir xil yoki o'xshash bo'lgan detallarga aniq ishlab chiqarish sharoitida grupper tarzida ishlov beriladi.

Epchil ishlab chiqarish moduli (EIM)—bu odatda IBM ya'nini, bir stanokdan iborat, robot yoki detalni yuklashga oid qurilma bilan jihozlangan ob'ektdir, epchilligi kam bo'lsa ham inson ishtiroti siz

10--12 soat ishlashi mumkin. EIM ning markaziy server bilan aloqasi bo'lmasligi ham mumkin.

Epchil avtomatlashtirilgan uchastka (EAU) – bu ikki yoki undan ko'p IBM, transport ishlash qurilmasiga ega bo'lgan tarmoqdir. EAU bir necha EIMdan iborat bo'lishi mumkin.

Epchil avtomatik liniya (EAL) – bu bir necha IBM dan iborat, agregat golovkalari avtomatik almashinadigan yagona yuklash qurilmasidan iborat tarmoqdir.

Epchil ishlab chiqarish sistemasi (EIS) – bu texnologik va yordamchi uskunalar, asboblar, priborlar, transport – yuklash qurilmasi, avtomatik tarzda zagatovka tarqatuvchi skladdan iborat va yagona kompyuterdan boshqariladigan kompleksdir.

Epchil avtomatlashtirilgan tsex (EAS) – bu bir necha EIM, EAU, EAL, EISlarni birlashtirgan, yagona kompyuterdan boshqariladigan kompleks bo'lib, tsex yagona transport sistemasi, asbobsozlik xo'jaligi, tranzit tarqatuvchi – skladga ega bo'lishi mumkin.

Epchil avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish (EAICh). kompyuter bazasida loyixalashni avtomatlashtirilgan sistemasi, ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash sistemasi, EIS, EIS ishlab chiqarishni rejorashtirish sistemasining qisman integratsiyasidir. Yarim maxsulotni zavod eshididan kirgizib tayyor maxsulotni darvozadan chiqarishgacha bo'lgan jarayonni amalga oshira oladigan EAICh xali yaratilmagan. Biroq fan va texnikaning keljak taraqqiyotida bunga, albatta, erishiladi.

Epchil avtomatlashtirilgan zavod (EAZ). Ishlab chiqarishni to'liq integratsiyalash EAZni yaratish imkonini beradi.

Epchil ishlab chiqarishni integratsiyalash faqatgina kompyuterning yangi turlari bazasida amalga oshirilishi mumkin. Shunga o'xshash sistemalar Angliyada, Yaponiyada ham ishlab chiqariladi.

- Epchil ishlab chiqarish sistemi masining afzalliliklari. Keyingi yillar turli xil mamlakatlarda EISni ekspluatatsiya qilishdagi tajriba epchil sistemani odatdagи traditsion sistemalardan afzalligini taxlil etish imkonini beradi. Ushbu afzalliklar quyidagilardan ibarat:
- ishlab chiqarish xarakatchanligi oshadi;
 - yangi maxsulot ishlab chiqarish muddati qisqaradi;
 - ishlab chiqarilayotgan buyum konstruktsiyasiga o'zgartish kiritish ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladi;
 - ishlab chiqarishni tayyorlash vaqtি qisqaradi (o'rtacha 50 foizga,, ayrim xolatlarda 75% gacha);
 - dastgohlami sozlash faqat gruppa detallarni almashtirishdagina amalga oshiriladi;
 - kerakli qo'shimcha asbob miqdori va turi kamayadi;
 - moslamalar konstruktsiyasi soddalashadi va dastgohga yarim maxsulotni o'rnatish vaqtি qisqaradi;
 - RPB stanoklarda ishlov beriluvchi detallar soniga nisbatan, kerakli stanoklar soni kamayadi (taxminan 20—50 % ga);
 - talab etiladigan ishlab chiqarish maydoni (30—40 % ga) hamda yordamchi maydon (ayrim xolatlarda 75% gacha) kamaytiriladi;
 - dastgoh, asbob, moslamalarning boshqa ishlab chiqarish masalalari hamda yangi maxsulotni ishlab chiqarishga jalg qilish ma'nosida ishlab chiqarish quvvati oshiriladi;
 - zavod asbob—uskunalarini yangilash, modernizatsiya qilishni (yangi fan va texnika yutug'i asosida) ishlab chiqarishni to'xtatmasdan va uni kam kapital mablag' sarflab amalga oshirish imkoni tug'iladi;
 - mehnat unumdotligi ishlab chiqarishning hamma bosqichlarida loyixalashda, texnologik tayyorgarlik ishlarida, maxsulotga ishlov berishda, yig'ishda, nazorat etishda hamda hamma yordamchi ishlab chiqarishda (ombor ishlarida, tsexlararo va tsex ichidagi transport ishlarida) oshib boradi;

- har bir maksulotga ishlov berish tsikli maxsulotni o'rnatish va olish ishini, avtomatlashtirish va nazorat etish xisobiga qisqartiriladi;
- inson ishtirokisiz yoki juda kam operator — nazoratchi bilan uzoq vaqt ishlash ta'min etiladi;
- umuman, ishlovchilar soni kamayadi (o'rtacha 30% ga). Operator esa dastgohdagi operatordan jarayonni boshqaruvchi operatorga aylanadi. Yuqori malakali jismoniy mehnat soni kamayib aqliy mehnatga bo'lgan talab kuchayadi;
- asosiy uskunalardan foydalanish ko'effitsienti oshadi, smena ko'effitsienti ko'payadi;
- maxsulot sifati oshadi;
- dastgohni boshqarish ishonchliligi shu darajada oshadiki, operator malakasi maxsulot sifatini oshirishdagi asosiy faktor bo'lmay qoladi;
- maxsulot sifati dastgohga moslamalarni mahkamlash, o'rnatish va boshqaruvchi programma aniqligining funktsiyasiga aylanadi, ya'ni ishchi qo'lidan injener-texnik xodim qo'liga o'tadi;
- tayyor maxsulot sifati oshadi, buyumlarni yig'ishga sarflanuvchi vaqt kamayadi;
- brak soni kamayadi. Chunki adaptiv sistemalar ishlov berilayotgan o'lchamlarni ishlash jarayonida nazorat etib turadi, o'lchamlarni nazorat etish bevosita dastgohning o'zida olib boriladi va nihoyat kerak bo'lsa jarayonga o'zgartish kiritib boriladi;
- ishlab chiqarishning integratsiyasi kuchayadi;
- ishlab chiqarishdagi buyumlarni topishga sarflanuvchi vaqt kamayadi (bir necha oydan bir necha kungacha bir necha haftadan bir necha soatgacha);
- tugallanmagan jarayonlar soni kamayadi;
- dastgohlar orasidagi ishlatalishda to'plangan buyumlar qisqaradi;

- har bir buyumni qaysi vaqtida, qaerda turishi real vaqt rejimida ta'min etiladi. Bu esa, o'z navbatida, har bir buyumning ishlov berishini tezlatadi;
- epchil ishlab chiqarish sistemasini yaratilishi, o'z navbatida, avtomatlashtirilgan loyixa va ishlab chiqarishni tayyorlash, texnologik jarayonlarni boshqarish avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalarini joriy etish va uning vositalaridan foydalanishni taqozo etadi;
- ishlab chiqarishni boshqarish hamma tsikllar bo'yicha yaxshilanadi. Kompyuter tizimida integratsiyani boshqarish, o'z navbatida, texnologiyani boshqarish uskunalar ishini, ishlab chiqarishdagi detal, asbob, moslamaiarning o'tishi va turgan joyini nazorat etishga imkon beradi;
- yuqori mehnat intizomi va ayniqsa ishlab chiqarishni planlashtirishni ta'min etadi;
- ishlab chiqarish tannarxi o'rtacha 10 foizga kamaytiriladi. Bunda mehnat unumdonligini oshirish evaziga emas, asosan texnologik tayyorgarlik va yordamchi ishlarni kamaytirish xisobiga erishiladi;
- ishlab chiqarish va yordamchi maydonlarga bo'lган harajatlar qisqaradi. Bunga isitish va yoritish qiymati (30—40% ga), hamma ko'rinishdagi to'plangan buyumlar qiymati (70—80% ga), va shu kabilar kiradi;
- aylanuvchi vositalar, qo'shimcha harajatlar kamayib, kapital aylanishi tezlashib, kapital mablag' hajmi kamayadi (5—10% ga). Epchil ishlab chiqarish sistemasi qoplanish muddati 2—5 yilni tashkil etadi. Sanab o'tilgan faktorlardan epchil ishlab chiqarish sistemasi ishlab chiqarishning eng kuchli vositasi bo'lib ommaviy ishlab chiqarishdagi avtomatik liniyalar yuqori unumdonligi va past tannarxni o'zida mujassamlashtirgan, donalab va mayda seriyali ishlab chiqarishda universal dastgohlar harakatchanligini oshirish imkonini ta'minlaydigan afzalliliklarga egaligi aniqlandi. EISining eng ko'p bo'lган ko'rsatkichlari ishlab chiqarilayotgan maxsulotning hajmi va

buyumlar nomenklaturasi "rtacha bo'lganda namoyon bo'ladi. Bunga ayim misollar keltirib o'tishimiz mumkin

Frantsiyaning Sitroen degan firmasi Pejo avtomobilning prizmatik detallarini ishlab chiqarish uchun RPB stanoklar ishtirotkida EIS buniyod etgan bitga detalga ishlov berish uchun sarflanuvchi eng kam vaqt 10 minutni tashkil etsa, eng ko'p vaqt 172 minutni tashkil etadi. Kesadigan asboblar 150 ta. Sistema besh koordinatli uchta IM, avtomatlashtirilgan loyixa ishlari, texnologik jarayonni boshqaruvchi avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemasi bilan jihozlangan uch smenada ishlaydi. Ishlovchi xodimlar soni 73 dan 33 gacha kamaygan.

Ushbu sistemaning umumiy tannarxi 35,5 mln frank bo'lib, bundan 23 mln frank stanok va uskunalar qiymatini tashkil etadi. Qolgan qiymat sistemani ishlab chiqish va joriy etishga sarflangan.

Amerikaning Giddings end levis frezera firmasida yaratilgan EIS bitta detalga ishlov berish uchun 14 soat vaqt sarflaydi. Ushbu detalga universal stanokda ishlov berilganda 200 soat vaqt sarflanib, tsexdra 9 oygacha qolib ketar edi. Detalga ishlov berish vaqt 15 marta qisqarib, detalni topishga sarflangan vaqt 9 oydan 14 soatgacha kamaygan.

EIS ning samaradorligi uni ishlab chiqish va buniyod etishdagi bosqichga bog'liq. EISning kamchiliklaridan biri joriy etilish mobaynidagi sarflanuvchi kapital mablag'ning ko'pligi va yuqori tannarxligidadir. Shuning uchun stanoksozlar ham, sistemani buniyod etuvchilar ham iqtisodiy samaranani asoslashda qiyinchilikka uchraydilar. Chunki EISni qo'llashda o'zaro bog'liq bo'lgan faktorlar ham mavjud bo'lib, uni miqdor jihatdan aniqlash qiyin.

Detallarni stanokda mahkamlash va o'mnatish uchun mo'ljallangan moslamalarni to'g'ri tanlash katta ahamiyat kashf etadi. Kesish asboblarini tanlash, saqlash ham muhim muammolardan birdir. Shuningdek, asosiy masalalardan biri kesish asbobini ishlov berish jarayonida tekshirib turib va kesish rejimini to'g'ri tanlash bo'lib

hisoblanadi, qirindilarni yig'ishtirish ham murakkab masalalardan hisoblanadi, chunki ayrim stanoklardan foydalanilganda bu muammo qatiy qo'yilmagan edi.

Programmali boshqaruv sistemasining murakkabligi va ishonchsizligi EISning bo'sh qolishiga sabab bo'ladi. Shu sabab bilan AQShdag'i sistemalarning bo'sh turib qolish vaqtiga 15—30 foizni (ayrim xotatlarda 60 foizni) tashkil etadi.

Epchil ishlab chiqarish har bir xodim rolini o'zgartiradi. Ishchi esa faqat bitta mutaxassislikni biladigan operatordan qator mutaxassislikni egallagan texnikka aylanadi. Injener — konstruktor, mjener — texnolog funksiyasi bir mutaxassislik sifatida birlashib ketadi.

EIS ning hamma imkoniyatlarini joriy etishdagi qiyinchilik uni loyixalash bosqichida paydo bo'ladi.

Epchil ishlab chiqarish ishlab chiqarishning hamma tomonini hisobga olishi kerak. Shuning uchun rejalashtirishdagi sustlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ishlab chiqarishning boshqa sistemalarini integratsiyalash masalasi hal etilmagan bo'lsa EISdan to'la samara kutish qiyin. EISni ishlab chiqishga sarflanuvchi kapital mablag'ni o'z vaqtida qoplash uchun uni namunaviy qilish kerak. G'arb mamlakatlaridagi ko'p firmalar EISni bunyod etish uchun 10—15 yil vaqt sarflab tipovoy namunaviy loyixa asosida kapital mablag'ni 3—5 yilliga qoplasunga ega. EIS ni qrimmaliga tushishiga xal etilmagan masalalarni o'z ichiga oluvchi ilmiy tadqiqot ishlari harajati sabab bo'lmoqda.

Robotlashtirilgan komplekslar

Yaqin vaqtlargacha ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasi ishlab chiqarilayotgan mahsulot seriyasi bilan aniqlanar, mayda seriyali ishlab chiqarishda, odatda individual moslama va asboblarni ishlatish iqtisod nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq emas edi. Bunday ishlab chiqarish yuqori malakali qo'l mehnati va detalga ishlov berishning universal vositalaridan foydalanish bilan shartlangan bo'lib, buyumlarni tayyorlashda ko'p mehnat sarflanar edi.

Seriiali ishlab chiqarishda buyumni ishlab chiqarishga sarflanuvchi mehnat hajmini kamaytirishga asosiy e'tibor jalg etilgan. Shuning uchun ishlab chiqarishni mahsulotning konkret turiga moljallab, texnologik jarayonning ayrim bosqichlarida mexanizatsiyalashning turli xil vosita va qurilmalarini qo'llashga imkon tug'ilgan. Bu erda maxsus moslama asbob – uskunalar qo'llanilgani uchun ishchilar malakasiga bo'lgan talab yuqori ham emas. Ommaviy ishlab chiqarishda mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning maxsus vositalari keng qo'llanilib texnologik jarayon elementar operatsiyalarga bo'linib, potok liniyalari joriy etilgan. Ishlab chiqarish texnik vositalar bilan jihozlanib avtomatlashtirish darajasi oshib borishi bilan yangi mahsulot ko'rinishiga o'tish jarayoni murakkablashib boradi.

Agar avvallari ommaviy ishlab chiqarishdagi mahsulot qismi doimiy o'sib borgan bo'lsa, hozir seriiali va mayda seriiali ishlab chiqarishdagi mahsulot qismi oshib bormoqda. Buning ustiga mahsulotni ko'p ishlab chiqarishga bo'lgan talab ommaviy ishlab chiqarishga xos bo'lgan, ya'ni ishlab chiqarishning yuqori o'sish darajasini talab etadi.

Seriiali ishlab chiqarishga qo'yilayotgan yangi talabni qoniqtirishning yagona yo'li ishlab chiqarishni yuqori unumdor uskunalar bilan jihozlashdir.

Korxonalarga raqamlar yordamida tuziluvchi dastur asosida boshqariluvchi stanoklarning kirib kelishi detallarni tayyorlash va o'chash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini berdi.

Lekin detallarni yuklash va olish, kesish asboblarini almashtirish jarayonlari avtomatlashtirilmay qolaveradi. Umuman, hozirgi vaqtida sanoat korxonalaridagi asosiy texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish darajasi yordamchi va transport operatsiyalarini avtomatlashtirish darajasidan yuqoridir. Shuning uchun raqamlar yordamida tuzilgan dastur asosida boshqariluvchi perspektiv stanoklar juda ko'p ishchilar yordamida ishlatib kelinmoqda. Ishchilarning asosiy vazifasi zagotovkalarni yuklash, tushirish, kesish asboblarini almashtirish, qirindilarni yig'ishtirish va shu kabilar bo'lib qolmoqda.

Robotlarning qo'llanilishi seriyali va mayda ishlab chiqarishdagi yordamchi operatsiyalarini avtomatlashtirish imkonini tug'dirib uchastka, tsexlarni kompleks avtomatlashtirish masalasini hal etib beradi.

Xalq xo'jaligimizda shunday tarmoqlar borki, u erda harakat xavfsizligi ta'minlanishi qiyin bo'lganidan inson bevosita ishlay olmaydi. Ana shunday sharoitlarda texnik mexanizmlar, ya'ni robotlardan foydalanish zarurati tug'iladi.

Qaysi turdag'i robot va manipulyatorlarni aynan berilgan texnologik jarayon uchun qo'llash maqsadga muvofiq bo'lishi hamda qo'llanilayotgan sharoitni nazarga olib qanday qo'shimcha moslamalar yaratish va unga mos ravishda boshqarish dasturlarini tuzish yuqori malakali ilmiy – texnik xodimlarni talab etadi.

Ayrim korxonalarda robotlarning qo'llanilishi aytarli katta samara bermayapti. Unda nima uchun robotlar qo'llanilayapti degan savol tug'ilishi mumkin. Robollar odamlarni og'ir qo'l mehnatidan xalos etib muhim ijtimoiy muammoni hal etmoqda. Lekin robot faqat avtomatlashtirish vositasigina, xolos. Robotlarni faqat amallab u yoki bu uskunaga moslash emas, balki ularni robotsiz ishslash mumkin

bo'limgan jchda qo'llash kerak. Demak, ijtimoiy masala, ya'ni insonlarni og'ir qo'l mehnatidan ozod etish bilan birga, ishlab chiqarish samarasini oshirishni ham o'ylash kerak.

Tajribalar ko'rsatishicha, avtomatlashtirishning an'anaviy vositalari qo'llanganda iqtisodiy samaraning 60 – 70 foizi uskunalar unumdorligini oshirish evaziga, 15 – 20 foizi mahsulot sifatining yaxshilanishi evaziga, faqat 10 – 15 foizigina ish haqini iqtisod qilish evaziga erishilinadi. Demak, asosiy rezerv uskunalar bilan bog'liq ekan. Robotlarni qo'llashda umuman avtomatlashtirish tamoyillarini hisobga olish, ya'ni smenalarini oshirish masalasini hal etish kerak.

Robotlashtirishni rivojlantirish uchun kelgusida qator tadbirlaini amalga oshirish kerak bo'ladi:

birinchidan, oliv o'quv yurtlarida kafedralar tashkil etish;

ikkinchidan, maxsus robotlar yaratish, sinash va takomillashtirish bo'yicha tajriba – eksperimental tsexi qurish va ishga tushirish;

uchinchidan, tayyor robot va manipulyatorlarni kerakli uchastkalarga o'rnatib ishlata bilish kerak.

Sanqat robotlari asbob – uskunalar ishlash smenasini 2 baravar, mehnat unumdorligini 1,5 – 6 marta oshirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda nisbatan oddiy va arzon robotlar qo'llanilmoqda. Keyingi yillarda mukammallahgan boshqarish sistemasi bilan jihozlangan murakkab strukturali va qimmatbaho sanoat robotlari ham ishlab chiqarilmoqda. Ushbu robotlar asosida robotlashtirilgan texnologik komplekslarni ishlash sharoitida uskunalarining ishlash koeffitsienti 1,3 – 1,5 marta ko'p bo'lib, smena davomida mahsulot ishlab chiqarish jarayoni mo'tadillashadi.

Sanoat robotlari asosan mashinasozlik sanoatida qo'llab kelinar edi. Hozirda bu robotlarning qo'llanish sohalari kengayib bormoqda. Jumladan, pochta xizmati soxasida ham.

Robotlarning kon sanoatida qo'llanilishi mehnat unumdorligini 2 – 3 marta oshirib, minglab ishchilar mehnatini engillashtirmoqda.

Mar‘pulyator texnik jihozlardan tashki⁴ topgan oddiy mexanizm bo‘lib, yuklarni ko‘tarish, surib qo‘yish, siqish va shunga o‘xshash ishlarni bajaradi. Robotlar esa manipulyatorlardan birmuncha murakkabroq bo‘lib dastur asosida ishlaydi Robotlar ish jarayonida bir necha operatsiyani bajarishi mumkin. Shuning bilan birga robotning ham imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Robot dasturida qanday ish bajarilishi kerak bo‘lsa, faqat shu ishlarnigina bajara oladi.

Xalq xo‘jaligidagi sanoat korxonalarida robot va manipulyatorlarni qo‘llash ishi ilmiy loyiha tashkilotlari oldida qator muammolarni hal etishni taqozo etadi.

Xalq xo‘jaligidagi fan – texnika taraqqiyotini jadallashtirish masalasini hal etishda nozik avtomatiashadirilgan jarayonlar, avtomatik manipulyatorlar va robotli texnologik komplekslarni yuzaga keltirish muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarishda bunday tizimlarning yuzaga kelishi aslida fan – texnika taraqqiyotida yangi bosqich boshlanganligini bildiradi.

Toshkent traktor zavodida 19 ta sanoat roboti, shu jumladan 8 ta balanslashtirilgan manipulyator, 2 ta «Skarobey» tipidagi transport roboti joriy etildi. «T – 28 XI» va «MTZ – 80X» traktorlari uchun detallarni mexanik ishlovdan chiqaradigan uchastkaga 11 ta sanoat roboti bo‘lgan to‘rtta robototexnologik kompleks xizmat qiladi. Bu robotni uch va undan ham ko‘proq tipdag‘i detallarni ismiovdan chiqarishga moslashtirish mumkin.

Tinimsiz ijodiy izlanish, yangilikka, ilg‘or usullarga intilish – korxona muhandis – texnik xodimlariga xos bo‘lgan fazilatdir.

Respublikamiz iqtisodiyoti ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash asosida intensivlash murakkab va ko‘p qirrali ishdir. U birinchi navbatda mashinasozlik tarmoqlarida fan – texnika jarayonini jadallashtirishga tayanadi, o‘ziga doimiy e’tiborni, istiqbolni ko‘ra bilishni talab etadi. Shuningdek, bu ishni rahbar, ilmiy muhandis –

texnik xodimlar va ishchilarning zo'r tashabbuskorligi va g'ayritsiz hal etish qiyin.

Bular hammasi fan bilan ishlab chiqarishning integratsiyasi davr taqozosi, shu kunning chinakam talabi bo'lib qolayotganligini isbotlaydi. Ilhombaxsh mehnat bilan ijodiy ilmiy fikr ittifoqi ishlab chiqarish samaradorligini yanada yuksaltirishga, uning texnik darajasi o'sishiga, mehnat intizomi mustahkamlanib, ishlab chiqarish madaniyati yuksalishiga xizmat qiladi. Lekin ilmiy izlanish natijalarini ilmiy izchil va amaliy joriy etishga har ikki tomonda zo'r qiziqish bo'lgandagina olimlar va ishlab chiqaruvchilarning ittifoqi mustahkam bo'ladi.

Respublikamizda 300 dan ortiq robototexnika vositalari joriy etilgan shu jumladan 21 ta dasturli boshqariladigan avtomatik manipulyator, bikir dasturli 44 manipulyator, ortish – tushirish ishlarini boshqaradigan 16 manipulyator joriy etilgan.

Respublikaning bir qator vazirliklari – avtomobil transporti vazirligi, qishloq qurilishi vazirligi, montaj va maxsus qurilish vazirligi robototexnika vositalarini joriy etgan holda ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasini oshirish bo'yicha faol ish olib borganlar. Ko'pgina vazirliklar o'zlarining tarmoq institutlari bilan birgalikda robotlashtirish lozim bo'lgan joylarni aniqlash va robot – manipulyatorlar yaratish bo'yicha izlanish ishlari olib borayapti.

Toshkent traktor zavodidagi robotlashtirilgan tsexda o'ndan ortiq robotlashtirilgan liniyalar o'matilgan bo'lib «Siklon – 3», «R – 505», «Universal – 5» robotlari bazasida ishlagan. Ma'lumki, bu tipdag'i robotlar val, korpus, mufta kabi detallarga ishlov berishda qo'llaniladi. Bu liniyalar ishlashi operatorlar nazoratida bo'ladi. Ma'lumki, ishchi ish davomida charchaydi va natijada detallarni stanokka qo'yish, stanokni moslash kabi operatsiyalarni noaniq bajariishi mumkin. Bu brak mahsulot ishlab chiqarishga, texnika xavfsizligini buzishga va umuman mehnat unumdarligini kamayib ketishiga olib keladi. Robotlashtirilgan

liniyalar bunday kaschiliklardan xolidir. Kezi kelganč* yana shuni aytib o'tish kerakki, bir liniyaning joriy etilishi asosiy ishchilar sonini kamaytirishga olib keladi, mehnat unumdorligini 1,5—2 marta oshiradi, uzuksiz ishslashni ta'minlaydi. Dastur asosida ishlaydigan bunday robotlashtirilgan komplekslar o'z vaqtida texnik vositalarni yurgizish va to'xtatish hisobiga, bir tomonidan, elektr energiyasini tejab qolsa, ikkinchi tomonidan, stanok va moslama qismlari eyilishini qisqartiradi. Bu esa, o'z navbatida, mashina, stanok va moslamalarning ishslash umrini uzaytiradi.

Toshkent traktor zavodining robotlashtirilgan tsexi bir necha robotlashtirilgan majmuadan iborat. Sexga o'z vatanimizda va boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan robotlar o'rnatilgan. Mana, shunday majmualardan biri. Bu majmua uch bosqichdan iborat. Birinchi navbatiga frezerlik MR—71 markali stanok va unga xizmat qiladigan robot o'rnatilgan. Robot dastur asosida ishlaydi. Mahsulot stanokka qo'yilgandan so'ng robotdan elektr toki uzeladi. Ish bajarib bo'lingach, tok yana ulanadi. Bu, o'z navbatida, elektr tokini tejaydi.

Majmuaning ikkinchi navbatida 1—R713 markali tokarlik stanoklari operatsiyalarni bajaradi. Ikki stanok oralig'iga o'rnatilgan robot birinchi navbatdagi robotdan ko'proq ish bajaradi. Robotning ikkita qisqichi (panjas) bor. Bir panjas bilan stanokdan metallni oladi, ikkinchisi bilan qo'yadi va keyingi stanok tomon buriladi. Undan mahsulotni olib, o'niga boshqasini qo'yadi. Tayyor mahsulotni kelgusi navbatga uzatadi. Robot juda murakkab harakatlarni amalga oshira oladi. Ma'lumki, bu ishlar bir kishi uchun og'irlilik qiladi, bunday harakatlarni doimiy, tez, bexato bajarish qiyin.

Majmuaning uchinchi navbatiga shponli frezerlik stanoklari o'rnatiladi. Bu navbatda ham robot ikkita stanokka xizmat qiladi—traktorlar uchun tayyorlanadigan valning keyingi operatsiyalari bajariladi. Agar shu majmuadagi har bir stanokda bittadan odam ishlasa, bir smenada 5 kishi, ikki smenada 10 kishi ishlagan bo'lar edi.

Hu'sir bir majmuada faqat bir operatoriga nazorat qilib turadi. Majmua robotlarining dasturi qutiga joylashtirilgan. Shu «miya» bergan buyruq bilan stanoklar, robotlar harakatga keladi.

Shtampovka stanogi yuqori bosimda ishlovchi shlanglarga metalldan tutqich yasaydi. Bu robot bir yo'la uch operatsiyani, stanok esa 2 operatsiyani bajaradi.

Toshkent «Texnolog» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi robotlashtirishda ilmiy asoslangan loyiha va texnologiyani ishlab chiqarishga mo'ljallangan bo'lgan. «Texnolog» ishlab chiqarish birlashmasi 1978 yildan boshlab robotlashtirish bo'yicha shug'ullana boshlagan edi.

Ishlab chiqilgan texnologiya bo'yicha «Tashselmash», «O'zbekselmash», «Chirchikselmash», toshkent traktor zavodlarida robotlashtirilgan liniyalar loyihasi bunyod etilgan edi. Sanoat robotlari ishlashi uchun ko'p yordamchi mexanizmlar kerak bo'ladi. Loyer ishlari tugagandan so'ng tajriba uchastkasida loyiha asosida yordamchi mexanizmlar ishlab chiqariladi. Sexda malakali mutaxassislar ishlaydilar. Boshqa shaharlardan olib kelingan robotlar shu tsexda yig'iladi. Loyer bo'yicha hamma detal va yordamchi mexanizmlar shu tajriba tsexida robotlashgan texnologik majmuani o'rnatib, sinab ko'riladi. Sinovdan o'tgandan so'ng sanoat korxonalariga olib borib o'rnatiladi.

Samarqand muzxona zavodida ishlab turgan robotlar ro'zg'or muzxonalarning po'lat qutilarini emal bilan bo'yab, turishga mo'ljallangan edi.

Muzxona modellari o'zgarganida robotlar shunga moslanib o'z ishini davom ettiraveradi. Ular har kuni 480 qutini bo'yashadi.

Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida robotlar brigadasining ishi kishining havasini keltiradi. Transportyorda kelayotgan alyuminiy taxtani qutining uzun qo'lli chaqqon ushlab oladi va press tagiga qo'yadi. Press zarbi bilan yasalgan detalni boyagi qo'l

♦ yonida turgan ikkinchi robot o'zidagi quti ustiga qo'yadi. Ikkinchi robot quti ustidagi detalni ko'rishi bilan uni olib, ikkinchi press ostiga qo'yadi va tayyor bo'lgan detalni ikkinchi transportyor ustiga qo'yadi. Tayyor detal tozalanib bo'yaladi.

Robot detalni sekundning aniq kerakli ulushida ushlaydi. U detalni press ostiga millimetрning bir necha ulushiga qadar aniqlikda kiritib qo'yadi, bekor turmaydi, barmoqlarni ezib olmaydi, zotan, unda barmoqning o'zi ham yo'q. Lekin robot bir narsa bilan — past texnologik madaniyat bilan hech bir murosa qilolmaydi. Masalan, to'qmoq urib to'g'rilangan detalni pressga qo'ymaydi. Robotiarni harakatga keltiruvchi mikroprotsessordarda eng usta bo'yoxchi yoki mashhur presschining xatti — harakatlari dastur tarzida yozib qo'yilgan.

Robotlar nega kerak?

Bir detalni sakkiz soat mobaynida press ostiga qo'yib turish, pishgan g'isht ortilgan vagonetkalarni pechdan chiqarishni ko'z oldimizga keltirsak, robotlarning foydasi ayon bo'ladi.

Qator korxonalarda robotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular detallarni galvanik vannalarga tushirib, tegishli fursat ushlab turadilar, tayyor mahsulotni chiqarib oladilar. Robotlar omborlarning so'kchaklarini paypaslab, kerakli materialni topib tushiradilar, ularni qat'iy hisobga olib boradilar, nimaiki bo'lsa uni joy — joyiga qo'yib chiqadilar. Robotlar bajarmoqda, mayda kristallarni xillamoqda, g'isht pishirmoqda, detallarni yig'ish operatsiyasini bajarmoqda, xatlarni saralamoqda. Bularning hammasi «xamir uchidan patir», xolos.

Robotlar faqat bitta texnologiyani — a'lo darajadagi texnologiyani tan olishini qayd qilib o'tish kerak. Robotlarning ayni shu xususiyati ularning keng ko'lamda joriy etilishiga xalaqit bermoqda. «Texnolog» birlashmasida 27 agregat stanogi va 6 ta robot bilan jihozlangan liniya ishga tushirilgan edi. Robotlashtirilgan majmua transmissiya tseksida murakkab korpus detallariga ishiov berishga mo'ljalangan edi. Biroq

bundan olding'gi texnologik jarayonlarda talabga javob beradigan madaniyat bo'lмаганидан robotlashtirilgan majmua ishlab chiqarish jarayoniga to'la — to'kis qo'shilib ketishi qiyin bo'ldi, ya'ni surunkasiga ishlay olmadi.

Yaponiya fan va texnikasi jurnali xabar berishicha, bir institut olimlari bo'lg'usi shifokorlarni o'qitishga mo'ljallangan trenajyor — robot konstruktsiyasini ishlab chiqishgan. Bu robotning kompyuteriga sog'lom va turli kasalliklarga chalingan kishining nafas olishi, yurak urishi va qon bosimi qanday bo'lishi haqida ma'lumot joylashtirilgan. Robot, shuningdek, yuz mushaklarini organizmdagi turli holatlarga mos ravishda qisqarishini ham ko'rsata oladi. Bunday «domla» yordamida talabalar «nafas olish» va «tomir urishi»ni bevosita eshitibgina qolmay, balki kasallik va jarohatlarni davolash usullarini ham amalda o'rGANISHADI.

Yaponianing «Dayto» firmasida yaratilgan «Do—re—mi» nomi bilan ataluvchi robot tunda bolani allalashni o'z zimmasiga olgan.

U bola yig'lay boshlashi bilan magnitafonli, avtomatlashgan liqillaydigan belanchakni o'z ichiga olgan. Lentaga yozib olingen ota-onaning ovozi ham bir vaqtida o'zida yangraydi. «Do—re—mi» belanchagi chaqaloqning yig'isini kattalarning tovushi bilan aslo qorishtirib yubormaydi, shu boisdan u zarurat bo'lмаганда jim turadi va uqlab yotgan bolani uyg'otib yubormaydi.

Olmoniya iqtisodiyotining ko'pgina tarmoqlarida hozirgi paytda sanoat avtomatlari va robotlari tobora keng ko'lamma joriy etilmoqda. Noyxauz shahri (Zul okrugi)dagagi A.Zegers nomli mikroelektronika zavodida sanoat robotlari mikroelektron elementlarni yig'ish ishlarini bajarmoqda. Natijada mehnat unum dorligi korxonada qariyb uch baravar o'sdi. 25 montajchi korxonaning yangi uchastkalariga o'tkazildi. Grosbreytenbak shahridagi aloqa texnika zavodida elektromexanika relesini yig'ishda saralovchi avtomatdan foydalanish mehnat

unumdorligini etti baravar oshirish imkonini berdi. Ayni vaqtida, bu erda mehnat sharoiti yanada yaxshilandi.

Ilminau shahridagi oliy texnika maktabi mutaxassislarining Zul okrugi korxonalari bilan yaqindan hamkorlik qilishi natijasida har ikkala texnika yangiligi loyihalashtirildi va ishlab chiqarishga joriy etildi.

Olimlar va korxona xodimlari oliy o'quv yurtlari bilan okrugdagi 12 ta kombinat o'rtaida tuzilgan uzoq muddatli shartnomalar asosida fan va texnikaning so'nggi yutuqlaridan ishlab chiqarishda foydalanishga oid ishlar olib bormoqdalar.

Robot charchash nimaligini bilmaydi va parmalashni hamisha har qanday kon-geologiya sharoitlarida ham eng maqbui rejimda olib boradi. Masalan, parma quduq qaziyotib, loy qatlamiga duch kelsa va unga loy tiqilib qolaversa, datchiklar shu haqda darrov qurilmaning elektron miyasiga xabar beradi va shu yoqdan mexanizm uchun komanda keladi. Bu komanda iskanani ko'tarib, dam bilan loyini tushiradi va parmalash belgilangan rejimda davom etaveradi.

Foydali qazilmalarni ochiq usulda qazishni jadal rivojlantirish konchilik sanoatidagi fan-texnika taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biridir. U shaxtadagilarga nisbatan ko'proq ish unumiga erishishga imkon beradi. Bunda qazib olinadigan mahsulotning tannarxi anchna ~~dizoniya tushadi~~.

Yaqin - yaqinlargacha mashinistlarning mehnati eng qiyin ishlardan hisoblanardi: butun smena davomida ularga shovqin va dirillash ta'sir etib turardi. Parma stanoklarini avtomat tarzda boshqaradigan «Gorizont» elektron tizimi ishlab chiqildi. Stanok turli geologik sharoitlariga o'zi moslashib parmalash tezligini sozlab borganligidan ish unumi 15 foizgacha ko'tariladi. Undan foydalanish orqali bir gruppa stanoklarni bиргина operator ishlatishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Aqli mashinalar — robotlar yaqinada hayolot bo'lib yulgan bo'lsa, hozirgi kunda hayotimizning hamma sohasida o'z o'rnni topmoqda. Robotlar kishilarni charchatadigan og'ir ishlarda, mexanik yordamga muhtoj bo'lgan joylarda ishlatilmoxda. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, hozirgi zamon robotlari ko'p ishlarni insondan yaxshiroq va aniqroq bajarmoqda.

Robotlar bilan bemalol muomalada bo'lish uchun ularidan foydalinishga tayyorgarlik ko'rish kerak, ya'ni ushbu aqli mashinalar ishlash printsipi bilan yaqindan tanishish, uning tuzilishini o'rganish kerak. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas, chunki robotsozlik o'zida juda ko'p aql bovar qilmaydigan imkoniyatlarni ruyobga chiqarmoqda. Robotlar qanday tuzilgan? Qanday ishlaydi? Haqiqatdan ham, ular inson o'rnni bosa oladimi? Robot loyihasini tuzish va tayyorlash osonmi? Shu va shunga o'xshash qator savollar fan — texnikaga mehr qo'ygan hamma muxlislarni qiziqtiradi.

Robotsozlik juda jiddiy ilmiy — tashkiliy baza asosida taraqqiy etib bormoqda. Robotlar — yangi va murakkab texnikadir.

Hozir sanoatda qo'llanilayotgan robotlar asosan tashqi muhit ta'sirini sezmaydi, oldindan tuzib qo'yilgan dastur asosida ishlaydi. Kelajakda robotlar korxonalarga kirib borar ekan, mavjud ishlab chiqarish jarayonlarini, ayniqsa kam seriyali ishlab ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirib, qator ijtimoiy muammolarni hal etadi. Ayrim texnologik operatsiyalarda robotni qo'llab o'z navbatida robotlashgan texnologik uchastkalarga o'tish va ular asosida kompleks avtomatlashtirilgan tsex va nihoyat zavodlarga o'tish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslarini keskin o'zgartirishga olib keladi. Robototexnikanining o'zi kompleks avtomatlashtirish kerakligidan kelib chiqqan. Robot esa, haqiqatan ham, aqli mashina.

Insonga o'xshas.⁴ sun'iy mavjudotlarni buniyod etish odamlarni qadimdan qiziqtirib kelgan. Ular insonga o'xshash avtomatlarni turishga bir necha bor urinib ko'rganlar.

1774 yil bahorida shveystsariyalik soatsoz Per Dro va uning o'g'li Anri mexanik nusha ko'chiruvchi kotib tayyorlab o'z hamshaharlarini hayratga solgan edilar. Kotib juda jiddiy ko'rinishda g'oz patini olardida siyohdonga botirib chiroyl qilib to'liq bir gapni yozar edi. Buning ustiga u yozilgan gapga qarab o'ylanib boshini qimirlatib ham qo'yari, o'zining vazifasini bajargach, yozilgan qoq'oz ustiga qum sepib, so ng to'kib tashlardi.

Kuchli iste'dod egalari kotibdan tashqari tabiiy ko'rinishda anchagini murakkab bo'lgan ko'rinishlarni chiza oladigan mexanik rassom, murakkab muzikalarni ijro eta oladigan muzikantlarni ixtiro etganlar. Biroq dastlabki robotlarni buniyod etishgan ixtirochilarini din ahllari doim ta'qib etganlar. Anri Droning umri deyarli qamoqda o'tgan. Faqat 1906 yilda ota – bola buniyod etgan yangiliklar tartibga keltirilib Shvetsiya muzeysiiga qo'yilgan va shu kungacha saqlanadi.

1810 yilda nemis mexanigi logann Kayfman trubada bir necha murakkab pesalarni ustalik bilan ijro eta oladigan mexanik avtomat yasagan. Ushbu avtomat Myunxen texnika muzeysiда saqlanmoqda.

Shu bilan mexaniklarning buniyod etgan yangiliklariga chek qo'yildi. Faqatgina XX asrdagi fizika, elektronika va elektrotexnika sohasidagi yirik muvaffaqiyatlarga insonga o'xshash avtomatlar konstruktsiyasini buniyod etish bilan shug'ullanish imkonini berdi. Robotlar borgan sari takomillashib bordi. Robotlarda ko'rish organlari – fotoelementlar, eshitish organlari – mikrofonlar, nutq – gapirtirgichlar paydo bo'ldi.

Odamsimon robotlar hozircha insonga kundalik hojatini chiqarishda qo'l kelmasa ham keyinchalik ushbu robotlar konstruktsiyasi murakkablashib, hayotga yaqinroq bo'lib borishi muqarrar.

“Ertangi kun robotlari xususiyatlari idan biri ularning xotiralarida inson tomonidan mujassamlashtirilgan yoki sun'iy intellekt tomonidan buniyod etilgan tashqi muxit modeli bo'lishi kerak. Bu esa o'z navbatida robotni bikir dastur asosida emas, balki epchil dastur asosida ham ishslash imkonini beradi.

Birinchi avlod robotlari inson topshirig'ini alohida tug'dirilgan sharoitdagina bajara olishi mumkin. Ikkinci avlod robotlari «his, tuyg'u» texnikaviy organlari va takomillashtirilgan «miya» bilan jihozlangan. Ikkinci avlod robotlari jahoning ilg'or mamlakatlarida chiqarilib sanoatda qo'llanib kelmoqda.

Hozir robotlarning uchinchi avlod, ya'ni «intellektual», «aqlli» robotlar ishlab chiqish ustida ish olib borilmoqda. Ushbu robotlar o'zgaruvchan muhitda inson ishtirokisiz informatsiyalarni qayta ishslash va qaror qabul qilish xossalariiga ega. Hozircha «aqlli» robotlar matematik va laboratoriya modellari ko'rinishida mavjud.

Birinchi robot o'yinchoqdan hozirgi zamon birinchi, ikkinchi, uchinchi avlod robotlari buniyod etilgunga qadar ikki yuz yildan ko'proq vaqt o'tdi. XVIII asrda buniyod etilgan birinchi avlodga taalluqli robotlar istedodli ustalarning san'at asarlari bo'lib, hozirgi kungacha mexaniklarning buyuk asarlari bo'lib qolmoqda. Ushbu yangiliklarning hammasi odamga tashqi xatti – harakati bilan o'xshash edi, xolos. XIX asrdayoq insonga tashqi xatti – harakati bilan o'xshash bo'limgan avtomatlar odamlarning murakkab ishlarini ado etib ularni turli xil operatsiyalarni bajarishdan xalos etdi. Keyinchalik avtomat stanok ko'rinishidagi tsikllik avtomatlar paydo bo'la boshladi.

Hozirgi kunda turli xil avtomat stanoklar mavjud. Bularga tokarlik, frezerlik, nusxa olish, silliqlash, tish qirqish, gayka, bolt qirqish, payvandlash, oyoq kiyim tikadigan va shunga o'xshash avtomatlar kiradi.

Ishlab chiqarishning avtomat ishlatalmaydigan birorta sohasini topish qiyin. Har bir stanok inson ishtirokisiz ma'lum bir buyumni

• tayyorlashga mo'ljallangan odam qoshirokisiz murakkab operatsiyalarini bajaradi. Avtomatlar murakkab harakatlarni ma'lum bir tartibda «eslab» qolish va ushbu harakatlarni ko'p marta takrorlash xususiyatiga ega.

Avtomatdagi harakatlar ketma – ketligini «saqlab qolish» jarayoni kulachok va shablonlar yordamida amalga oshiriladi. Avtomat yordamida ijro etiluvchi har bir kichik operatsiya belgilangan vaqtida va hamma vaqt bir xil tarzda bajariladi. Shunday printsipda ishlovchi avtomatlar juda keng tarqalgan. Bunday avtomatlar o'zlarini odamlar bilan o'xshashlik xususiyatlarini to'liq yo'qotib yuborganlar va shuning uchun ular tuzilishi bo'yicha robot bo'salar ham, hech kim robot deb atamaydi.

Misol sifatida juda ko'p avtomat stanoklarni keltirib o'tish mumkin. Biroq mavjud avtomat stanoklar ishchi kuchini kamaytirish yoki ishchi o'mini egallahdek hozirgi zamon ishlab chiqarishiga qo'yilayotgan talabni qondirish qobiliyatiga ega emas. Avtomat stanoklar ishlab chiqarishda katta maydon egallab, mehnat unumdorligi o'sish darajasini to'liq ta'minlay olmaydi. Shuning uchun avtomatik ishlovchi liniyalar bunyod etildi.

Hozirgi kunda kishilarning diqqat – e'tibori avtomatlashtirish muammolariga qaratilgan. Avtomatlashtirishning umumiyligi maqsadi nimadan iborat? Avtomatika insoniyatga nimalar berishi mumkin?

Avtomatlashtirishning dastlabki va asosiy naujasini mehnat unumdorligi o'sishiga bog'liq. Mehnat unumdorligini oshirish uchun ishlab chiqarishni keng ko'lamma mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish kerak. Ilgarilari mashinalar kamligi sababli ko'p ishlar qo'l mehnatiga bog'liq edi. Mashinalarni ishlab chiqarish uchun turli mashina va mexanizmlar talab qilinardi. Shu maqsadda metall kesish stanogi yaratildi.

Qo'l va oyoq yordamida harakatga keltiriladigan qadimgi tokarlik stanogi bundan bir necha asr muqaddam paydo bo'lgan. Bu stanoklarda keskin mahkamlab qo'yiladigan moslama bo'lgan emas. Bunday

stanoklarda məzillni emas, balki yog'ochlarni ishlashın mümkün bo'lgan, xolos. Lekin fan – texnika taraqqiyoti natijasida elektr energiyasi bilan ishlovchi dvigatellar vujudga keldi. Bu o'z navbatida qo'l va oyoq yordamida boshqariluvchi stanoklarni avtomatik boshqariluvchi stanoklar bilan almashtirilishga olib keldi.

Metall ishslash sanoatida hozirgacha juda ko'p ishchilar g'oyat turli – tuman stanoklarni qo'l bilan boshqarmoqdalar. Ularning mehnati ancha og'ir bo'lishidan tashqari, har kuni bir xildagi kishini toliqtiradigan operatsiyalarni bajarishiga to'g'ri keladi.

Stanokchi ishchilar mehnatini bunday ishdan ozod qilish mumkinmi? Ha, mumkin. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish xuddi ana shu masalani hal etishda asosiy omil hisoblanadi.

Avtomat liniyalar ishchilarni og'ir jismoniy ishdan ozod qiladi. Chunki qator muxsus stanoklardan iborat bu liniyalarda detallarni ishslash odam ishtirokisiz to'la avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Hayot uchun moddiy va madaniy boyliklar kerak. Boyliklar manbai esa tabiat xom ashyosi va inson mehnatidan iboratdir. Tabiat inson ixtiyoriga tayyor ne'matlarni juda kamdan – kam in'om etgan. Shuning uchun ham inson hamma vaqt extiyojini qondirish uchun tabiat xom ashyolarini qayta ishlaydi, ya'ni mehnat qiladi.

Avtomat liniyalar bunyod etilishi bilan ishchilar soni kamaya borib, shu kasbdagi ishchilar o'rnida tsexlarda avtomatlashtirilgan stanok hamda liniyalarni sozlovchi va operatorlar xizmat qiladi.

Masalan, turbina parraklarini ishslash uchun kerak bo'lgan murakkab kopirni tayyorlashga universal stanokda uch hafta vaqt talab qilinsa, dastur asosida boshqariladigan frezer stanogida atigi to'rt soat vaqt sarf qilinadi. Kema eshkak vintini oddiy vosita bo'yicha tayyorlash uchun 200 – 300 soat vaqt talab qilinsa, dastur asosida boshqariladigan stanokda bu ishni juda katta aniqlikda 5 – 10 marta tez bajarish mumkin. Dastur asosida boshqariladigan bunday misollarning soni ham uzlusiz ko'paya boradi.

Meta?arga ishllov berish jarayonidagi texnologik vazifalar cheksiz va turli – tumandir. Shunga ko'ra, bu jarayonlarni avtomatlashtirish usul va vositalari ham shunchalik xilma – xil. Bir – birini munosib ravishda to'ldiruvchi nusxa ko'chirish va dastur asosida avtomatlashtirish usullari ham o'z o'rniga ega.

Dastur asosida boshqariladigan tizim bilan jihozlangan stanoklarning muhim xususiyati shundaki, bunday stanoklarning ish dasturi ixtisoslashtirilgan ish unumi va ish aniqligini universal uskunanining moslanishiga qo'shish mumkin bo'ladi.

Texnika taraqqiyoti va ish unumдорligiga talabning kuchayib borishi yangi vazifaicherni qo'ya boshiadi. Jumiadan, mashinasozlarimiz oldida kopir ishlamaslikning iloji bormikan, degan muammo turardi.

Mahsulotning nihoyatda aniq namunasini tayyorlashdan ko'ra qog'oz lentaga (uning o'lchami va shakliga uncha e'tibor bermagan holda) ma'lum tartibda qator teshishning birmuncha engil ekanligi turgan gap. Bu usulning soddaligi shundaki, perfolenta hech qachon ishlanayotgan mahsulotning namunasi bo'la olmaydi.

Metall qirqish stanogini avtomatlashtirish uchun perfolenta orqali beriladigan dasturdan foydalansa bo'ladimi?

Stanokni qo'lda boshqaradigan yuqori malakali ishchining ishini kuzatish orqali stanokning ish dasturini chizmalarga va sonlarga murojaat qilmasdan ham mahsulot tayyorlash mumkin. Bunda nutq yo muzikani plastinka yoki magnit lentasiga yozib olish, uni xoqlagancha takror eshittirish mumkinligiga o'xshash usul yordamida ishchining barcha harakatlarini esda saqlab qolish va shu yo'l bilan hosil qilingan dasturdan butun bir gruppera mahsulotlarni ishslashda stanokni avtomatik boshqarish uchun foydalanish kerak. Bunday tizimlarda dasturni magnit lentasiga yoki magnit barabaniga yozib olish usuli uni registratsiya qilish va qayta takrorlashda qulay hisoblanadi, ya'ni perfolentali dastur ham o'z kuchini yo'qota boshladi.

Magnitli yozish usuli e'zining bir qator xususiyatlari bilan foydalanadi. boshqacha yozib olish usullaridan farq qilib, u juda tejamli hisoblanadi.

Nihoyat, magnit qatlamini osonlik bilan magnitsizlantirib, bitta lentadan turli xil dasturni yozishda foydalanish mumkin. Kelajakda faqat avtomat stanoklar emas, balki avtomat tsex va zavodlar vujudga keladi. Ana shunday yuksak perspektivaning muhim omili biz yuqorida eslatib o'tgan dastur asosida ishlovchi stanoklar bo'ladi. Shuning uchun dastur asosida ishlovchi stanoklarni ishlab chiqarishga juda katta e'tibor berilmog'ida.

Bundan 50 yil, hatto 25 yil keyin qanday mashinalar yaratilishini oldindan aytish qiyin. Chunki hozirgi zamон texnika taraqqiyotining tezligi shu qadar yuqoriki, u kun sayin emas, balki soat sayin o'sib bormoqda. Bundan 90 yilcha ilgari odamlar havoda og'ir apparatlar uchishini orzu qilgan edilar. 60 yilcha muqaddam yadro ichki energiyasidan foydalanish ham olis perspektivalardan biri deb qaralgan, 70 yilcha oldin sun'iy jismning oyga tushirilishi afsonadek tuyular edi. Hozir esa olimlar, injenerlar oldida yangi, nihoyatda murakkab masalalar turibdi. Texnikaning barcha sohalarida va jumladan, mashinasozlikda, pochta xizmatida ham shunday murakkab masalalar mavjud.

Shunday qilib, raqamlar yordamida boshqarish sohalari kengayib bormoqda. Bu usulda metall ishlashning turli – tuman jarayoni, nazorat qilish operatsiyasi va yordamchi operatsiyalar raqamlar bilan ifodalanadi. Raqamli informatsiya qanchalik turli – tuman bo'lmasin, bir xildagi standart shaklida, shuningdek ma'lum stanok, asbob, moslama, qurilmani boshqarishdagina ishlatalishi mumkin.

Raqamlar yordamida avtomatlashtirish yaqin kelajakda mashinasozlikning yangidan – yangi sohalariga kirib boradi, avtomatlar informatsiyasi esa borgan sari o'zgarib, har xil bo'la boradi. Ayni vaqtda, bunday avtomatlar to'xtovsiz takomillashib, tobora kattaroq hajmdagi informatsiyalarni ishlay oladigan bo'ladi; shunga mos ravishda

yangi sxema, uzel va ^oqurilmalar yaratiladi. Boshqarish koordinatlari ko'p bo'lgan stanoklar hamda birinchi avtomatik liniyalar, ya'ni raqamli boshqarish stanoklar majmuasi bunga misol bo'la oladi.

Hisoblash mashinasi stanokning ish dasturiga oid hisobni kerakli aniqlikda chiqarib berishi mumkin. Bu aniqlik hisob olib boriladigan raqam soni bilan chegaralanadi. Aniqliknin oshirish uchun birmuncha quvvatliroq mashina ishlatish va razryadlar sonini oshirish lozim qurilmasi katta yoki kichik razryadlar bilan ish ko'rishning hisoblash mashinalari uchun farqi yo'q.

Texnologik avtomatda esa ahvol keskin o'zgaradi, chunki bunda informatsiyani ishlab berilgan mahsulot sifatiga kuch ishlatib realizatsiya qilishga to'g'ri keladi. Dasturning ishlatish aniqligi turli stanoklar uchun turli, jumladan, bu aniqlik verguldan keyingi ikkinchi va uchinchi raqamlar o'rtasida bo'ladi. Agar stanok olayotgan informatsiyaga berilgan son ko'p bo'lsa, mazkur informatsiya stanok uchun hech qanday ma'noga ega bo'lмаган овоздек bo'lib qoladi.

Bu erda qanday qarama-qarshilik hosil bo'lishini ko'rish mumkin. Biz dasturni nihoyatda yuqori aniqlikda o'qiy olamiz; mavjud optik, induktiv va boshqa o'lchov qurilmalari o'lchash ishlarini yuqori aniqlikda bajarishga imkon beradi. Koordinat yo'nish stanoklarida shu ikki xususiyatdan foydalaniлади. Bunday stanoklar fizikaviy aniqlik chegarasida ishlaydi. Masalan, frezer stanogining aniqligi hamma talablarga javob bera olmaydi. Boshqarish tizimidagi nomuvofiqlik tufayli sodir bo'luvchi dinamik nuqsonlar, shuningdek tizimdagi kuch va harorat deformatsiyalari hamda asboblarning eyilishi aniqlikning birmuncha kamayishiga sabab bo'ladi.

Bu hatto tasodifiy emas, balki muayyan qonunga muvofiq mutazam ravishda sodir bo'lib turadigan va bir turdag'i bir qancha mahsulotlarga ishlov berishda qaytariladigan yoki ma'lum tartib bilan o'zgarib turadigan xatodir. Demak, stanok ayrim uzel detallarining

tay, taylash aniqligini oshirmagan holda ham bunday xatodan qutulsa bo'ladi.

Avtomatik liniya ayrim stanoklarni bog'lovchi transportyor keskich ishlov berilayotgan zagotovkadan to'liq chiqqunga qadar xarakatga kela boshladi deb faraz qilaylik. Bunda, albatga, keskich sinadi va keskichni almashtirish uchun avtomatik liniya to'xtatiladi. Bu sodir bo'lmasligi uchun amalda avtomatik liniyaning bosh puli elektrik aloqaning har bir pozitsiyasi bilan bog'lanadi. Hamma pozitsiyalardan «operatsiya tugadi, kesish asbobi birinchi xolatga to'la o'tkazildi» signali olingach, transport xarakatlana boshlashi mumkin. Agar keskich zagotovka zinalarining birida to'xtab qolgan bo'lsa, avtomatik liniya to'xtatiladi, sozlovchilar o'z vazifalarini ado etadilar.

Tayyorlanayotgan buyum yuqori sifatli chiqishi uchun har bir operatsiya bajarilishi ustidan nazorat o'rnatiladi. Hozirgi zamон avtomatik liniyalari ko'p miqdordagi stanoklardan (20 — 30 dona), yuzlab elektromotordan, minglab rele va shu kabilardan tashkil topgan. Agar bir minutda bitta motor yoki rele ishdan chiqib qolsa, stanoklardan biri albatta ishdan chiqadi.

Buning oldini olish uchun avtomatik liniya stanoklarini boshqarish maqsadida kontaktsiz apparatura va maxsus priborlar keng qo'llaniladi. Ma'lumki, stanokning biri tez, biri sekin ishlaydi. Bu esa asosan stanoklarning tezligi va bajariladigan operatsiyaning murakkabligiga bog'liq. Agar avtomatik liniya ishi darajasini eng uzun operatsiya bo'yicha xisoblasak, u xolda qisqa operatsiyali stanoklar bo'sh turib qolishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun mexanik ishlov berishga ko'p vaqt talab etadigan operatsiyalar uchun bir turdag'i ko'p stanoklar o'rnatiladi.

Sifatning ishonchli nazoratchilarini.

Avtomat stanoklar va avtomatik liniyalar shunday katta tezlik bilan ishlaydilarki, bir detal ketidan ikkinchi detal otilib chiqib kelaveradi. Ushbu detallar sifatini tekshirishga ularni tayyorlashga

•nisbatan bir necha bor ko'p vaqt saif bo'ladi. Bitta avtomat stanok yoki avtomatik liniya ishlab chiqaradigan maxsulot sifatini bir necha o'n odam nazorat etadi. Masalan, mahkamlash detallarini ishlab chiqaruvchi avtomat stanok bir boltni tayyorlash uchun 1—2 sekund saif etadi uning sifatini tekshirishqa esa 30 sekund, avtomobil ruli karteriga ishlov berish uchun 2,5 minut vaqt sarflansa, uning sifatini tekshirish uchun 3,5 minut vaqt sarflanadi. Rezbali detallar sifatini tekshirishga ularni tayyorlashga nisbatan 50—100 marta ko'p vaqt talab etiladi.

Nazorat operatsiyalari texnologiyasi darajasining pastligi orqali ayrim korxonalarida nazoratchilar apparati xaddan tashqari ko'payib ketgan. Hozir ham juda ko'p mashinasozlik va priborsozlik zavodlarida texnik nazorat bo'limi xodimlari hamma ishlab chiqarish xodimlarining 30—40 foizini tashkil etadi.

Korxonalarda katta nazoratchilar armiyasi mavjudligiga qaramay, ishlab chiqariladigan maxsulot sifati xali etarli darajada talabga javob bermayapti.

Faqat mashinasozlikdagi brak keltirayotgan ziyon mamlakat bo'yicha millionlab so'mni tashkil etadi.

Past sifatli, brak maxsulot ishlab chiqarish sababchilari ko'pincha xodimlarning yo'l qo'ygan xatolaridir.

Agar avtomatik qurimlalar ishlash chiqarish jarayoni nazoratetsalar va ularni boshqarsalar brak bo'lmaydi.

Shuning uchun kompleks avtomatlashtirish masalasining muvaffaqiyatli xal etilishi ko'pincha metall, yarim fabrikat, detal, xatlar va boshqa buyumlarni ishlab chiqarishdagi hamda saralashdagi to'xtovsiz nazorat etishni tashkil etilishiga bog'liq.

Kundan —kunga mashina, pribor va boshqa buyumlar aniqligiga talab oshib borishi bilan maxsulot sifatini nazorat etish muammosini avtomatlashtirish muhim o'rinn tutib bormoqda. Ayrim xollarda

avtomatika vos.alarisiz umuman buyumni ob'ektiv nazorat etish mumkin bo'lmay qoladi.

Hozircha ko'p korxonalarda buyumlar sifati unga ishlov berib bo'linganidan so'ng nazorat etiladi. Bu esa yuqori sifatli maxsulot ishlab chiqarish tezligini kamaytiradi, tannarxini oshiradi, mehnat unumtdorligini kamaytiradi.

Kompleks avtomatlashtirish masalasini xal etishda asosiy e'tibor maxsulotni nazorat etuvchi avtomatik vositalarni bunyod etish va joriy etishga qaratiladi. Bunday aktiv avtomatik vositalar buyum parametrlari sifatini ularni tayyorlash jarayonida bevosita nazorat eta oladi. Ayrim mashinasozlik korxonalarida elektron mikrometrler muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda. Bunday mikrometrler diametri 2 mm dan 200 mm gacha bo'lgan detallarni stanokni to'xtatmay o'lchash imkonini beradi.

Hozir konstruktorlarimiz yangi bunyod etilayotgan — stanoklarda mexanik ishlov berish texnologik jarayoni davomida sifatni nazorat etishni ta'minlay oladigan qurilmalar bilan jihozlashni oldilariga maqsad qilib olganlar.

Aktiv avtomatik nazoratda maxsus televizorli qurilmalar aloxida o'rin tutadi. Masalan, oddiy ko'z bilan ko'rish murakkab bo'lgan diametri 8 mikronli simni unga yaqinlashmay qanday o'lchash mumkin. Bugungi kunda ushbu masala mikroskop va televizion qurilma yordamida amalga oshiriladi. Mikroskopga o'rnatilgan uncha katta bo'limgan telekamera mikroskopdan televizion trubkaga sim diametri tasvirini uzatadi.

Shu tariqa taqqoslash yo'li bilan sim diametri o'lchanadi. Mikrosimlarni tayyorlash jarayonida o'lchash uchun televizion avtomatlar qo'llaniladi. Ushbu avtomatlar quyidagicha ishlaydi. Mikroskop ob'ektiviga ko'z o'miga teleuzatgich fotokatodi qaraydi. Simning kattalashtirilgan tasviri fotokatodga tushadi, keyin ma'lum qurilma sistemasidan o'tib impulslar farqini qayd etuvchi priborga

tushiladigan signal vujudga keladi. Impulslar farqini qayd et yuzchi pribor brak bor — yo'qligini aytib beradi.

Bunday televizion avtomatni katta ishonch bilan bermalol <quruvchi> avtomat deb atash mumkin. Televizion avtomatlar inson ko'ziga qaraganda ancha katta aniqlik va ishonch bilan ishlaydi.

Metallurgiya korxonalaridagi lentaprokat stanoklariga o'rnatilgan televizion avtomatlar lenta enidan standartga nisbatan bo'lgan kichkinagini og'ishni ham qayd qila oladi.

Aktiv avtomatik nazoratning asosiy afzalligi shundan iboratki, u buyumga ishlov berish vaqtidagi brak bo'lish ehtimolini yo'qotibgina qolmay, detalga ishlov berish uchun mo'ljallangan umumiyl vaqtini ham qisqartiradi.

Nazorat etish operatsiyalarini avtomatlashdirish mashinasozlik va priborsozlik korxonalarida ishlab — chiqariluvchi mahsulotlar sifatini oshirish muammosini to'liq xal eta olmaydi. Yana shunday qurilmalar kerakki, ular faqat maxsulotni ishlab chiqarish jarayonidagina emas, balki bir butun mashina va agregatlar sifatini ham tekshirish imkoniga ega bo'lishlari kerak.

Nazorat operatsiyalari avtomatlashdirilgach, tabiiy, yig'ish ishlarini avtomatlashdirish masalasi taqozo etiladi. Boshqacha aytganda, bir ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashdirish o'z navbatida boshqa ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashdirishni keltirib chiqaradi. Avtomatlashdirishning ushbu yuqori va maqsadga muvofiq shakli bizning mamlakatimizda avtomatik tsexlар va avtomat zavodlar tashkil etish yo'li bilan amalga oshirilishi taqozo etilmoqda.

Mamlakatimizda avtomatlashdirishning o'sishi katta tezlik bilan amalga oshirilmoqda. Zamonaviy avtomatik mashinalar kishi ishtiroykisiz butun bir kompleks operatsiyani, xatto murakkab shaklli zagotovkaga ishlov berishni ham amalga oshira oladi. Avtomat stanok va avtomatik liniyalar joriy etilishi mashinasozlik ishlab chiqarish jarayonini

avtomatlashtirish bilan bog'liq bo'lgan bir qism -nasalanigina xal etadi, xolos.

Har bir korxonada yordamchi ishchilar, ko'p sonli dispatcherlar, texnikaviy nazorat bo'lmlari mavjud.

Kompleks avtomatlashtirishni amalga oshirish uchun faqat asosiy ishlab chiqarish jarayoninigina emas, balki hamma yordamchi jarayonlarni hamda ishlab chiqarishni boshqarishga oid jarayonlarni ham avtomatlashtirish kerak. Mana shu kompleks avtomatlashtirish taraqqiyotini tugallashning oxirgi bosqichi bo'lib, ayrim mashinadan mashina sistemasiga, tsexga va avtomat zavodga o'tish yo'lidir.

Avtomatlashtirishning erishgan darajasi hozirning o'zidayoq xoxlagan ishlab chiqarish jarayonini avtomatik tsiklga o'tkazish imkonini beradi.

Mashinasozlikdagi murakkab buyumlarni ishlab chiqarishni kompleks avtomatlashtirishga Moskvadagi birinchi davlat podshipnik zavodining kompleks avtomatlashtirilgan tsexini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Keyingi yillarda mamlakatimizda o'nlab turli – xil avtomat tsexlar ishga tushirildi.

Zavod avtomatlar ishlab chiqarish texnologiyasining eng yuqori darajasiga asoslanadi. Bunday texnologiya xususiyati boshlang'ich maxsulot, xom ashyo va yarim fabrikatlardan to'liq foydalanish xisoblanadi.

Avtomatlashtirilgan korxona progressiv texnologiyasi xususiyatlaridan biri ishlab chiqarish jarayoni to'xtovsizligidadir. Boshqacha so'z bilan aytganda, zavod avtomatdagi texnologik jarayon shunday bo'lishi kerakki, maxsulot va yarim fabrikatni olgan vaqtдан maxsulotni skladga topshirguncha buyum to'xtovsiz xarakatda bo'lib turishi kerak.

Kompleks avtomatlashtirilgan korxonalarini bunyod etishda faqatgina asosiy va yordamchi ishlab chiqarish jarayonlari bilangina

bog'liq* bo'lgan masalalarnigina emas, b'lk'i asbob — uskunalarni joylashtirish kabi masalalar ham ko'riladi. Bunday korxonalar odatda yorug', qulay joylashtirilgan ishlab chiqarish korpuslari, dam olish xonalari, ajoyib oshxonalar, bufetlar va shu kabilarga ega bo'ladi.

Zavod avtomatlarda asosiy ishlab chiqarish xodimlari yangi texnikani chuqur biluvchi ishchi va injenerlardan tashkil topgan bo'ladi.

Avtomatlashtirilgan mashinasozlik korxonalariga oid umumiy xususiyatlar asosan shundan iborat.

Mashinasozlik ishlab chiqarishi industriyaning eng murakkab soxalaridan biri. Shuning uchun ham kompleks avtomatlashtirilgan mashinasozlik korxonalarini bunyod etish ayniqsa qiyin.

Bunday korxonalarga pochtani qayta ishlash tashkilotlari ham kiradi.

Haqiqatdan ham, agar kimyo sanoati korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish uchun faqatgina qandaydir o'ntacha parametrni (bosim, harorat, kimyoviy tarkib va h. k.) rostlash talab etilsa, eng oddiy mashinalardan hisoblangan tikuv mashinasini tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish avtomatik rostlashning millionlab parametrli masalasini xal etishni taqozo etadi. Ikkinchisi tomonidan bu qonuniydir, chunki shu tikuv mashinasini tayyorlash uchun yuzlab detallarga asbob — uskunalarni sozlash kerak va har bir

Har bir operatsiya davomida aniqlik, kesish rejimlari va boshqa parametrlarni rostlash kerak bo'ladi.

Hamma qiyinchiliklarga qaramay, injener va olimlarimiz tomonidan to'plangan katta tajriba mashinasozlik korxonalarini kompleks avtomatlashtirishdek xalq xo'jaligi uchun muhim bo'lgan masalani muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi.

* AVTOMAT NIMA?

Mamlakatimizda bir kunda millionlab va undan ham ko'p maxsulot ishlab chiqariladi.

Sanoatimiz bir kunda mingdan ortiq tishli g'ildirak ishlab chiqaradi. Agar har bir tishli g'ildirakning qaliligi 10 millimetrdan oshmag'an taqdirda ham bu g'ildiraklarni bir — biri ustiga joylasak, baland tog'ga yaqinlashib qoladi.

Bolt tayyorlovchi stanok unumdorligi minutiga yuz dona, butilka tayyorlovchi avtomat unumdorligi soatiga olti mingdir.

Moskvadagi «Krasniy Oktyabr» fabrikasida har minutda uch yarim mingta konfet tayyorlanadi. Go'sht kombinatlarida bir soatda bir yuz yigirma besh ming dona kotlet ishlab chiqariladi. Zavod avtomatda bir kunda o'ttiz ming dona baton (non) tayyorlanadi.

Har kuni fabrikalarda aholi uchun minglab komplekt kiyimlar tikiladi O'n, yuz, minglab, ishlab chiqariladigan turli xil maxsulotlarni odamlar qo'l yordamida tayyorlashlari mumkin emas, albatta. Ularni mashinalar, oddiy mashinalar emas, avtomatlar tayyorlaydi.

Mashina va mexanizmlarning mehnatni zarur xayotiy extiyojga aylantirishda g'oyat katta rol o'ynashi ustida gapirib o'tirmasak ham bo'ladi. Ilgarilari bitta—ikkita mashinani tayyorlash zarur bo'lgan vaqtarda hamma ishlarni odam kuchi bilan bajarilar edi.

Ishlab chiqarishga bo'lgan ehtiyojning oshib borishi bilan turli mashina va mexanizmlarga ham talab oshib bordi. Bunday mashinalardan biri metall kesish stanogi hisoblanadi. Dastlabki stanoklar sodda va unumsiz bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan ular asta—sekin takomillashib, hayot talabiga javob beradigan darajada rivoj topib bordi.

Qo'l va oyoq bilan harakatga keltiriladigan qadimgi tokarlik stanogi bundan bir necha asr muqaddam paydo bo'lgan; bu stanoklarda keskich mahkamlab qo'yiladigan moslama mavjud emas edi.

Hozirgi vaqtida yuqori sifatli—stanoklar tokarlarimiz qo'lida unumli ishlab turibdi.

Avtomatlashtirishda hamma ishlarni mashinaning o'zi bajaradi. Ishlab chiqarishda avtomatlashtirish qachon kerak bo'ladi va buning uchun qanday sabablar kerak degan savol tug'iladi.

Birinchi sabab; maxsulotni ko'plab ishlab chiqarish ya'ni, bir yo'la million donalab maxsulot ishlab chiqarish jarayoni, ikkinchi sabab: hayotda faqat olimlar laboratoriyasidagina emas, zavod, fabrika tsexlariada ham bizning sezgi organlarimiz orqali qayd qilib bo'lmaydigan jarayonlarni o'lchash va boshqarish bilan shug'ullanishga to'g'ri keladi. Bunday xollarda ham avtomatsiz ish tutib bo'lmaydi. Uchinchi sabab: ishlab chiqarishning shunday tarmoqlari bo'ki, u erda insonning ishlashi xavflidir.

Bunday tarmoqlarga kimyo sanoati va pochta xizmatidagi jarayonlar kiradi. Hozir ishlab chiqarishni kompleks va to'liq avtomatlashtirish amalga oshirilayotgan davr.

Kompleks avtomatlashtirish o'z ichiga tsex va uchastkalarning hamma mashina va agregatlarini qamrab oladi. Avtomatlashtirilgan uchastka bir butun o'zaro bog'liq sistemaga aylanib, ayrim operatsiyalar kerakli tartibda aniq bajariladi.

To'liq avtomatlashtirish deganda butun ishlab chiqarish jarayoni mobaynida qandaydir maxsulot yoki detalning odam ishtirokisiz tayyorlanishi tushuniladi.

To'liq avtomatlashtirilgan jaravonni ko'z oldiga keltirish qiyin. Ammo bunday to'liq avtomatlashtirilgan sistema mamlakatimizdag'i korxonalarda ishlab turibdi Masalan, avtomobil sanoati texnologiyasi ilmiy tekshirish institutida bunday sistema ishlab chiqilgan. Bu sistemada detallarning ishlab chiqarishga tushishi, asbob-uskunalarining ishlashi haqidagi axborotlar ishlab chiqarish uchastkasidan zavod hisoblash markaziga uzatiladi. Har bir uchastkaning o'z operativ boshqaruv punkti bor. Bu erda ishlab chiqarish jarayoni bo'yicha to'xtovsiz nazorat olib boriladi. Soat va

Menena grafiklaridan boshlab z'xira zagotovkalargacha, asbob uskunaning ishlari, tanlanishi hammasi nazorat qilinadi.

Har bir uchastka, tsex va texnologik bo'limlar ishlab chiqarish programmasini zavod hisoblash markazi hisoblab beradi va shu arning o'zida mashinalar programmalarining bajarilishi xaqidagi ma'lumotni berib turadi. Bunday avtomatlashtirish sistemasi o'zini to'liq ogladi. Shu kabi sistemalar Asakadagi avtomobil ishlab chiqarish zavodida ham mavjud. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish beqiyos darajada mehnat unumdarligini oshiradi.

Avtomatning o'zi nima? Agar e'tibor bersak, har bir kishi atrofini avtomatlar o'rab olganini ko'ramiz: uni avtomat budilnik uyg'otadi. Vannaga suvni, avtomatik nasos stantsiyasi yuboradi. Issiq suvning haroratini maxsus avtomat boshqaradi. Nonushtaga yangi oziq—ovqatlarni xolodilnik avtomatda saqlanadi, nonni ham zavod avtomat yopib beradi. Uchinchi qavatdan birinchi qavatga lift avtomat olib tushadi. Ishga ketayotganingizda yo'lni svetofor avtomat boshqarib turadi. Bu kabi turli xil avtomatlarni cheksiz sanab o'tish mumkin.

Xullas, avtomatlarsiz yashash va ishslash mumkin emas. Avtomatlarsiz kosmosga raketalar ko'tarila olmagan, samolyotlar ucha olmagan, og'ir yukli poezdlar minglab kilometr yo'lni bosib o'ta olmagan, yuksak metallurgiya zavodlari va kimyo kombinatlari, elektrostantsiyalar, shaxtalar ishlay olmagan bo'lur edi.

Nimaga asosan avtomatik qurilmalar shunday katta qudratga ega va hamma yoqda o'z o'mini topmoqda degan savol tug'ilishi tabiiy.

Avtomat qanday qismlardan tashkil topgan?

Birinchisi, sezgi organlari. Bu elementlarni texnikada datchiklar deb ataladi. Datchiklar u yoki bu ob'ektdan fizik yoki kimyoiy o'zgarishlarni qabul qilib olib, uni avtomatik qurilmaga uzatadi. Datchik stanokda ishlov berilgan detalni paypaslab ko'rib, detal tayyor bo'lsa, stanokni to'xtatadi. Datchik fotoelement daryo va dengizlarda qorong'ulik tushib qolganda, xavfli joylarni belgilash va kemalar yura

oladigan yo'lni aniqlash uchun langarga bog'lab qo'yiladigan suzjich (baken)ni yoritadi. Datchik mikrofon signal berilishi bilan yong'in deposining darvozasini ochadi. Datchik indikator shaxtalardagi zararli gaz mo'ljaldagi miqdordan oshib ketganda xavf xaqida signal beradi. Ayrim datchiklar bosimni aniqlaydi, boshqalari esa, mexanizm og'irlik markazi yo'nalishini tekshirib turadi. Amalda qaerda mexanizmlar ishlasa va aniq axborotlar olish mumkin bo'lsa, shu erda datchiklarni qo'llash mumkin. Bu avtomatika qudratining bir belgisi Hamma gap shundaki, ko'pincha datchikdan olingan signal juda kuchsiz bo'lib, qurilmalar qayd qilolmay qoladi. Bu xolda yordamga kuchaytirgichlar keladi. Ular signal quvvatini bir necha bor kuchaytirib beradi. Juda ko'pturli kuchaytirgichlar mavjud: elektronli, magnitii, gidravlik, pnevmatik, pnevmoelektrik va xatto elektron mashinali.

Ko'rinib turibdiki, kuchaytirgichlar avtomatikaning ikkinchi ayrilmas qismidir. Datchiklar, ya'ni tashqi informatsiyani mashina qulay signallarga aylantiruvchi qurilmalar robotlarning ko'z — quloqlaridir. Respublikada datchik yasash va tayyorlash bilan kam shug'ullaniladi, xolbuki, u siz robot kar va ko'rdir.

Robototexnikaning mashxur uchta qonuni zamin qilib olingan fantastika roman va xikoyalarni o'qigan bolalarning necha avlodni etishdi. Robot jamiyatning farovonligi yo'lidagi erkin mehnatda ishlana olmaydi; odam robotni har bir ish o'mida, ishlab chiqarish madaniyatini yuksaltirish bilan kutib olmog'i kerak; har qanday ish kabi robotlarni joriy etish yo'lini hamma ham eplay olmaydi.

Avtomatika asoslangan asosiy tamoillardan biri shuki, datchik va kuchaytirgichdan boruvchi axborotlarni boshqaruvchi zanjir mavjud. Bu zanjir boshqarilishi kerak bo'lgan zanjirni boshqaradi. Boshqaruvchi zanjirga datchikdan kuchsiz signal kiradi. Signal kuchaytirgichda qayta ishlani, boshqariluvchi zanjirga kuchaytirilgan xolda etib keladi.

Ko'pincha bosh tekisda kelayotgan signalni keskasi o'zgartirishga to'g'ri keladi. Buning uchun maxsus qurilma — rele o'ylab topilgan. Rele ham kuchaytirgich singari turli xil bo'ladi: mexanik asosda ishlovchi, elektronli, elektromexanik, fotoelektrik va h. k.

Tangani telefon avtomatga tashlaganimizda, telefon liniyasini gravitatsion tipidagi mexanik rele orqali ishga tushirayotganimizni sezmaymiz ham. Rele uchun boshqarilayotgan zanjirga o'zgarish kiritishga kerak bo'lgan vaqt katta rol o'ynaydi. Eng sekin ishlaydigan rele mexanik reledir. Uning tezligi sekundning bir necha bo'lagiga to'g'ri kelsa —da, kam bo'lib hisoblanadi. Elektr mexanik relelar tezligi 1G'ZOO sekga teng. Elektron rele tezligi esa 1G'1000.000 sek ga teng. Avtomatikaning keyingi qismlariga ish bajaruvchi qurilmalar va dvigatel kiradi. Bular avtomatikaning muskullari hisoblanadi. Bu haqda avtomatika mutaxassisligi bilan tanishib to'la tasavvurga ega bo'lish mumkin. Avtomatika mutaxassisligi to'rt guruxga bo'linadi; nazorat, mudofaa, rostlash va boshqarish. Nazorat qilish nazorat qiluvchi qurilmalarining taraqqiy etishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlov berilayotgan detal o'lchami va sifatini, xaroratni, bosimni, tok kuchini, material rangini, ishlab chiqarilayotgan maxsulotni va qator operatsiyalarni nazorat qilish kerak. Nazorat qilinuvchi ob'ektning bunday ko'p qirraliligi nazorat qiluvchi vositalar turini ko'paytirishga olib keldi. Mexanik, elektrik, elektrolitik va h.k. qurilmalar mavjud. Hozir elektr va elektronli nazorat qurilmalari ko'p tarqalgan.

Podshipnik ishlab chiqaruvchi zavodlar millionlab po'lat zoldirlar ishlab chiqaradi. Agar qo'l yordamida shuncha zoldirni sifati bo'yicha navlarga ajratishga, balki yillar sarf bo'lar edi. Hozir esa, aloxida nazorat qurilmasi yordamida bir soatda bir necha ming zoldir navlarga ajratib beriladi.

Avtomatik liniyada ishlov beriluvchi detalning eni, avtomatik tarzda o'lchanib, yaroqli—yaroqsiz qilib konveyerdan chiqarib tashlanaveradi.

Avtomatik muhofaza qilish nima? Eng odu'y elektr probkani olaylik. Kvartirada qisqa tutashuv xodisasi yuz berganda probkadagi yupqa mis sim kuyadi va tok avtomatik tarzda o'chadi, shu bilan yong'inning oldi olinadi.

Aqli muhofaza qurilmalari generator, kompressor, nasos, vallarning xaddan tashqari katta tezlikda aylanib ketishidan saqlaydi. Xaqqatdan ham, avtomatikaning ikkinchi kasbi mudofaa qilish. Mudofaa qilish yo'q bolsa bormi, zavodlar, elektrostantsiyalar, transportning hamma ko'rinishi, uylardagi liftlar, dvigatel va avtomatik quriimaiar io'xlab qolgan bo'lur edi.

Avtomatikaning uchinchi kasbi rostlash. Rostlash texnika uchun juda muhimdir.

Ko'pchilik texnologik jarayonlarda va mashinalarda nazorat qilinuvchi miqdorni berilgan qiymatda ushlab turish shart. Nazorat qilinuvchi miqdorlarga harorat, bosim, naqil, tezlik, kimyoviy tarkib, tok kuchi va h.k.larni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Eng namunaviy misol sifatida aylanish sonini doimiy ushlab turuvchi markazdan qochma regulyatorni keltirish mumkin.

Hozir ko'pchilik sanoat ustanonkalarida elektron rostlagichlar ishlatilmoda.

Avtomatikaning to'rtinchchi kasbi boshqarish. Metallurgiya kombinatida kuchli prokat stani bor. Bu mashinani bir necha o'n dvigatellarning bir necha o'n ming kilovatt quvvatliligi 50 ming aholi yashaydigan shaharni yoritish imkoniga ega. Ana shu katta va kichik quvvatga ega hamma dvigatellar o'zaro kelishgan holatda ishlashlari kerak. Po'lat stan ishslash mobaynida besh mingga yaqin o'chirib—yoqish ishlarini bajaradi.

Bularning hammasini maxsus avtomatik boshqaruv sistemasi olib boradi. Ish jarayonidagi har qanday kichik o'zgarish, tashqi muhit ta'siri darrov qayd qilinib, unga nisbatan javob beriladi. Harorat, bosim oshib yoki kamayib ketsa datchiklar darrov ishga tushib, tegishli

organlarga xabar beradi. Bunday sistemaga misol qilib jonli organizmni ko'rsatish mumkin. Agar sovuq yoki issiq bolsa, organizm datchiklari ishga tushib, ish bajaruvchi mexanizmga xabar boradi, so'ngra darrov organizmni muhofaza qilish uchun tegishli chora ko'rildi. Organizmning biror eri shikastlanib qolsa, boshqa organlar shu shikastlangan erni tuzatish uchun hamina chorani ko'radi. Buning otini o'z—o'zini sozlash yoki o'z—o'zicha moslanish deb yuritiladi. Tirik organizmning o'z—o'zini moslash xususiyati minglab yillar davomida paydo bo'lib takomillashgan. Ana shunday o'z—o'zini moslash xususiyatini texnikaga ko'chirish mumkinmi?

Bu savolga salbiy javob berish texnika taraqqiyotining hozirgi darajasida qotib qolishga olib keladi. Ijobiy javob berish esa, oddiy texnologik jarayonlarni xuddi erdan turib kosmik kemalarni boshqargandek boshqarish imkonini beradi.

Biz ayrim misollar yordamida detallarga mexanik ishlov berish jarayonini boshqarish usul va ko'rinishlari bilan tanishtirib o'tamiz. Materiallarga mexanik ishlov berish jarayonini tekshirish bilan qoniqib qolish hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti talabiga to'la javob bermaydi.

Axborot texnologiyasi asri hisoblangan XXI asr ilm —fan taraqqiyoti har bir jarayonni tekshirish bilan birga uni boshqarish yo'llarini hain topishni taqozo qilib qo'yimokda. Biz hozir faqat samolyotlarni emas, raketa va kosmik kemalarni boshqarish imkoniga egamiz. Biroq mashinasozlikdagi texnologik jarayonlarni boshqarish masalasi to'la—to'kis hal etilmagan; Yangi stanok, uskunalarni yaratishda eng muhim masalalardan biri ularning sifatini, unumdorligini, chidamliligini ta'minlashga e'tibor berish kerak.

Avtomatlar xalq xo'jaligining deyarli hamma tarmoqlarida, ayniqsa mashinasozlik va asbobsozlikda keng qo'llanilmoqda

Avtomatlashtirishning ajoyib xususiyatlaridan biri shuki, mashinasozlikning hozirgi zamon kompleks avtomat x'liniyalarida kishi

organizmiga zararli bo'lgan suyuqliklar, kislotalar, ga'lalar, radioaktiv nurlar tarqatuvchi yangi—yangi taraqqiy etgan texnologik jarayonlarni qo'llashga to'g'ri keluvchi va bir vaqtida ishlab chiqariluvchi jarayonlarda qo'l mehnatini butunlay siqib chiqarmokda.

Sanoatimiz ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning turi behad ko'p. Umuman, ular yo bir xil materialdan yaxlit bir bo'lak qilib yoki bir necha ayrim detallardan yig'ilib tayyorlanadi.

Bir xil materialdan yaxlit bir bo'lak qilib tayyorlangan mahsulotlarga, masalan, piyola, kosa, cho'mich, qoshiq, vilka va shunga o'xshashlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Mashinasozlik mahsulotlari—mashinalar, mexanizmlar va ularning birikinlari ham shunga o'xshashlardan tashkil topgan, biroq, ular bir necha o'nlab, yuzlab yoki minglab ayrim detallardan tayyorlanadi. Masalan, podshipniklarni olaylik. Ular bir necha detaldan yig'ib tayyorlanadi. Samolyotlar esa, bir, necha yuzlab birikmalar va necha minglab detallardan tashkil topgan.

Biror mashina yoki mexanizm bunyodga kelguncha quyidagi asosiy bosqichlarni bosib o'tadi: eng avval qog'ozda o'z aksini topadi, ya'ni detallarning zagotovkalarini tayyorlanadi, so'ngra bu zagotovkalar turli stanoklarda ishlanib, aniq shakl va o'lchamlarga keltiriladi, ya'ni detallar tayyorlanadi. Shundan keyin ana shu detallar ma'lum tartibda yig'iladi, ya'ni detallardan birikmalar hikimdan esa mashina yoki mexanizmlar tayyorlanadi.

Ishlab chiqarish jarayonining birmuncha qiyin va mas'uliyatli bosqichlaridan biri detallar yoki birikmalarni bir—biriga aniq to'g'rilash, o'rnatish va yig'ishdir.

Ma'lumki, har qanday mexanizm va mashinaning aniq ishlashi va iloji boricha uzoq muddat xizmat qilishi uchun ularni aniq qilib yasash va to'g'ri ekspluatatsiya qilish kerak. Mashina va mexanizmlarning har bir detali aniq ishlanishi va to'g'ri yig'ilishi kerak. Sifatsiz detallardan sifatli mashina yoki mexanizm tayyorlab bo'lmaydi.

Shuningdek sifatli va aniq detallardan sifatsiz qilib yig'ilgan mashina noto'g'ri ishlaydi yoki umuman ishlamaydi.

Mashina va mexanizm detallari aniq va sifatli bo'lsa, ular oson va tez yig'iladi, yig'ish jarayonini avtomatlashtirish qulay bo'ladi.

Detallarning aniqligi, odatda, ularni loyihalayotgan vaqtdayoq, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan o'lchamlar va yuzalar tozaligini aniqlovchi shartli belgilar to'g'ri o'rnatilishi kerak.

Mashina detallari aniqligi ularning mashinadagi o'rni, vazifasi va ish xarakteriga qarab belgilanadi. O'z navbatida aniq detal ishlab chiqarish shu detallar ishlov berilayotgan stanok va uskunalar aniqligi va sifatiga bog'lik. Detallarga xech asossiz juda aniq qilib ishlov berish ham maqsadga muvofiq emas, chunki detalga qanchalik aniq qilib ishlov berilsa, u shuncha ko'p vaqt, mexnat, energiya hamda aniq stanok va moslamalar talab etadi. Natijada bu maxsulotni tayyorlash muddati cho'zilib ketishdan tashqari, yana iqtisodiy tomondan ham o'zini oqlamay qolishi mumkin. Shuning uchun ham mashina detallarining aniqligini belgilashda ularni avvalo ham texnika, ham iqtisodiy tomondan chuqur taxlil qilib qurish kerak.

Iqtisodiy nuqtai nazardan detallarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan o'lchamlari qancha katta bo'lsa, yuzalari qancha kam ishlov talab etsa u shuncha yaxshi, yuzalar qancha toza ishlansa, ularni yig'ish shuncha oson bo'ladi hamda yig'ish ishlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishga shuncha keng yo'l ochiladi.

Shunday qilib, avval konstrukturlar mashina hamda ularning birikmalari va detallarini qanday aniqlikda bo'lishini hamda iqtisodiy va texnika jihatidan taxlil qilib, eng optimal mikdorlarni aniqlab beradilar, keyin esa ularni tayyorlashga kirishiladi, shundan keyingina loyixalar konstruktordan texnologlarga yo'llanma oladi. Texnologlar, o'z navbatida, detallarni qanday tartibda, qaysi tipdagi stanok va moslamalarda hamda qanday rejimlarda yasash va yig'ish rejalarini, ya'ni ularning texnologiyasini tuzib beradilar. Detallarga mexanik ishlov

berishdagagi bunday texnologiyalari, albatta, detallarni tez, oson va a'ziq qilib yasash va yig'ishni ta'minlashi, shuningdek maxsulot tannarxini kamaytirishi, ish jarayonini to'la mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishga qaratilishi kerak.

Detal va birikmalarning optimal aniqligi, ularni yasash va yig'ishning optimal texnologiyasi mavjud bo'lsa, ular mexanika tsexiga uzatiladi. Bu erda texnikani ishga solib, optimal texnologiya asosida aniq detallar yasashga kirishiladi, avval zagotovkalar tayyorlanadi. so'ngra ular turli stanoklarda ishlanib, talab qilingan shakl va o'lchamlarga keltiriladi. Shu tarzda eng optimal aniqlikdagi detaillar tayyor bo'ladi. Keyinchalik hamma, detallar yig'uv tsexlari, uchastkalari va pozitsiyalariga uzatiladi. Bu erda estafetani olgan yig'uvchi ishchilar va yig'ish avtomatlari ishga kirishadilar; yig'uv texnologiyasida ko'rsatilgan tartib bo'yicha detallar bir —birlari bilan aniq qilib yig'iladi.

Yig'ish ishlarini jadallashtirish, mahsulot sifatini yaxshilashda detallar aniqligini oshirish bilan bir qatorda ishlab chiqarish madaniyatini yuksak darajaga ko'tarish ham muhim ahamiyatga egadir. Qaerda ishlab chiqarish madaniyati yuqori bo'lsa, o'sha erda boshqa ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, yig'ish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishga keng yo'l ochilgan bo'ladi.

Yig'ish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, o'z navbatida, ishlab chiqarilayotgan maxsulot sifatini yaxshilash imkoniyatini tug'diradi.

Chunki qo'lda yig'uvchi kishining fiziologik qobiliyatları va malakasi doimo bir xil bo'lmasligi sababli yig'iluvchi maxsulotlarning sifati ham har xil bo'lib chiqishi mumkin. Ba'zida inson bajarishi qiyin bo'lgan yoki umuman bajara olmaydigan yig'ish operatsiyalarini faqatgina mexanizmlar — avtomatlar yordamidagina bajarish mumkin bo'ladi. Avtomatlar yordamida maxsulot sifatini yaxshilashdan tashqari

mehnat unudorligini bexad darajada osh'ish, ish sharoitini engillashtirish va umuman uni xavfsiz qilish imkoniyati ham tug'iladi.

Mashina va mexanizmlar qanday yig'iladi?

Hozirgi zamon mashinasozlik va asbobsozlik sanoati ishlab chiqarayotgan maxsulotining turi juda ko'p bo'lishi bilan birga, ba'zi bir mashina va mexanizmlar xalq xo'jaligida faqat bir nechtagina kerak bo'lsa, ba'zilaridan bir necha yuzlab, minglab, xatto o'n minglab kerak bo'ladi. Shunga ko'ra, ishlab chiqarish hajmi ham turlicha bo'ladi: yakka donalab, seriyalab va yalpi ishlab chiqarish.'

Ishlab chiqarishning mana shu turlariga qarab yig'ish usullari ham turlicha bo'ladi. Hozirgi vaqtida mashinasozlik va asbobsozlikda ishlab chiqarishning hajmiga qarab yig'ishning quyidagi asosiy besh turi qo'llanilishi mumkin: 1) to'la almashlab yig'ish 2) to'la almashmay yig'ish; 3) detallarni gruppalab tanlash usuli bilan yig'ish; 4) kompensatorlar yordamida yig'ish; 5) moslash usuli bilan yig'ish. Bu usullarning o'ziga xos afzal va kamchilik tomonlari bor.

To'la almashlab yig'ish usulida hech qanday moslash ishlari qilinmasligi kerak. Detallarning qaysi birini olib o'rnatmang, u o'z o'mniga qo'shimcha egovlash, egish —bukish, qirtishlash, jilvirlash kabi moslash ishlarini o'tkazmasdanoq osongina o'rnatilishi kerak. Buning uchun detallar mexanika tsexida ishlangandayoq juda aniq o'lchamlarga keltirilgan, yuzalari esa, talab qilingandek toza bo'lishi kerak.

To'la almashlab yig'ish usuli qo'llanganda, yig'ish jarayonining avtomatlashtirilishi katta imkoniyat tug'diradi. Shu sababli bu usul asosan yalpi va ko'p seriyalab ishlab chiqarishda keng qo'llanadi. To'la almashmay yig'ish usuli qo'llanganda, faqat ayrim detallarnigina moslash kerak bo'ladi. Chunki bunda qo'yilgan talablarga muvofiq bo'lgan aniqlikdagi birikmalar chiqmay qolishi mumkin.

To'l^o almashmay yig'ish usuli qo'llanganda, yig'ish jarayonlarini faqat qisman avtomatlashtirish imkoni tug'iladi. Bu usul, asosan mashinalarni seriyalab ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Detallarni gruppala^b tanlash usulida ham ayrim detallarning o'lcham dopusklari miqdori bir oz kattalashtiriladi va kichik dopuskka ega bo'lgan detallar tanlanib, detallar gruppalarga ajratiladi.

Qandaydir bir vtulkaga valni o'rnatish kerak bo'lsin. Bir partiya vtulka va val tayyor bo'lgach, ayrim sabablarga ko'ra xoxlagan vtulkaga xoxlagan valni joylashtira olmaymiz. Shuning uchun ishlov berish jarayonida gruppalarga ajratiladi. Bunda vtulka yoki val qaysi o'lcham gruppasiiga ioyiq bo'lsa, shu erdayoq o'sha gruppaning nomerini ko'satuvchi tamg'a bilan belgilanadi va yig'ish uchastkasiga keltirilganda, har bir detal o'z gruppasi nomerini ko'satuvchi tamg'a bilan belgilanadi va yig'ish uchastkasiga keltirilganda, har bir detal o'z gruppasi nomeriga xos gruppadagi detallar bilan yig'iladi. Bu usulda ham yig'ish jarayonlarini qisman avtomatlashtirish mumkin. Shu sababli gruppalarga ajratib yig'ish, asosan seriyalab ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Ushbu usulning kamchiliklaridan biri shuki, har bir detalni bittadan o'lchab saralash, saralangan detallarni ayrim—ayrim gruppalarga ajratish kerak bo'ladi.

Kompensatorlar yordamida yig'ish usulini asosan ~~yordamida~~ ~~detallarni~~ kam seriyalab ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Bu usulda yig'iluvchi birikma talab qilingan aniqlikda bo'lishi uchun unga maxsus detal kompensator kiritiladi. Bu kompensatorlar yo qo'zg'aluvchan yoki qo'zg'almas bo'lishi mumkin. Qo'zg'almas kompensatorlarga har xil sozlash qistirmalari (prokladkalari), shaybalar, oraliq xalqlarini kiradi. Turli dona, vtulka, elastik yoki prujinali mufta, ekstsentrik va sozlanuvchi gaykalar esa qo'zg'aluvchi kompensator rolini o'ynaydi.

Qo'zg' aluvchi kompensatorlarni faqat mashinani yig'ishda en.4s, balki ekspluatatsiya qilish davrida birorta detalning yoyilib ketib, uni yana dastlabki xoliga keltirish lozim bo'lganda ham undan foydalaniadi. Demak, kompensatorlar mashinani yig'ish va ekspluatatsiya qilish jarayonida mavjud hamma noaniqliklarni tuzatib, qismlarni kerakli aniqlikda sozlab borar ekan.

Kompensatorlarni tanlash qiyin bo'lgani sababli yig'ish ishlarini avtomatlashtirish ham ancha qiyin bo'ladi.

Moslash usuli bilan yig'ishda birikmalarni yig'ishdan oldin uning ayrim detallari egovlanib, qirtishlanib, bukib, jilvirlanib o'z joyiga moslab olinadi. Bu usul asosan kam seriyalab va yakka donalab ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Yig'ish jarayonida mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni keng joriy qilish uchun avvalo yig'ish ishlarida hech qanday moslash ishlari bo'lmasligiga erishmoq lozim.

Mashinani loyixa qildingmi, uni tayyorlashni ham o'yla!

Hayotda ko'pincha bir xil maqsad uchun yaratilgan buyumlar juda xilma — xil qilib tayyorlanganini ko'rish mumkin. Masalan, hammamizga ma'lum radiopriyomnikni olaylik. Ularning turlari juda xilma — xildir.

Agar shu radiopriyomniklardan biri buzilib qolsa boshqa radiopriyomnik detallari unga mos tushmaydi.

Elektr dazmollar tashqi ko'rinishi bo'yicha bir — biridan kam farq qilsada, lekin ularning konstruktiv elementlari turlicha, chunonchi, ba'zilarida bor detallar boshqalarida bo'lmasligi mumkin (masalan, termoregulyatorli va termoregulyatorsiz dazmollar), boshqa mashina va mexanizmlar ham shunday: bir xil mashina sodda, ishda qulay, detallari kam va chiroyli qilib yasalgan; xuddi shunday ishni bajaruvchi boshqa bir mashinaning detallari bexad ko'p, vazni og'ir, ishda noqulay va energiyani ko'p sarflaydi. Buning eng birinchi va asosiy sabablaridan biri shundaki, shu vaqtgacha juda ko'pchilik mashinalar, mexanizmlar,

ularning qism va * detallari standartlashtirilmagan, * unifikatsiya qilinmagan. Bir turdag'i mashinaning o'ziga xos bir necha xil konstruktiv variantlari, texnologik jarayonlari bor. Shuning uchun ham ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar, ya'ni mashina, mexanizm, asbob va priborlarni to'la unifikatsiya qilish, standartlashtirish kerak bo'ladi. Shunday qilingandagina loyixalash va ishlab chiqarish texnologiyasini tuzishdagi parallel ishga barham berilib, yuqori ko'rsatkichli progressiv bir turdag'i konstruktsiya va texnologiyalarni yaratishga yo'l ochiladi.

Har qanday mashina yoki mexanizmni loyixalashda uning ish ko'rsatkichlariga putur etkazmay turib, detallari sonining iloji boricha kam bo'lishiga erishmoq kerak. Masalan, konstruktor mashinaning biror qismini bir necha mayda detallardan yig'ib yasaladigan yoki xuddi shu qismni yaxlit bir detaldek qilib loyixalashi ham mumkin. Birinchi usulda bir necha mayda detallarni alohida — alohida yasash, so'ngra ularni bir —biriga moslab yig'ish kerak bo'ladi, ikkinchi usulda esa faqat birligina detal yasaladi, xolos. Demak, shu bilan konstruktor kichik bir yig'ish operatsiyasini o'zining chizmakash stoli ustidayoq, bajarib qo'ygan bo'ladi. Bunday qilish bilan mexanika tsexi ishchilarining, yig'uvchilarning ishi ancha engillashtiriladi, ishlab chiqarish jarayoni osonlashadi va birmuncha tezlashadi, maxsulotning tannarxi kamayadi va shu bilan birga yig'ish ishlarini mexanizatsiyalashtirish hamda avtomatlashtirishga qulay sharoit tug'iladi.

Ammo qismlarni yaxlit bir detal qilib yasashga urinib ketib, detallarning konstruktsiyasini juda murakkablashtirib yuborish ham yaramaydi, chunki detalning konstruktsiyasi qancha murakkab bo'lsa, unga ishlov berish, ayniqsa ularni yig'ish, binobarin, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish ishi ham shuncha qiyinlashib ketishi mumkin. Bundan tashqari, butun mashinani, mexanizmni bir bo'lak yaxlit qilib yasab bo'lmaydi.

• Tokar tokarlik stanogida dumaq detal yuzasini va toretsini yo'nadi, parmalovchi parmalash stanogida detallarni parmalaydi, razvyortka yordamida ishlov beradi va zenkerlaydi.

Frezerchi frezerlash stanogida detal tekisliklarini frezerlaydi. Silliqlovchi silliqlash stanogida detal yuzasi va teshiklarini silliqlaydi. Demak, konstruktor bor bilimini ishga solib, yaxlit bir bo'lakdan iborat mashina yoki mexanizm loyixasini tuzgani bilan unga bosh texnologik shartlarni ado etib, mexanik ishlov berib bo'lmaydi. Shuning uchun birikmalarni iloji boricha yaxlitlashtira turib, birinchi galda mashina yoki mexanizmnning normal ishlashini ta'minlagan xolda, uning detallariga ishlov berish va ularni yig'ish ishlarining imkonini boricha juda qulay bo'lishiga erishish kerak. Detal har qancha soz bo'lsa, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ham shuncha osonlashadi.

Shunday qilib, konstruktor birikmalarni maksimal yaxlitlashtirishni ishlab chiqarish jarayonining tez va oson bajarilishi bilan bog'lab olib borib, detalning optimal shakl va o'lchamilarini aniqlab beradi. Bundan keyingi ish texnologlarning aql — idroki tajribasiga bog'liq bo'ladi. Texnolog mexanika tsexining yo'lchi yulduzi xisoblanadi. Texnolog mexanik ishlov berilishi kerak bo'lgan detal chizmasini qo'liga olar ekan, tsexdagi bor imkoniyatni solishtirib optimal fikrga keladi. Ochig'ini aytganda, har zamonda emas, ko'pincha tsex texnologgi kiritgan texnologik yangilik ustun chiqib, ish unumtdorligi oshishiga va maxsulot sifati yaxshilanishiga sababchi bo'ladi. Texnologlarning ishlab chiqarish, xususan yig'ish texnologiyasiga biror o'zgartish kiritishlari natijasida maxsulotni boshqacha, oson priyomlarda ishlash va yig'ish usullari yaratilishi mumkin bo'ladi. Natijada ishlov berish jarayoni osonlashadi, tezlashadi, yig'ish jarayonlarini avtomatlashtirish engillashadi, avtomatik mexanizmlar esa, birmuncha soddalashadi. Ko'pincha odam qo'l xarakatlarini takrorlovchi avtomatlar ham murakkab bo'ladi. Texnolog

tajribali bo'lsa, texnologiyani bir ~~ta~~ bo'lsa ham tezda o'zgartirib, yang'i avtomatlashtirish sharoitiga moslaydi.

Yig'ish ishlarini avtomatlashtirish, ishlab chiqarishning boshqa jarayonlari kabi o'zining bir qator taraqqiyot bosqichlariga ega.

Birinchi bosqich qo'lda yig'ish. Dastavval, mashina va mexanizmlar faqat qo'lda yasalib, qo'lda yig'ilar edi. Keyinchalik, asta sekin texnika taraqqiy eta borishi bilan yig'ish ishlarida har turli sodda mexanizmlar qo'llana boshlandi.

Ikkinci bosqich kichik mexanizatsiyalashtirish. Bunda faqat ayrim yig'ish operatsiyalarigina mexanizatsiyalashtirilib, yig'ish ishlarining qolgan asosiy qismi qo'lda bajariladi. Kichik mexanizatsiyada asosan detal yoki birkalmalarni bir erdan ikkinchi erga eltib qo'yish, gayka, vint, bolt kabilarni burab kiritish, teshish, detallarning birini ikkinchisiga presslab kiritish kabi ayrim operatsiyalargina mexanizmlar yordamida bajariladi.

Uchinchi bosqich to'la yoki kompleks mexanizadiyalashtirish. Bunda yordamchi priyomlar—(detallarni eltib qo'yish, o'matish, bo'shatish va xokazolar) bataysil mexanizatsiyalashtirilgan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich yig'ish ishlarini qisman avtomatlashtirish. Bu bosqichda xar turli mexanizatsiyalashtirish asboblaridan tashqari yana avtomatik va yarim avtomatik yig'ish sganoklari ham qo'llanadi.

Besinchi bosqich ~~to'la yoki kompleks mexanizadiyalashtirish~~. Bunda butkul hamma yig'ish, tashish, tayyor maxsulotlarni sanash, o'rash va yashiklarga joylab qo'yishgacha bo'lgan barcha operatsiyalar avtomatlar va avtomatik liniyalar yordamida bajariladi. Yig'ish ishlari kompleks avtomatlashtirilgan uchastkalarda ishchi operator faqat avtomatik stanoklar, liniyalarni vaqt —vaqt bilan kuzatib turadi va zarur bo'lgan xollarda stanok, pribor yoki mexanizmlarni sozlab, normal xolatga keltirib turadi. Bu ishlarni bajarish uchun operator yukori malakali bo'lishi kerak.

Xozir kibernetika fanining moddiy bazasi bo'lgan elektron — xisoblash mashinalari operatorlar malakasi masalasini ham xal qilmokda. Mashinalar, «avtomatik operator» lar inson ko'zi bilan ko'rib, qulog'i bilan eshitib bo'lmaydigan ko'z ilg'amas xatolarni topib, avtomatik yig'ish mashinalarini, liniyalarini o'z —o'zidan boshqarib turadigan bo'ladi. Buning uchun inson xizmatiga kibernetika fanining katta bir yo'llanmasi — texnika kibernetikasi yordamga keladi.

Detallarni yig'ishga tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, mashina va mexanizmlarning turi nihoyatda ko'p. Faqat mashinasozlik sanoati ishlab chiqarayotgan maxsulotlarning turigina 130 mingga yaqin. Har bir mashina yuzlab yoki minglab detallardan yig'iladi. Mashinalarning konstruktsiyasiga qarab bajaradigan vazifasi ham, ularning detallari ham turli — tumandir; biri silliq zoldir yoki tsilindr shaklida bo'lsa, ikkinchisi jimp Jimjimador yoki egri — bugri bo'ladi; biri qo'lga ilinmas darajada kichkina bo'lsa, ikkinchisi kranlar yordamidagina ko'tarish mumkin bo'lgan darajada nihoyatda katta bo'ladi; ularning biri po'latdan, cho'yandan, alyuminiydan yasalgan bo'lsa, ikkinchisi plastmassadan, yog'ochdan, rezinadan, chinni yoki sopoldan, namat va kartondan yasalgan bo'ladi.

Detallarning shakli, o'lchamlari, materiali, shuningdek ularni yasash va yig'ish texnologiyasi, stanok va asboblari ham turli — tumandir. Ba'zi bir detallar zagotovkasini quyib yoki bolg'alab olinsa, boshqasini lenta yoki sim o'ramidan, chiviq hamda trubadan kesib tayyorlanadi. Bir xil zagotovkalarni aniq qilib qo'yish yoki shtamplashning o'zida tayyor xolga keltirilsa, boshqasini albatta keskich, freza, razvyortka va boshqa kesish asboblari tozalab, ishlab yoki charxtosh bilan silliqlanadi. Detallarning bir xili elektr payvand qilinsa, ikkinchi xili parchin mixlar (zaklyopkalar) bilan ulanadi, uchinchisi boltlar yordamida biriktiriladi, to'rtinchisi esa, maxsus elimlar yordamida yopishtiriladi va xokazo.

Shunday rilib, detallarning turi qancha ko'p bo'lsa, ularni ishlab chiqarish texnologiyasi, stanok va asbob uskunalarini, yig'ish usullari ham shuncha ko'p va turli—tumandir. Bu esa, iqtisodiy tomonidan o'zini oqlamasligi bilan bir qatorda eng progressiv usullarni, stanok va asboblarning ratsional konstruktsiyalarni tanlab olishda, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishda ham birmuncha qiyinchilik tug'diradi.

Shuning uchun ham birinchi galda mashina va mexanizmlarni, so'ngra ulardaqи detallarni to'la bir turga keltirish va standartlashtirish kerak. Shunday qilinganda, hamma mashina va mexanizmlar, ularning har bir gruppasi uchun umumiy bir texnologiyani tuzish, bir turdagи progressiv stanok va asboblar yaratish yoki tanlab olish imkoniyati tug'iladi. Bu tadbir yangi maxsulotlarni o'zlashtirish mudlatlarini qisqartiradi, maxsulot tannarxini kamaytirib mexanizatsiya va avtomatizatsiyaga keng yo'l ochib beradi.

Ammo mashina va mexanizm detallarini to'la bir turga keltirish hamda standartlashtirishning o'ziga xos qiyinchiliklari ham bor. Shuning uchun bu tadbirni osongina amalga oshirib bo'lmaydi. Har bir mashina, undagi har bir detalning o'ziga xos xizmat vazifasi bor. Shuning uchun ularning tuzilishi, shakli va o'lchamlari har xil bo'ladi. Hozir mashinasozlik korxonalarida har bir detal, uchun alovida emas, balki ma'lum bir gruppaga detallarga oid texnologiya tuzish va universal avtomatlar yasash imkonini tug'dirish maqsadida turli detallarning bir —biriga o'xshash xossalariiga qarab, ularni ma'lum turkumlarga, gruppalarga ajratiladi.

Mashinani avtomatik qo'llar yig'adi.

Har qanday mashina yoki mexanizmni yig'ish uchun ishchi har xil detallardan donalab tanlab olishi, ularni o'nglashi va so'ngra yig'ish pozitsiyasiga keltirishi, bir detalni ikkinchi detalga o'rnatishi, bunda ularni bir —biriga nisbatan to'g'ri o'nglanganligini yana bir tekshirib ko'rishi, shundan so'ng ularni maxkamlashi va oxirida yig'ilgan

qismning sifatini tekshirib ko'rib, yaroqlilarini boshqa pozitsiyaga uzatib berishi yoki konservatsiyaga jo'natishi kerak. Yig'ish ishi kompleks avtomatlashtirilganda, mana shu priyomlarning hammasini ishchi emas, maxsus mexanizmlar avtomatik «qo'llar» bajaradi.

Hozirgi vaqtida avtomatik «qo'llar» bu priyomlardan tashqari yana bir qancha yordamchi priyomlarni ham bajarmoqda. Chunonchi, ular detallarni pastdan stanok pozitsiyasi satxigacha ko'tarish, o'nglangan detallarni jamg'arib turish, yig'ish pozitsiyaga keltirilayotgan detallarning tezligini oshirish yoki kamaytirish, jamg'arish magazinidagi detallarning doimo bir me'yorda bo'lislini boshqarib turish, detallarni bir necha pozitsiyalarga taqsimlash, yig'ish pozitsiyasida yig'iluvchi detallarning bor — yo'qligini tekshirib ko'rish kabi ishlarni ham bajarishga qodirdirlar.

Yig'iluvchi detallarning shakli, o'lchamlari har xil. Bundan tashqari, detallarni yig'ish stanogiga etkazib berish tezligi ham turlicha bo'lgani sababli bunkerli yuklash qurilmalarining tiplari, konstruktсиyalari va ishlash printsiplari ham har xildir. Hozirgi kunda bunkerli avtomatik yuklash qurilmalarining turi 120 dan oshib ketgan. Bunkerlarni diskli og'ma, magnitli, elevatorli, tebranuvchi sektorli, shiberli, aylanuvchi trubkali va shu kabi ko'rinishlari mavjud.

Hamma bunkerli yuklash qurilmalari bir vaqtning o'zida ikkita ishni bajaradi, ya'ni ular detallarni uyumdan bittalab yoki gruppalab tanlab oladi va shu bilan bir qatorda ularni ma'lum xolatga keltirib o'nglaydi.

Elevatorli yuklash qurilmasi boshqa turdag'i bunkerlar bajara olmaydigan bir ishni — detallarni pastdan yuqoriga ko'tarish priyomini ham bajaradi.

Bunkerli yuklash qurilmalarining ko'plari bir vaqtning o'zida jamg'argich magazin rolini ham o'tashi, detallarni bir necha stanoklarga bo'lib berib turishi, hatto ayrim xollarda detallarni o'zaro yig'ib qo'yishlari ham mumkin.

Detallar bunkerl^o yuklash qurilmalarida donalab t^onlab olinib o'nglanganidan keyin ularni albatta yig'ish pozitsiyasiga keltirib qo'yish kerak. Hozirgi yig'ish avtomatlarida bu ishlarni maxsus avtomatik qo'llar bajaradi. Bunday avtomatik — qo'llarga turli ko'targichlar (pod'yomniklar), transportyorlar va novlar (lotoklar) kiradi. Bular ichida eng ko'p tarqalganlari novlardir. Novlar qayishqoq yoki bikir bo'lishi mumkin. Qayishqoq novlar rezinka shlangadan, sim prujinadan, bir — biriga kiydirilgan temir voronkalardan yasaladi. Bikir novlar yo'g'on simlardan, metall polosalardan, trubalardan va shunga o'xshashlardan yasalishi mumkin. Iton izi va spiral novlar detallarning tushish tezligini bir oz kamaytirish kerak bo'lganda qo'llaniladi.

Hozirgi vaqtida detallarni uzatib berish bilan bir qatorda ularning xolatini o'zgartirib, bir necha detallarni jamg'arib turadigan nov — magazinlar ham bor. Bundan tashqari detallarni bir erdan ikkinchi erga uzatib berish bilan birga, ularning xolatlarini o'zgartirib, o'nglab beruvchi novlarning yanada yangi — yangi turlari qo'llanmoqda.

Magazin—avtomatlar

Yig'ish stanoklarining to'xtovsiz ishlashi uchun yig'ish pozitsiyasi oldida ma'lum miqdorda o'nglangan detallarni jamg'arib turish kerak bo'ladi, chunki bunker ishdan chiqib qolishi yoki biror sababga ko'ra bunkerdan detallar kelmay qolishi mumkin.

Ana shu vaqtida stanok jamg'argich magazindagi detallar xisobiqa ishlab turadi. Bunker ishga tushsa, sarflangan detallarning orni yana to'ldirila beradi.

Jamg'argich magazinlar har xil bo'ladi. Ularning eng soddasi va ko'p tarqalgani oddiy novlardir. Shu bilan birga, hozirgi ilg'or zavodlarda juda murakkab, bir necha mexanizmlardan tashkil topgan bahaybat magazin agregatlarni uchratish mumkin. Jamg'argich magazinlarning hajmi detallarning o'lchami va ma'lum muddat jamg'arilib turilishi kerak bo'lgan detallar soniga garab olinadi. Detallar qancha mayda va kam miqdorda jamg'arilib turishi kerak bo'lsa,

mag'zinlar ham shuncha ixcham va kichik, aksincha detallar qancha yirik bo'lib, ko'p miqdorda jamg'arilib turishi kerak bo'lsa, magazinlar ham shuncha qo'pol va katta bo'ladi. Magazinlarni doimo kichik bo'lishiga harakat qilish kerak.

Hozirgi vaqtdagi jamg'argich magazinlarning ba'zilari detallarni faqat jamg'aribgina qolmay, shu bilan birga, ularni boshqa xolatga keltirib o'nglab qo'yish, bir necha pozitsiyaga taqsimlab berish, pastdan yuqoriga ko'tarish kabi bir necha priyomlarni ham bajara oladi.

Barmoqlar,

Yig'ish avtomati uzlusiz ishlashi uchun magazin doimo detallar bilan to'la bo'lishi kerak. Ammo bunkerli o'nglash Qurilmalarining unumdorligi doimo o'zgarib turadi, shuning uchun magazindagi detallarning soni ham goh, ko'payib, goh kamayib turadi. Magazinda detallar juda kam bo'lsa, ular tezda tamom bo'lib qolib, stanok turib qolishi yoki detallar belgilanganidan ortib ketsa, magazin to'lib — toshib ketishi mumkin. Shuning uchun magazinlarda detallar soni bir me'yorda bo'lishini boshqarib turadigan maxsus sezgir barmoqlar—datchiklar o'rnatib qo'yiladi.

Magazinda detallar doimo tutash qatorda bo'lib jamg'arilib turadi. Ammo yig'ish pozitsiyasida ularni faqat bitta —bitta donalab uzatish kerak bo'ladi. Buning uchun maxsus mexanizm —detallarni donalab ajratuvchi avtomat «qollar»dan foydalilanildi.

Detallarni tutash qatordan bittalab olib boruvchi mexanizmlarning asosiy turlari: chetida o'yig'i bo'lgan disklar, barabanlar, krestlar, tishli zanjirlar, lentalar, qo'sh barmoqlar, kiberlar, qo'sh vintlar, shneklar, tishli disklar va tebranuvchi sektorlardan iborat. Bu mexanizmlar detallarni avtomatik ravishda sanashda ham, komplektovka qilishda ham qo'llaniladi. Shuning uchun ham detallarni faqat donalab ajratib beradigan mexanizmlar bilan birga, detallarni ketma —ket joylashgan xolda gruppalab galma — galdan ikki novga bo'lib beruvchi va bittadan yoki gruppalab parallel ravishda bir necha novlarga bo'lib beruvchi

Mexanizmlar ham bor. Demak, ular yordamida bir vaqtning o'zida ikki⁴ pozitsiyani detallar bilan ta'minlab turish mumkin. Bunday mexanizmlar ba'zida detallarni donalab yoki gruppalab ajratib berish va ularni bir necha novlarga taqsimlab berishdan tashqari, yana detallarni boshqacha xolatga o'nglab qo'yish, uzatib berish ishlarini ham bajara oladi. Ko'pincha detallarni ajratish ularni yig'ish pozitsiyasiga o'rnatib qo'yuvchi mexanizm bilan ham amalga oshiriladi. Bunda maxsus ajratish mexanizmi kerak bo'lmaydi.

Avtomatik — qo'llarning turi, konstruktsiyasi, ishlash printsiplari har xildir. Ular shiberli, sektorli, itargichli, havo bilan puflab ishlaydigan, pachka lab itarib beriliadigan barmoqlii, magnitli, vakuumli va diskli bulishi mumkin. Bu avtomat qo'llar detallarni yig'ish pozitsiyasiga o'rnatib qo'yish bilan birga ba'zi vaqlarda yana detallarni magazindan donalab yoki gruppalab ajratishi, ularni bir necha pozitsiyalarga taqsimlashi, boshqa xolatga o'nglashi, hatto yig'ish va yig'ilgan qismlarni pozitsiyadan olib qo'yishi ham mumkin. Ko'pincha detallarni o'rnatib qo'yadigan va pozitsiyadan tayyor qismlarni olib qo'yadigan qo'llar alohida qilib yasaladi. Bunday «qo'llarni ko'p pozitsiyali — qo'llar» deyiladi. Ko'p pozitsiyali qo'llar unum dorlikni birmuncha oshirishga imkon beradi.

Ayrim xollarda ba'zi bir sabablarga ko'ra, «qo'llar» magazindan detallarni ololmay qolib, yig'ish pozitsiyasiga quruq, borib keladi yoki detalni pozitsiyaga qiyshiqroq o'rnatadi. Bunda yig'iluvchi qism komplektlanmay qoladi yoki stanok qiyshiq, o'rnatilgan detalni bosib yoki burab yuboradi. Natijada detal yoki stanokning biror qismi pachoqlanishi, sinishi, xatto avariya ro'y berishi mumkin boladi. Bunday xollar sodir bo'lmasligi uchun ko'pgina yig'ish avtomatlarida pozitsiyada detal bor — yo'qligini va detalning to'g'ri noto'g'ri turganligini tekshirib turuvchi, shuningdek, agar detal noto'g'ri o'matilgan bo'lsa, uni olib tashlovchi yoki to'g'rilab qo'yuvchi maxsus avtomatik qo'llar qo'l keladi.

O'nglab o'rnatilg'an detallarni biriktirish usullari.

Detallar bunkerlarda o'nglashib, yig'ish pozitsiyasiga uzatib berilgandan keyin ular maxsus mexanizmlar yordamida ajraluvchan yoki ajralmas qilib biriktirilishi kerak. Ajraluvchan birikmalarga buzib — yig'ishga mo'ljallangan qismlar kiradi. Ular boltlar, gaykalar, ponalar va shunga o'xshashlar bilan biriktiriladi. Ajralmas birikmalarga bir—biriga kuch ostida presslab kiritilgan, elektr payvandlangan, uchi siqilgan, kavsharlangan, elimlangan, qizdirib biri ikkinchisiga singdirilgan, zamazkalangan, yupqa devori bukilib, boshqa detalning chuquriga kiritilgan, oyna yoki plastinassadan metallga formovka qilingan yoki quyib olingan birikmalar kiradi.

Birikmalarning ajraluvchan yoki ajralmas bo'lishiga qarab yig'ish pressini avtomatlashtirish ham har xil usullarda hamda turli asbob va mexanizmlar yordamida olib boriladi.

Avtomatik biriktirish mexanizmlari.

Avtomatik biriktirish mexanizmlarining turi juda ko'p. Ular ichida eng ko'p tarqalgalari gayka buragichlar, shurup buragichlar va payvandlash uskunlari. Kompleks avtomatlasmashirilgan yig'ish liniyalarida yig'ilgan qismlarning sifatini tekshiruvchi, saralovchi maxsus avtomatik mexanizm va agregatlar ham o'rnatilgan bo'ladi. Ular birikmaning mustahkamligini, oraliq bo'shliqlarini, mexanizm yoki qismning ish protsessini tekshirib, bu haqda aniq ma'lumotlar berib turadi.

Oddiy yig'ish avtomatlaridan murakkab avtomat stanoklarga.

Yuqorida faqat ikkita qismni yig'uvchi oddiy avtomatlarning ayrimlari bilan tanishgan edik.

Ma'lumki, qism qancha ko'p detallardan tashkil topgan bo'lsa, ularni yig'ish ham, binobarin, yig'uvchi avtomatlar ham shuncha murakkablashib boradi, bunkerli yuklash qurilmalarining soni ortib boradi, stanokning komponovkasi qiyinlashadi, ishlab chiqarish tsikli kattalashadi.

Mashina qismlarini yig'uvchi automatik lin.alar.

Mashinalar qismlaridagi detallar soni oshib, murakkablashib borishi bilan bu murakkab qismlarni bittagina stanokda yig'ish mumkin bo'lmay qoladi. Bunday murakkab qismlar asosan avtomatik liniyalarda yig'iladi. Avtomatik liniyalar bir necha yig'ish avtomatlaridan tuziladi. Bu avtomatlar bir —biri bilan transporterlar yordamida tutashtiriladi. Negiz detal (bazovaya detal) avtomatik liniyaning boshidan kiritiladi. Unga yo'l — yo'lakay, har xil bunkerlardan detallar kelib yig'ilib, liniyaning oxirida qism tayyor xolda bo'shatib olinadi. Avtomatik liniyalarda ham yuklanuvchi detallarning shakli, o'lchami va yuklanish tezligiga — qarab barcha xildagi bunkerlardan, shu jumladan, magazinlarning o'zidan ham foydalanish mumkin. Hozirgi zamon kompleks avtomatik liniyalarida yuklanuvchi detallarning shakli, o'lchami va yuklanish tezligiga qarab barcha xildagi bunkerlardan, shu jumladan, magazinlarning o'zidan ham foydalanish mumkin. Hozirgi zamon kompleks avtomatik liniyalarida qismlarni yig'ish detallarga ishlov berish bilan qo'shib olib boriladi.

Mana shunday avtomatik liniyalaridan biri loyixalangan va ishlangan.

Bu liniyada shatun yig'iladi va yo'l — yo'lakay ishlənədi.

Liniya transportyor bilan tutashtirilgan uchta stanokdan iborat
pozitsiyalar, shuningdek 18 pozitsiyaning 16 tasi ishchi
pozitsiyalar, liniyaning boshidagisi yuklash, oxiridagisi tayyor shatunni
bo'shatib olish pozitsiyalaridir. Hozirgi kunda avtomatik liniyalarning
yana boshqa turlari ham bor. Ana shunday liniyalardan biri konveyerlar
bilan tutashtirilgan bo'lib 8 ta yig'ish avtomatidan tashkil topgan.
Bunday liniyaning biror avtomatida detallar bo'lmasa, liniya ishga
tushmasdan turaveradi va bu haqda — ishchi operatororga xabar qiladi.
Liniyada 14 turdag'i 80 detal yig'iladi. Mayda detallar bu liniyada
titrovchi bunkerlar yordamida etkazib turiladi.

Yillik programma 160 000 - 170 000 bo'lganda, qo'lda yig'ishdan avtomatik liniyada yig'ishga o'tish yiliga 300 ming so'm mablag'ni tejab qolish va 18 kishining boshqa ishlarga o'tkazish imkonini beradi.

Yig'ish avtomatlari ilgari liniyalarda bir chiziq bo'ylab joylashtirilar va ular ko'p joyni egallar edi. Shuning uchun keyingi yillarda yangi turdag'i ixcham avtomatik liniyalar — rotor liniyalar ishlab chiqarildi. Bunday liniyalarda qismlar muttasil aylanib turuvchi dumaloq stollarda bir operatsiyadan ikkinchi operatsiyaga o'tib, yig'ilá boradi.

Rotor liniyalarida yig'ishdan boshqa termik ishlov berish, bo'yash, quritish, upakovka qilish kabi yana bir qator operatsiyalar ham bir vaqtning o'zida bajarilishi mumkin. Rotor liniyalarning unumдорлиги aylanuvchi stollarning tezligi va undagi pozitsiyalarning oralig'i bilan aniqlanadi.

Rotor liniyalar ayrim rotor agregatlardan yig'iladi. Ular yana bloklardan ham tashkil topgan bo'lishi mumkin. Har bir blokda ishlovchi, yig'uvchi va uzatuvchi qurilmalar bo'ladi.

Hozirgi vaqtda rotor mashinalari asosida vtulka rolikli zanjirlarni yig'ish avtomatik liniyalar ham barpo etilgan. Bunday liniya yiliga 40 ming so'm mablag'ni tejab qolish imkonini beradi.

Shunday qilib, bir necha yig'ish operatsiyalari boshqa texnologik operatsiyalar bilan birga avtomatlashtiriladi, bunday avtomatlardan avtomatik liniyalarga, avtomatik liniyaldan kompleks avtomatlashtirilgan zavodlarga o'tiladi. Biz yuqorida keyingi o'n yil ichida ishlab chiqilgan mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan yig'ish qurilmalari, stanoklari va avtomatik liniyalar bilan tanishib chiqdik. Xozirgi kunda eng birinchi kompleks avtomatlashtirilgan zavod ham ishlamokda.

Zavodda zagotovkalarni, quyib tayyorlashdan to tayyor maxsulotni sanab, moylab, qog'ozlarga o'rab upakovka qilishgacha bo'lgan barcha operatsiyalar avtomatik ravishda bajariladi.

So'nggi yillarda Respublikamizning mashina sozlik asbobsozlik zavodlarida, loyixalash muassasalarida turli texnologik operatsiyalar bilan bir qatorda yig'ish ishlarini avtomatlashtirish soxasida ham ko'p ishlar qilingan. Masalan, respublika sanoatida yangi texnika va ilg'or texnologiya soxasida mingdan ortiq yirik tadbirlar joriy qilindi. 300 dan ortiq ishlab chiqarish uchastkasi va tsexlariда kompleks mexanizatsiyalash amalga oshirildi, 66 ta avtomatik liniya, on kilometrlab konveyer va rolganglар, 2200 ga yaqin maxsus agregat, avtomatik va yarim avtomatik stanoklar ishga tushirildi. 10 mingdan ortiq turli uskunalar modernizatsiya qilindi. Bu tadbirlarning ko'pchiligi yig'ish ishiarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishga qaratilgan. Hozir respublikamiz zavodlarida yig'ish ishlarida har xil mexanizmlarni tobora keng qo'llanish bilan birga yangi yig'ish avtomatlari ham yasalmoqda.

Ammo bu erishilgan yutuqlar hozirgi talabni qanoatlantirolmayotir. Chunki respublikaning mashinasozlik va asbobsozlik zavodlarida hozir necha minglab kishilar yig'ish ishlari bilan band bo'lib kelmoqdalar ko'pgina zavodlarda xali mexanizatsiyalashtirilgan yig'ish asboblari yo'q. Bolg'a, gayka kalitiga o'xshash ota — bobolarimizdan qolib kelgan asboblari xali ham yig'uvchining ish quroli bo'lib qolmoqda. Biz hukumatimiz tomonidan mashinasozlar oldiga qo'yilgan asosiy vazifa mexanizatsiyalashdan kompleks avtomatlashtirishga o'tish vazifalarini muvaffaqiyatli xal qilish uchun qizg'in kurash olib borishimiz kerak.

Shuning uchun mashinasozlik va asbobsozlikda hozirdan boshlab boshqa operatsiyalar bilan bir qatorda, ishlab chiqarishning eng qiyin operatsiyalaridan bo'lgan yig'ish operatsiyalarini to'la mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish tadbirlarini ham keng miqyosda amalga oshirmoq lozim. Informatsion texnologiya faqat xisob kitob va matematik modellashtirish soxasidagina inqilob qilibgina qolmay, balki korxonalar, ishlab chiqarish komplekslari va hatto halq

xo'ja qoji bir butun tarmog'ining tashkiliy va avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemasini yaratishdek katta ishga asos yasab boshqarish, planlashtirish va xisob ishlarini sifat jixatidan yangi darajada xal etish yo'lini ochib berdi.

Biroq, samaradorlikka erishish uchun ishlab chiqarish soxasining o'zini taraqqiyotning ilg'or darajasiga ko'tarish kerak. Bu esa o'z navbatida bugungi kunda sanoatning hamma tarmog'ida to'liq avtomatlashtirishga imkon beradigan texnik vositalarni bunyod etish to'g'risida bosh qotirishni taqozo qiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mashinasozlikda stanokka detalni o'rnatishdan tortib bevosita ishlov berish jarayonini boshqara bilish kerak. Stanoklarning unumdon ishlashi uchun ular adaptiv boshqaruv sistemalari, robot, manipulyatorlar bilan jihozlanishi kerak, epchil ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etish kerak.

Stanok avtomat va avtomatik liniyalarda texnologiya bikir, ya'nii oldindan belgilangan aniq xatti xarakatlarga asoslangan. Shuning uchun ushbu stanok avtomat va avtomatik liniyalarni yangi detalga ishlov berish emas, balki shakli bir oz o'zgartirilsa ham boshqatdan sozlash juda katta sarf, vaqt va kuch bilan bog'langan. Bu albatta, stanok avtomatlar imkonlari tugadi degan xulosaga olib kelmaydi, albatta.

Qo'yilgan problemani xal etishning yo'llaridan biri biz yuqorida ta'kidlab o'tgan raqamli programma asosida boshqariluvchi (RPB) stanoklardir. Programma o'zgartinildimi, yangi turdag'i detalga ishlov berish imkonи tug'ilaveradi. Boshqarishning bunday g'oyasi faqat oddiy metall qirqish stanoklarida emas, balki ko'p operatsiyali agregat, press va shtamplarda ham o'z samarasini ko'rsatdi.

AVTOMATLASHTIRISH BOSQICHLARI

Avtomatlashtirishning birinchi bosqichi deganda uskuna ishchi tsiklini boshqarishni avtomatik harakatdagi mexanizmini bunyod etish tushuniladi. Ikkinci bosqich vazifasiga stanoklararo transportda tashish mexanizmlarini bunyod etish kiradi. Bunda mashina va boshqaruvsistemasiining texnologik rejimi o'zgarishini koordinatsiya qilish kiradi. Kompleks avtomatlashtirish ya'ni, uchinchini bosqich deganida ishlab chiqarishni avtomatlashtirilgan boshqaruvsistemasi masalalari texnologik jarayonini boshqarish masalalari va ayrim agregat, stanoklariishi bilan bog'lash uchun hisoblash texnikasini qo'llashni tushuniladi.

Raqamli dasturli boshqaruvsistemasining paydo bo'lishi avtomatlashtirishning yanada rivojlanishiga olib keldi. Hozirgi vaqtida dasturli boshqaruvli mashina sistemasi ishlab chiqilgan bo'lib uning tarkibida hisoblash texnikasi ham mavjud. Bunday sistemalarini bunyod etilishi ayrim stanoklar ish rejimini eng maqbul tarzda boshqarish, transport oqimlarini, texnologik va ishlab chiqarish uskunalarining yuklanishi va ulardan foydalanishni eng maqbul rejalashtirish, mashina sistemasi ishchanligi haqidagi axborotni yig'ish va aks ettirish va sh.k. larni nazarda tutadi. Bunday sistemalar texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruvsistemasi (TJABS) deb nomlangan. Turli xil texnologik vazifalarni bajaradigan avtomat va avtomatik liniyalar avtomatlashtirishning yagona asosiga ega. Mazmun shundan iboratki, mexanizmlar va boshqaruvsistemasi printsip (tamoyil) lari umumiy ya'ni, unumidorlik, ishonchlilik, iqtisodiy samaradorlik o'zgarishlari, ishlov berish rejimlarini aniqlash va sh.k. larning umumiyligi.

Mashina shu vaqt mukammal hisoblanadiki, bu holatda yuqori unumidorlik (bunda ishlov berish asosiy jarayonga, shakl hosil etishga, nazorat, yig'uv va sh.k. larga sarflangan vaqt unumidor vaqt hisoblanadi) va yuqori sifatga bo'sh vaqlarsiz erishilinadi.

Avtomat va avtomatik liniyalar unumdorligini ta'qiq etish ishlab chiqarishning konkret sharoitida unumdorlik rezervini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari bunday tadqiqotlar mavjud konstruktsiyalarni ekspluatatsiya qilish tajribasi asosida yangi avtomat va avtomatik liniyalarni loyihalash uchun kerak bo'ladigan eng muhim parametrlarni aniqlashga sharoit yaratadi,

Avtomat va avtomatik liniyalarning unumdorligi ishlov berish rejimlari, talab etilgan aniqlik, buyumming boshqa sifat ko'satkichlari, mexanizmlar ishonchliligi bilan belgilanadi.

Eng muhim omillardan bo'lib hisoblanuvchi ishonchlilik bir tomonidan ta'sir etuvchi qator faktorlar, ikkinchi tomonidan texnologik jarayonlar va konstruktiv elementlarning ishchi parametrlari hamda tuzatuvchi ta'sirlarga bog'liq. Ishonchlilik ko'satkichlari miqdorini topish statistik baholash masalasi bo'lib, ancha murakkabdir. Bu masalani hal etish uchun ma'lum miqdordagi kuzatish va o'lchash ishlarini olib borish kerak. Matematik statistika usullari ishonchlilik ko'satkichlari miqdorini aniqlashda qo'l keladi.

Avtomatlashirishning mavjud vositalari ishlab chiqarish texnologik ephchilligini to'liq ta'minlay olmayapti. Ilyning uchun hozirgi vaqtida avtomatlashirishning printsipial yangi yo'llanmasi shakllangan. Ya'ni, universal raqamli boshqaruvi sistemasi bunyod etilgan. Boshqaruvi sistemasining ko'rinishini tanlash texnologik jarayon xususiyatlari, mashinalarni ekspluatatsiya qilish shart-sharoiti bilan shartlanadi. Biroq xohlagan boshqaruvi sistemasi texnologik jarayon ko'rinishidan qat'iy nazar ishning yuqori ishonchliligi, ishlov berish jarayonini avtomatik rostlash, konstruktsiyalarning oddiyligi, xizmat qilishning qulayligi va arzonligi, ko'p sonli texnologik komandalarni bajarilishi kabi talablarga javob berishi kerak.

Adaptiv boshqaruvi sistemasi operator aralashuvlisiz avtomatik tarzda mashina, agregat, stanoklarning eng qulay ish rejimini ta'minlab beradi.

Hozirinch^o adaptiv boshqaruv sistemalari ishl^o chiqarish sharoitida talab etilgan darajadagi samara bilan ishlamayotir. Ishlov berish unumdarligi va buyum sifatini oshirishga oid tadqiqot ishlarini olib borish adaptiv boshqaruv sistemalari va ishlab chiqarishni kopmpleks avtomatlashtirish samaradorligini oshirish imkonlarini topishga yordam beradi. Bunday tadqiqotlarning muhimi imitatcion modellarni yaratishdir.

SANOAT ROBOTLARINING KELAJAGI VA ULARDAN ISHLA³ CHIQARISHDA FOYDALANISHNING AYRIM MASALALARI

Sanoat robotlarini xizmat vazifasi va murakkabligiga qarab (xuddi kompyuterga o'xshab) uch avlodga bo'lish qabul etilgan. Hozirgi vaqtida keng tarzda qo'llanilayotgan sanoat robotlarining birinchi avlodni elektromexanik sistemaga, programma va xotiraga ega bo'lib, teskari aloqa qilish qobiliyatiga ega emas. Koordinatlarni aniqlash mexanik qurilmalar va yuqori aniqlikdagi potentsiometrler yordamida amalga oshiriladi. Birinchi avlod robotlari og'irligi bir necha grammdan bir necha tonnagacha bo'lgan yuklarni surish imkoniga ega bo'lib, eslab qolish qurilmasidagi programma 1024 tagacha harakatni ishga solishi mumkin.

Ushbu avlodga taalluqli robotlarning aksariyati uchta surilish darajasiga hamda richagli tutqich qurilmasiga egadir. Ekspluatatsiya qilinayotgan birinchi avlod sanoat robotlarining richagli tutqich qurilmasi beshta surilish darajasiga ega: gorizontal tekislikda burilish, vertikal tekislikda va o'qi bo'ylab chiziqli siljish, o'z o'qi atrofida burilish va vertikal tekislikda engashish.

Ikkinci avlod sanoat robotlarida operatsiyalarni bajarish ketma-ketligi va koordinatlarni eslab qolish elektron sxemalar yordamida amalga oshiriladi, xotira hajmining kattaligi koordinatlarni raqamlar ko'rinishida qayd qilish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, operatsiyalarning murakkab programma sini tuzishga sharoit tug'diradi. Ushbu robotlar birinchi avlod sanoat robotlariga nisbatan o'ta chaqqonlikka va eslab qolish qurilmasida murakkab programmalarni saqlash qobiliyatiga ega. Bunday sanoat robotlarining bir qismi fotoelektrik va datchikli qurilmalarga ega bo'lib, detalning shakl va holatini asta-sekin qabul etishi mumkin. Ikkinci avlod robotlari juda yuqori darajadagi ainqlikda asosiy uskunalar ishi bilan bir xil sharoitda ishlay oladi. Raqamli programma

bilan boshqariladigan * sistemaniig yuqori ishonchilik * darajasi ularning uzoq vaqt to'xtamasdan ishlashini ta'minlaydi.

Bunday avlodga mansub robotlar uskunalarni boshqarishda, yig'uv ishlarini avtomatlashtirishda, ishlab chikarishning ayrim uchastkalarida o'rtacha malakadagi operatorlarni almashtirishda hamda boshqaruv jarayonini avtomatlashtirishda qo'llanilishi mumkin. Ularning yuk ko'tarish qobiliyati 10 kg va undan ortiq bo'lib, soddalashtirilgan qayta sozlash sistemasiga, avtomatik qayta programmalashtirish qobiliyatiga, tashqi muhit o'zgarishlarini qabul etish va ayrim xolatlarda ko'rish xususiyatiga ham ega. Ulardan turli xii ishlab chiqarish sharoitlarida foydalanish mumkin.

Uchinchi avlod robotlari esa ayrim xis tuyg'u xislatlariga, teskari aloqa qurilmasiga, ma'lum hajmdagi logik (mantiqiy) qurilmaga ega. Bu, o'z navbatida, konkret shart – sharoitga qarab u yoki bu echimni qabul etishga imkon tug'diradi. Kompyuterga bog'langan boshqaruv sistemasiga ega mustaqil tutqichga olinayotgan detal yoki buyum shakli, o'lchami va xolatiga qarab o'z xatti harakatini koordinatsiya qilishi mumkin. Uchinchi avlod robotlari o'zida kompyuter va ish bajaruvchi mexanizmning xislatlarini aks ettirib, faqat ayrim ko'rinishdagi buyumlarga ishlov berib, yig'ib va sinabgina qolmasdan, bir necha gruppali uskunalarni boshqarishi ham mumkin. Uchinchi avlod robotlaridan foydalanishda texnika xavfsizligining ma'lum qonun qoidalariga rioya qilish kerak. Xavflilik darajasi ko'proq robotning o'lchami, yuk ko'tarish qobiliyati, boshqaruv sistemasiga bog'liq.

Uncha katta bo'limgan og'irlikdagi zagotovka va detallarni ko'tarish va ularni o'matish uchun mo'ljallangan robotlar jiddiy xavf tug'dirmaydi. Biroq sanoat robotlarini ishlab chiqarishda ekspluatatsiya qilinayotganda (yuqori tezlikda ishlanganda) ularning surilish qismlari inertsiyasi ishlab chiqarish travmasiga olib kelishi

mumki*. Bu xolat ayniqsa turtib chiqqa* tutqichli robotlarda ko'p uchraydi.

Katta yuk ko'taruvchi va yuqori tezlikda ishlovchi robotlar bilan ishlaganda ham ma'lum darajadagi texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish zarur. Masalan, ma'lum masofani saqlagan xolda muhofaza tutqichlarni o'rnatish, robotning o'ta tez harakatidan kelib chiqadigan va operatorga salbiy ta'sir etadigan xis tuyg'ularning oldini olish maqsadida muhofaza ekranlari o'rnatish va hokazolar. Robotlar nazorat o'lchov qurilmalarini va ishlab chiqarish xolatini boshqarishi, ombor xo'jaligida maxsulotlarni hisob kitob qilishi, ayrim konstrukturlik ishlarni bajarishi, xirurglarga yordamlashishi, kosmik va suv osti tadqiqotlarida kompyuter bilan birga qatnashishi mumkin.

Robototexnikani joriy etishda robotlar xaqiqatdan ham texnologik jarayonning ajralmas qismiga aylanishi uchun ularning konkret ishlab chiqarish sharoitini dastlabki taxlidan o'tkazish kerak. Bunda robotning faqat asosiy parametrlarinigina (yuk ko'ta rish, pozitsiyalash aniqligi, siljish darjasи, uzatgich ko'rinishi, richagli tutqich va boshqa qurilmalar ko'rinishi hamda ularning siljish tezligi), ayrim harakat va boshqaruв sistemalarining bir –biriga mosliginigina emas, balki avtomatlashtirish va turli xil uskunalarning foydalanish darjasи, texnologik tsiklning bir xilligi va davomiyligini, energiya manbai, robot va boshqa uskunalarni joylashtirish imkonи, uskunalarga ta'siri, robotni yuklashning taxminiy rejasi, buyum o'lchamlarining o'zgarish chastotasi va ularning seriyasini ham hisobga olish kerak.

Ishlab chikarishda robot va robotlashtirilgan komplekslarni qo'llashdan oldin albatta texnologik jarayon kartasidan foydalanib tekshiruv o'tkazish lozim.

Robotlashtirishda texnologik kartaga tegishli axborotni tekshirishdan tashqari sotsial iqtisodiy va sotsial psixologik faktorlarni (mehnat unumдорligining oshishi, shart – sharoitning yaxshilanishi,

robototexnika vositalari joriy chalishini ishchilar tomonidan qo'llab quvvatlanishi) ham hisobga olish kerak. Bularning hammasi ishlab chiqarishni robotlashtirishda kerak bo'ladigan hujjat tayyorlashning birinchi bosqichiga kiradi.

Ikkinchisi bosqichda robotlashtirish uchun tanlangan ob'ekt sinchiklab tekshiriladi. Mazkur bosqichda faqatgina texnolog robototexnikani emas, balki konstruktor mehanik hamda robot va uskunalararo aloqa bog'laydigan mutaxassis ham qatnashadi.

Robotlarni aniq ish joylarida qo'llash maqsadga muvofiq, ekanligini xal etuvchi faktorlar quyidagilardir:

1. Nomenklaturasi o'zgarib turadigan detallarni ishlab chiqarish mumkinligi va texnologik jarayonning yuqori darajadagi mo'tadilligi.

2. Mehnat unumdarligining oshishi. Mehnat unumdarligining oshishini katta vaqt oralig'ida (eng kami bir oy) taxlil etish kerak. Chunki robotning siljish tezligi odamning siljish tezligiga qaraganda ancha past, shuning uchun unumdarlikdagi yutuq faqat unumsiz sarflanuvchi ish vaqt hisobiga sodir bo'lishi mumkin.

3. Texnologik jarayonni mo'tadillashtirish va bir turdag'i hamda xavfli operatsiyalarda inson xatosini yo'qotish evaziga tayyorlanayotgan maxsulot sifatini oshirish. Sanoat robotlari (SR)ga quyidaqi talablar qo'yiladi:

1. Zarur harakatlarni amalga oshirish. Ko'zda tutilgan harakatlar sonini oshirib ko'rsatish, o'z navbatida, texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir etadi. Har bir harakat darajasini noto'g'ri hisoblash yoki tasavvur etish sanoat robotlarini o'rtacha hisobda 5—6 foizga qimmatlashib ketishiga olib keladi, chunki bunday xolda qo'shimcha uzatgichlarga ehtiyoj tug'iladi.

SRning hozirgi zamон konstruktsiyalarida asosan pnevmatik, gidravlik, elektromekanik uzatgichlar va ularning birligida qo'shimchadan foydalilanadi. SRni gidravlik va elektromekanik uzatgich bilan boshqarishda odatda mikroprotsessor va mini kompyuter

ishlatiladi. Bu esa, Φ 'z navbatida, robotlarning o'ta həşəkatchanligini, ishonchliligi, murakkab harakatlarni bajara olish imkonini yaratadi va xotirasida ko'p miqdordagi programmani saqlab qolish imkonini beradi.

2. Robotlarni berilgan og'irlilik, geometrik shakl va o'lchamdagagi tayvor buyum, detal va zagatovkalar bilan ta'min etish. Sanoatda qo'llanib kelinayotgan pnevmatik uzatgichli sanoat robotlarining yuk ko'tarish qobiliyati bir necha grammdan 15 kg gacha, elektromexanik uzatgichli SRlarining yuk ko'tarish qobiliyati bir necha yuz grammdan yuz kg gacha, gidravlik uzatgichli SRlarining yuk ko'tarish qobiliyatini esa 10 kg dan bir necha tonnagachadir.

3. Zagatovka va detallarni kerakli mo'ljalga o'rnatish aniqligini ta'minlash. Ushbu talab texnologik jarayon xususiyatlari bilan belgilanadi.

Pnevmatik uzatgich bilan ishlaydigan SRlarda ish bajaruvchi mexanizmlarning ishlash aniqligi yuqoridir (xatolik 0,05—0,1 mm). Gidravlik va elektromexanik uzatgich bilan ishlaydigan SRlarida ish bajaruvchi mexanizmlari ishlashidagi yo'l qo'yiladigan xatolik o'rtacha 1—2 mm ni tashkil etadi. Ish baja ruvchi mexanizmlar aniqligini oshirish uchun maxsus, nazorat sistemalari qo'llaniladi.

Ish bajaruvchi mexanizmlar aniqligini va uzatgichlar dinamik xarakteristikasini oshirish sanoat robotlari tannarxini oshirishga to'g'ri proportsional bog'liqdir. Shuning uchun ushbu parametrga bo'lgan talabni texnologik jarayon parametrlariga mos ravishda qo'yish kerak.

4. Kerakli siljish tezligini ta'minlash. Pnevmatik uzatgich bilan ishlovchi SR eng yuqori tezlikka ega. Bunda uzatgichli robot manipulyatorining chiziqli tezligi 1 mG's, burchakli tezligi $360^\circ/S$ ni tashkil etishi mumkin. Pnevmatik uzatgichli SRning yuqori tezligi ularni og'irligi uncha katta bo'lмаган detallar bilan ishlashga imkon beradi. Gidravlik uzatgichli sanoat robotlari manipulyatorining

chiziqli tezligi $4,5$ 1 mG's ni, burchakli tezligi 120°S ni tashkil etadi. Elektromexanik uzatgichli SRLari manipulyatorining tezligi birmuncha kam bo'lib, chiziqli tezligi $0,8\text{ mG's}$, burchakli tezligi 90°S gachadir.

5. Boshqa bir turdag'i detalni ishlab chiqarish uchun SR programmasini o'zaqtirishga sarflanuvchi vaqtning kamaytirilishi. Ushbu ko'rsatkich robototexnologik kompleksning haqiqiy unumdonligiga ta'sir etuvchi asosiy faktorlardan biridir.

Programmalashtirish pozitsiyali boshqarish qurilmalari manipulyator koordinat sistemasida nuqtalar bo'ylab hamma surilish darajasi bo'ylab amalga oshiriladi. Shuning uchun programmani ishlab chiqish va sozlashi murakkab bo'lib, unga sarflanuvchi vaqt bir necha minutdan bir necha soatgacha tashkil etishi mumkin. Programmlar to'plami mavjud bo'lsa, qaytdan pro qrammalash yozib qo'yilgan programmalardan keragini tanlab olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Quri'ma xotirasidan kerakli programmani tanlab olishga odatda bir necha sekund vaqt sarfla lanadi, xolos.

Konturli boshqaruv sistemasi esda saqlab qolish qurilmalari asosida amalga oshiriladi. Programmalashtirish o'qituv rejimida manipulyator ish organini kerakli traektoriya bo'ylab operator yordamida yurg'izib bajariladi. Bir vaqtning o'zida kesish asbobining ishga tushishi yoki texnologik uskunani to'xtatish haqidagi buyruqlar ham programmaga kiritilishi mumkin. Programmalashtirish tezligi texnik vosita va operator malakasiga bog'liq.

Sanoat robotlarining guruxli qo'llanilishida programma tayyorlashga sarflanadigan vaqt kompleks yoki liniya, qurilmalarni boshqaruv sistemasi umumiyl strukturasiga bog'liq.

6. Sanoat robotlarining texnologik ishonchliligini oshirish. Bu masala SR asosida bunyod etiluvchi avtomatik kompleks va liniyalarning yuqori samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Robotlar ishonchliligi robototexnologik kompleksga kiruvchi uskunalar ishonchliligidan past bo'lishi kerak emas. Chunki robotning tez-tez

ishdan chiqib turishi hamma kompleksning ishsiz turib qolishiga vib keladi.

Ishlab chiqarilayotgan SRlarning to'xtovsiz ishlash vaqtı 120—1000 soatni tashkil etadi. Kapital ta'mirgacha bo'lgan xizmat muddati 3 — 6 yil. Eng ishonchli robotlar pnevmatik uzatgich bilan jixozlangan robotlardir. SRlarning ishdan chiqishiga boshqaruv sistemasi hamda mexanik qismlarining nobopligi, moslama, asboblarning noto'g'ri tanlanishi, programmalashdagi xatoliklar sabab bo'lishi mumkin.

7. Ishlab chiqarish maydonlarining kam talab etilishi. Robotlar konstruksnyasini tanlashda uni ekspluatatsiya etish mobaynida kerak bo'lgan qulaylikni ham e'tiborga olish kerak.

8. Sanoat robotlari va ularni jixozlashga sarflanuvchi harajatlarning kam bo'lishi. SRlar harajatining ko'pligi odatda uning qo'llanilishini chegaralab kelayapti. Hozirgi vaqtda pnevmatik uzatgich bilan jihozlangan oddiy robot uchun sarflangan harajat 5 — 10 ming so'mni, gidravlik va elektromexanik uzatgichlar bilan jihozlangan robotlar uchun esa 40 ming so'mni tashkil etadi. Robotlar qimmati ma'lum miqdorda uni boshqaruv sistemasi qimmati bilan belgilanadi.

SRlarni joriy etish samaradorligi, o'z navbatida, detallarga gruppa tarzida ishlov berishga, uskunalarini to'liq tarzda detallar bilan ta'minlashga (ikki smenada) bog'liqdir. SRlarni joriy etishda sanoat korxonasining istiqbolli taraqqiyotini ham hisobga olish kerak.

SR larni va texnologik uskunalarini joylashtirish konkret ishlab chiqarish xususiyatiga bog'liqdir. Mexanika tsexlari dagi ishlab chiqarish quyidagi xususiyatlar bilan belgilanadi:

— tashkiliy ko'rinishlarning turli tumanligi — bir va bir necha predmetli potok liniyalar, guruxli uchastkalar, raqamli programma bilan boshqariladigan stanoklar va ularga bog'langan kompyuter bilan jihozlangan uchastkalar;

- texnologik potokdagisi ishlov berilayotgan detallar og'irligining bir xilligi, metall kesish stanoklari, uskuna, moslamalarning turli xilligi, nazorat operatsiyalarining ko'pligi;
- texnologik jarayonlarga slesarlik va qo'l yordamida amalga oshiriladigan boshqa operatsiyalarning qo'shilishi.
- xomaki operatsiyalarda xosil bo'ladigan qirindilarning ko'pligi.

Mexanik ishlov berish sanoatida bir va ikki manipulyatorli maxsus va universal SRlari qo'llaniladi. Manipulyatorlar surilish masofasi 300—1000 mm, surilish tezligi 0,5—1 mG's, pozitsiyalanish xatoligi 1 mmgacha. Maxsus va universal SRlari (turli xil yuk ko'taruvchi) stanok oldiga, maxsus SR (5 kg gacha yuk ko'taruvchi) to'g'ridan—to'g'ri stanokka, suriluvchan SRlari esa polga o'rnatiladi, SRlari bir necha stanokka xizmat qilishi mumkin.

Mexanik ishlov berish sanoatida zagatovka va detallarni olib yurish uchun turli xil texnik vositalar, aravachalar, robot karalar qo'llanilishi mumkin.

Yirik mashinasozlik korxonalarida robototexnika bilan jiddiy shug'ullanishni hayot taqozo etmoqda. Ana shunday korxonalarda robototexnika bo'limlari tashkil etilmoqda. Robototexnika bo'limining vazifasiga quyidagilar kiradi: SRlarning asosiy texnologik uskunalarini va ularning modeldarini aniqlash; robototexnologik kompleksda ishlov detallari nomenklaturasini tanlash; robotlashtirilgan texnologik jarayonlarni ishlab chiqish; SRlar uchun boshqaruva programmalarini hisoblash va joriy etish; SRlarni maxsus texnologik moslamalar bilan jihozlash va tashqi muhitga tegishli aloqalarni o'rnatish ishlab chiqarishga sanoat robotlari va robototexnologik sistemalarni joriy etish; hamma texnologik bo'limlar ishini muvofiqlashtirish; elektron uskunalar, dasturchilar va sozlovchi kadrlarni tayyorlash; sistematik tarzda robototexnika vositalaridan foydalanishni nazorat ostiga olish va shu kabilar.

Hozirgacha kunda robot, ishlov beruvchi markaz, raqamli programma bilan boshqariluvchi stanoklarni ishlab chiqarish va joriy etish bilan shug'ullanmayotgan biron bir yirik zavod, korxona ilmiy tekshirish instituti yoki oliy o'quv yurtini topish qiyindir. Faqt texnikaviy masalalarga xal etilayotgan dastlabki vaqtarda bunday shug'ullanish to'g'ri deb topilgan va bundan boshqa yo'l yo'q edi. Hozir esa ushbu soxadagi hamma faoliyatni koordinatsiyalash va eng keraklisini ishlab chiqarishga joriy etishdagi samaradorlikni tekshirish vaqt etib keldi.

Bir narsani ochiq, aytish kerakki, robot, ishlov beruvchi markaz, raqamli programma bilan boshqariluvchi stanoklar baxosining yuqoriligi, ularni joriy etish masalasi yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, ishlab chiqarilayotgan maxsulotni arzonlashtirish o'rniga, aksincha, qimmatlashishiga olib kelmoqda. Boshqacha so'z bilan aytganda, yangi texnikaga qo'yilayotgan talab hamma vaqt ham bajarilayotgani yo'q.

Robot va boshqa yangi texnikalarniig baxosi yuqoriligin oqlash maqsadida uni bunyod etuvchilar yangi texnikadan olinishi mumkin bo'lgan iqtisodiy samarani aniqlash metodikasining mukammallahmaganini bahona qiladilar. Bir tomondan, bu ham to'g'ri. Mavjud metodikalar ishlab chiqarish tsiklining qisqartirilishini, aylanma vositalarning siljish tezligini, yangi maxsulotga ishlov berishga o'tishda mahsus moslamalar va uskunalarini almashtirish uchun sarflanadigan harajatlarning iqtisod qilinishi va shu kabi qator afzalliklarni e'tiborga olmaydi.

Biroq har qanday mukammal metodika bunyod etilgani bilan eng asosiy masala yangi texnikaning qimmatligi masalasi xal etilmagan bo'lur edi.

Nima qilish kerak? Bu texnika hali uzoq vaqt qimmatligicha qolishi mumkin. Yangi texnikani qo'llamaslik esa mumkin emas, bu zamon, hayot talabidir. Yangi texnika son-sanoqsiz korxonalarga kirib borar ekan, foyda o'rniga zarar keltirsa, korxonalarini yangi texnika

bilan 2ayta qurollantirish, fan va texnikas taraqqiyotini jadallashtirish haqida bo'ladigan gaplar ham shov-shuvdan nariga o'tmay qolaveradi.

Istagan metodika bilan amalga oshirilgan eng oddiy xisob kitoblar ham shu narsadan dalolat berayaptiki, yangi texnikaning hozirgi bahosida ularni bir smenada ekspluatatsiya qilish zarardan boshqa narsa emas. Ko'p hollarda hatto ikki smenali ish ham iqtisodiy samara olishga yordam bermaydi. Faqatgina to'liq uch smenali ishgina hamda butun sutka davomida, dam olish va bayram kunlarida ham ishlagandagina yangi texnika sezilarli iqtisodiy samara berishi mumkin. Bu mulohazani faqat bizning mamlakatimizdagi tajriba emas, balki chet elliq sanovat korxonalarining ish tajribasi ham oglamoqda.

Buning asosiy sababi moslamalarni sozlashda, asboblarni almashtirishda, uskunalarni ta'mir qilishda, zagatovka bilan ta'minlashda va boshqa tashkiliy ishlarni amalga oshirishda sodir bo'luvchi yo'qotuvlarning mavjudligidir.

Bundan shunday xulosa chiqadiki, har bir korxona robot, robototexnologik komplekslarni buyurtirishdan, sotib olishdan oldin moddiy texnika ta'minotini va ishlab chiqarishni tashkil etishning tashkiliy masalalarini jiddiy taxlil etishi va bu haqda jon kuydirishi kerak. Shu narsani amalga oshirish kerakki yangi texnika stanokda ishlovchilar sonini shartli va shartsiz tarzda kamaytirish bilan birga matematik, dasturchi, sozlovchi, elektronika mutaxassislarini ham talab etadi. Demak, kollektiv tarzda foydalanish kerak bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash ham muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ko'p holatlarda yangi texnika bahosi undan olinadigan samaraga qaraganda tezroq o'sib bormoqda. Shuning uchun ham hozirgi vaqtida yangi mashinalarni arzonlashtirish muammosi xal qilinishi kerak bo'lgan asosiy masalalardan bindir.

Halq ho'jaligida fan texnika taraqqiyotini jadallashtirish masalasini xal etishda nozik avtomatlashgan jarayonlar, avtomatik manipulyatorlar va robotli texnologik kompleksni yuzaga keltirish muhim axamiyatga ega. Ishlab chiqarishda bunday sistemalarning yuzaga kelishi aslida fan texnika taraqqiyotida yangi bosqich boshlanganligini bildiradi.

Bir narsani unutmaslik kerakki, asosiy maqsad texnikani sotib olishda emas, balki uni iqtisodiy rivojlantirishning dastagiga aylantirishdadir.

Robotlarni ishlab chiqarishga joriy etishda robototexnikaga kerak bo'lgan texnologik jarayonlarni bosqichlarga ajratish kerak. Ana shundagina eng muhim texnikaviy, iqtisodiy va sotsial muammolarni xal etish tartibini ishlab chiqish mumkin. Birinchi bosqichda bajariladigan ishlarga og'ir jismoniy mehnat bilan bog'liq jarayonlar, jumladan, ortish, tushirish hamda radioaktiv moddalardan foydalaniладigan ishlar; juda yuqori va past haroratda, yuqori namlik va titrash, ifloslangan havo, yuqori darajadagi shovqin, bir turli va dam badam qaytarilib turadigan ishlar; turli xil texnologik, transport va boshqa uskunalarining xizmat vazifasini bajaradigan, uskuna, liniya, uchastkalarni avtomatik tarzda boshqarish ishlari kiradi.

Quyida sanoat robotlari qo'llanilayotgan bir qator ishlab chiqarish jarayonlarini ko'rib chiqamiz.

Quyuv ishlari. Hozirgi zamon sanoat robotlari va avtomatik manipulyatorlar quyulmalarni ishlab chiqishning asosiy jarayonlarida (boshlang'ich materiallarni tayyorlashdan tozalashgacha, termik ishlov berishda, nazorat qilish va sinashda, yuklash va tushirishda transport va ombor ishlarida va hokazo) keng joriy etilmoqda. Quyuv ishlarida robotlarning qo'llanilishini kengaytirish shakl hosil etish, yig'ish, formalarni quyish va shu kabi jarayonlarda boshqaruv sistemasini joriy etish imkonini beradi.

Temirchilik — shtamp ishlari. Halq xo'jaligining turli xil tarmoqlarida presslash vositasida varaqali sovuq shtamp qilish yo'li

bilan har xil shakl ~~va~~ o'lchamdag'i detallar olinadi. Sosiyali va mayda seriyali ishlab chiqarishda zagatovkani shtampga qo'yish va olish ishlari ko'pincha qo'l yordamida amalga oshiriladi. Zerikarli va bir turdag'i bu ishlar, o'z navbatida, travma sodir bo'lishiga olib keladi. Endilikda, shtampga zagatovkani avtomatik tarzda uzatish va shtamplangan detalni olish har xil sanoat robotlari va manipulyatorlar yordamida amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda qo'llanilayotgan robotlar tez harakat qila oladigan uzatgichlar, ishonchli boshqaruv sistemalari, universal yoki tez almashtirish mumkin bo'lgan magnitli, vakuumli va shunga o'xshash tutqich qurilmalariga ega bo'lishi kerak.

Kukunli materiallardan buyum tayyorlash. Kukunli metallurgiya usuli bilan buyum tayyorlashda pressformani pressli uskunaga qo'yish va olish, pressformaning shakl hosil etuvchi yuzalarini moylash, tayyor buyumni pressformadan olish, termik pechga quyish va shu kabi asosi, yordamchi ishlarni bajarishda sanoat robotlari qullaniladi. Bundan tashqari, termoplastik materiallarni qo'yishdagi qator texnologik operatsiyalar hamda yuklash tushirish, joylash, nazorat ishlarida ham robotlardan foydalananiladi.

Payvandlash ishlab chiqarish. Payvandlash ishlab chiqarishida sanoat robotlari, eng avvalo, bevosita payvandlash bo'yicha asosiy texnologik operatsiyalarni bajarishda qo'llaniladi.

~~Universal va massiv sanoat robotlarning~~ ~~masseyli~~ ishlarida amalga oshirishi kerak bo'lgan asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: moslamani texnologik yoki boshqa uskunaga o'rnatish va olish, payvand qilishdan oldin detal va uzellarni yig'ish, detalni payvandlashga tayyorlash, payvandlangan buyumni ish zonasidan olish va uzoqlashtirish, asosiy payvandlash texnologik operatsiyasini bajarish, kerak bo'lib qolsa payvandlash jarayonigacha zagatovka, detalni va payvandlangan buyumni to'g'rilab qo'yish — moslamaga o'rnatish, payvandlangan choklarni tozalash, payvand sifatini nazorat etish, avtomatik yoki potok liniyalari ishini boshqarish va hokazoiai.

Termik ishlab chiqarish. Termik ishlov berishdagi robotlashtirishga oid operatsiyalarning bir qismi 10000S dan oshadigan haroratda sodir bo'l shini hisobga olib tutqich qurilmalarini yuqori haroratda ham o'z parametrlarini o'zgartirmaydigan issiqqa chidamli materialdan tayyorlash kerak.

Termik ishlov berishda sanoat robotlari bajarishi mumkin bo'lgan ishlarga quyidagilar kiradi: buyumni termik ishlov berishga tayyorlash, termik pechga uzatish va joylash, tozalash, qaytarib olish, to'g'rilash, qattiqligi va sifatini nazorat qilish, uskunalar ishini boshqarish va hokazolar.

Mexanik ishlov berish. Mexanik ishlov berishdagi seriyali, mayda seriyali va donalab ishlab chiqarishning asosiy xususiyatlaridan biri mashina vaqtining kamligi hisoblanadi. Mexanik ishlov berishning umumiy tsiklida detallarni kutish va tashishga sarflanuvchi vaqt ushbu detallarni ishlab chiqarishda turgan vaqtining 95 foizini tashkil etadi. Robotlarni qo'llash uskunalardan foydalanish koeffitsientini oshirish, ishlab chiqarish tsiklini qisqartirish, mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Sanoat robotlarining universalligi ularni turli xil metall kesish stanoklarining yordamchi ishlarini avtomatlashtirishda foydalanish imkonini beradi. Ko'pchilik hollarda har bir robot ikki va undan ortiq stanokka xizmat qilishi mumkin. Robotlar yordamida avtomatlashtirilgan oddiy stanoklar ko'pincha unum dorlik bo'yicha mahsus avtomatlardan qolishmaydi va arzonga tushadi. Suriluvchan robotlardan foydalanilganda bitta robot stanoklar gruppasi uchastka va potok liniyalariga xizmat qilishi mumkin.

Mexanik ishlov berishda sanoat robotlari yordamida amalga oshirilishi kerak bo'lgan asosiy va yordamchi operatsiyalarga quyidagilar kiradi: turli xil metall kesish stanoklari va komplekslarga moslamalarni o'rnatish va olish, raqamli programma bilan boshqariluvchi va gruppali universal stanoklarga, uchastka va potok

liniyalarga xizmat etish, zagato kani, asbobni, moslamani o'rnatish va olish, texnologik operatsiyalarni (parmalash, silliqlash, sayqallash va hokazo) bajarishni nazorat etish va sinash, operatsiyalararo va tsex ichidagi transport ishlarini bajarish, texnologik, transport uskunalarini ishini boshqarish va hokazolar.

Robotlashtirilgan potok liniyalar variantidan bir <<Universal 5>> modelli sanoat roboti bazasida tashkil etilgan liniya hisoblanadi. Bu liniya to'rtta Universal 5 roboti bilan jihozlangan sakkizta metall kesish stanogidan iborat. Liniyada bitta robot, ikkita stanokdan iborat sektsiyalar mavjud. Sektsiyalar qabul etish va uzatish qurilmalari bilan bog'langan. Bu liniyada sanoat robotlari quyidagi operatsiyalarni bajaradi: stanoklarni zagatovka bilan ta'minlaydi, kelayotgan zagatovkani ushlab turadi; zagatovkani stanokdan stanokka uzatadi; zagatovkani moslamaga o'rnatishdan oldin fazodagi yo'nalishini to'g'rilab oladi zagatovkani uzatuvchi qurilmaga o'rnatadi va hokazo.

Robotlashtirilgan liniyaning birinchi sektsiyasi MR G6A modeldag'i frezerlash — markazlashgan stanogidan hamda GE61MFA modelli programma bilan boshqariluvchi tokarlik stanogidan, ikkinchi sektsiyasi ikkita 1A616S modeldag'i tokarlik nusxalash stanogidan, uchinchi sektsiyasi 1E61MFA modelli tokarlik stanogi va VT 53 modelli silliqlash stanogidan, to'rtinchi sektsiyasi esa VT 53 modelli silliqlash stanogi va OPW 12,5X70 modelini rezuu ~~o'yinaydi~~ hisoblanadi iborat.

Uchastka ko'rinishida amalga oshirilgan robototexnologik komplekslar, o'z navbatida, epchil ishlab chiqarish sistemalarini joriy etish imkonini beradi, chunki kompleksdagi har bir stanokda turli xil detallarga ishlov berish imkonи tug'iladi. Shunday kompleks uchastkalardan bini TUR 1 hisoblanadi.

Yuzalarni qoplash jarayonlari. Buyumlar yuza qismini metall yoki kukunsimon polimerlar bilan qoplash, galvanika, turli xil usullar bilan bo'yash ishlarida sanoat robotlaridan keng foydalilanadi. Robotlar

buyum yuzasini metallashtirishda yuzani tayyorlash (tozalash, silliqlash va shu kabi), buyumni uzatish va uskunaga o'rnatish, metallashtirib bo'lgandan so'ng buyumni ish zonasidan olish va nihoyat bevosita buyum yuzasini metall bilan qoplash kabi ishlarni bajaradi. Buyum yuzasini qoplash galvanik usuli qo'llanganda esa robotlar uskunalarga xizmat etish, yuzani qoplashga tayyorlash va nihoyat, qoplash jarayonini amalga oshiradi.

Yig'uv ishlari. Yig'uv ishlaridagi asosiy va yordamchi operatsiyalarni avtomatlashtirishda maxsus sanoat robotlari qo'llanilmoqda. Bunday robotlarning qo'llanilishi operatorni juda ko'p jismoniy ishlardan ozod qilib, jarayonning mu'tadilligini ta'min etadi, operator tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklarning oldi olinadi. Yig'uv ishlarini robotlardan foydalanib avtomatlashtirish imkonи buyumlarni uzatishda to'g'ri chiziqli yo'nalish bo'lganda va ularni moslamaga o'rnatishda ko'payib boradi.

Nazorat, transport va ombor ishlarini avtomatlashtirish. Robotlar qator nazorat ishlarini avtomatlashtirishda, qotishma va boshqa materiallar kimyoviy tarkibini taxlil qilishda, namunaviy detallarni nazoratga tayyorlash va ularni nazorat etish uchun uskunalarga o'rnatishda, sinovdan o'tkazishda va shu kabilarda qo'llaniladi.

Sanoat robotlarini ombor xo'jaligida qo'llanilganda detallarni sistematik taxlash, joylashtirish, ularni izlash, belgilangan programma bo'yicha tashish kabi ishlar amalga oshirilishi mumkin.

Umuman olganda sanoat robotlari qurilishda, engil sanoatda, farmatsevtika, pochta xizmati va boshqa tarmoqlarda, ilmiy tadqiqot ishlarida qo'llanilishi mumkin. Masalan, to'qimachilik, sanoatida materiallarni bo'lak – bo'lak qilib tashishda, tikuv materiallarini bir – biriga moslab berishda, tugmachalarni tikishda va pochta yuklarini taxlash, tashishda va hokazolarda. Xizmat etish soxasida robotlar qorovullik, bog'dorlik vazifasini o'tashi, idish tovoq va kiyim kechaklarni yuvishi, benzin tarqatadigan stantsiyalarda ishlashi,

axlatlaⁿⁱ yig'ishi, donalab sotiladigan to^{*}arlarni sotishi, oziq—ovqat buyurtmalarini joylashi mumkin. Robotlar yana yong'inni avtomatik o'chirish sistemasida ishlashi, ko'cha harakati qoidalarini boshqarishi mumkin.

ROBOTOTEXNIK NING O'SISH HOLATI VA ISTIG OLI

Paydo bO'lgan vaqt dan boshlab shu kungacha mavjud robotlarning 10 foizga yaqini mashinasozlikda, 70 foizga yaqini esa mexanik ishlov berishdagi shtampovka va transport ishlarida qo'llanib kelinmoqda. Bunga sabab ushbu jarayonlarda juda ko'p sonli detalni olish va o'rnatish kabi oddiy operatsiyalar mavjud. Boshqa tarmoqlarda robotlarni qo'llash uchun ularning konstruktsiyasini mukammallashtirish kerak. 1985 yilda shtampovka va mexanik ishlov berishda qo'llaniladigan robotlar ulushi 60 foizgacha kamaytirilgan bo'lsa, yig'uv ishlarida esa 20 foizgacha ko'paytirildi. 1990 yilda yig'ish, payvandlash, bo'yash ishlarida qo'llaniluvchi robotlarni 33 foizga etkazish rejalashtirilgan edi. Ammo bu reja amalga oshirilmay qoldi.

Avtomobil zavodida yig'ma konveyer oldida odamlar qanday ishlayotganligini kuzatganmisiz! Uzunligi bir kilometrcha keladigan konveyer bo'ylab oldin avtomobil kuzovi kela boshlaydi. Yo'l yo'lakay uning har ikki tomonidan, tepadan aravachalarda, transportyorlarda yig'ish uchun dvigatellar, g'ildiraklar, boltlar, gaykalar, oynalar, o'rindiqlar, xullas, mashinaning barcha a'zolari birin — ketin tartib bilar kelaveradi. Kuzov o'nlab, yuzlab, minglab uzel va detallar bilan mahkamlanib, bezatiladi, qarabsizki, har minutda bitta mashina tayyor. Avtomobil ketidan avtomobil..

Ularni juda ko'p odamlar — operatorlar yig'adi. Konveyerde ishlovchilarning hammasi ixtisoslashgan. Yig'ishning barcha jarayoni kat'iy taqsimlangan, alohida — alohida operatsiyalarga bo'lingan. Har bir operatsiya bir, ba'zan ikki operatorga yuklangan, uni bir minutda bajarilishi hisobga olingan.

«Minutda — avtomobil» — bu odam har minutda o'ziga topshirilgan operatsiyani boshlashi va tugatishi lozim, degan ma'noni anglatadi. Har minutda bittadan operatsiya. Ikki soat o'tgach, o'n minutlik

tanaffus, keyin yana minutiga bittadan operatsiya xajarish davom etaveradi.

Ming-minglab kishilar mashina, stanoklar, konveyerlar qarshisida ertadan kechgacha turib mehnat qilishadi. Bajariladigan ishning bir xilligi xizmatchini toliqtiradi, aksar, anchagina kuch sarf etishni talab etadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashтирilishi kishilarni bir qator og'ir yumushlardan ma'lum darajada ozod qildi. Lekin bu amalga oshirilgan ishlar jamiyat talabini qondirish nuqtai nazaridan nioxoyatda kamdir.

Mashinalar tobora murakkablashib borayapti. ularni ishlata digan odam mehnati esa xali ham oddiyligicha, malakasizligicha qolmoqda. Ishlab chiqarish tobora mexanizatsiyalashib va avtomatlashтирilip borilaverar ekan, bir xildagi, odamni toliqtiruvchi mehnat turlari ortaveradi. Tajribali va bilimdon tokar biron detalni yasashga kirishar ekan, u avvalo, ishga ijodiy yondoshadi, stanokka xom ashyonni o'zi o'rnatadi, keskichni o'zi charxlaydi, xullas, hamma ishini o'zi bajaradi va nihoyat qo'ling o'rgilsin detalni yaratadi. Albatta, bunday malakali tokar, hamma vaqt qadrlanadi. Biroq son sanoqsiz ortib borayotgan mashinalaru avtomatlardan ham mana shunday ishlash talab qilinadi, boshqacha aytganda, hamma qiziqarli yumushlar mashinalar ga, bir xil, zerikarli ishlar esa odamlar zimmasiga tushmoqda.

Modomiki, odamning ishtirokisiz xilma xil murakkab va aniq ishlarni bajaradigan mashina yaratilayotgan ekan, uni yana bir qator moslamalar bilan jihozlab, zimmasiga yana boshqa vazifalarni yuklash mumkin emasmikan? Masalan, aytaylik, mashina o'z-o'ziga avtomatik ravishda xizmat qilsa—zagatovkani o'zi stanokka o'rntsса, tayyor mahsulotni olib joyiga qo'yса. Nima uchun mana shunday o'z-o'ziga hizmat qiladigan mukammal mashina yaratish mumkin emas?

Mashinalar, stanoklar, turli moslamalarni ishga tushirish, yig'ma operatsiyalarni amalga oshirish ishlari ko'pchilik kuchi bilan bajarilganda sodda va oson ko'rindi. Vaxolanki, xuddi shu ishlarni

Qanaviy usul va vositalar yordamida avtomatlashtirilsa avtomatlashtirish sistemasi murakkablashadi, faqat bir xildagi mahsulotni tayyorlashga moslashib qoladi. Oqibatda mashinaning universalligi cheklanadi, qolaversa, bunday mashinani ishlab chiqarish juda qimmatga tushadi.

Mashinalarni boshqarish operatoridan ziyraklik, chaqqonlik hamda muayyan malakani talab qiladi. Uning ishini avtomatlashtirish uchun odam o'rnini bosa oladigan butun bir maxsus avtomat va robotlar yaratish lozim bo'ladi.

Ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlari bir necha marta qaytariladigan turli operatsiyalar yig'indisidan iboratdir. Davriylikni mashinalashtirilgan, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishning qonuni deyish ham mumkin. Robot ham boshqa avtomatlar singari hajnisha qaytarilib turadigan vazifalarni bajarish uchun moslashtirilgan. Shu jihatdan robot boshqa barcha mashinalarga o'xshaydi.

Ayni vaqtda sanoat roboti turli maqsadlarga mo'ljallangan universal sistemadir. Undan turli stanok va mashinalarni ishlatalishda, turli texnologik jarayonlarni boshqarishda foydalanish mumkin. Dasturli boshqarish sistemasi bilan jihozlangan sanoat roboti, boshqa mashinalar singari, dasturli boshqariluvchi avtomatik manipulyator deb yuritiladi.

Robotning ishchi organi—harakat qiluvchi va yumush bajaruvchi mexanik qo'li odamning qo'liga o'xshaydi. Mana shunisi bilan u boshqa avtomatlardan farqlanadi va odam operator faoliyatiga yaqinlashadi.

Seriiali ishlab chiqarilayotgan robotlar ishchi parametrlarini tahlil qilish yo'li bilan hozirgi zamon sanoat robotlarining ilmiy texnikaviy darajasi xqidagi tasavvurga ega bo'lish mumkin. Eng muhim ishchi parametrlarga yuk ko'taruvchanlik, boshqaruv turi, harakatchanlik darajasi, harakatlanish tezligi, pozitsiya olish aniqligi, uzatgichlar

* ko'rinishi, ishonchlilik, tanixrxi, og'irligi, gabaritlari va hokazalar kiradi.

Sanoat robotlarining tezkorligi etarli emas. Chet ellarda va bizning mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan robotlarning nisbiy taxlili shu narsadan dalolat beradiki, bizning mamlakatimizda robotsozlik umumiy yo'nalishlar va talablarga mos tarzda rivoj lanib bormoqda.

1985 yilda Moskvadagi «Sokolniki» da «Robotokomplekslar 85» ko'rgazmasi namoyish etildi. Bu ko'rgazmada eng murakkab operatsiyalarni bajara oladigan hozirgi zamon sanoat robotlari namoyish etildi.

Ko'rgazmada Bolgariya, Chexoslovakiya, AQSh, Angliya, Avstriya, Yaponiya, Finlyandiya, Frantsiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Shvetsiya, Shveytsariya kabi mamlakatlardan keltirilgan ikki yuzdan ortiq firma stendlarida robotlarning ayrim modellarigina emas, balki ular yordamida bunyod etilgan robototexnologik komplekslar, epchil ishlab chiqarish modullari va sistemalar ko'rsatildi. Masalan, Germaniya ekspozitsiyasida plastmassa va metalldan detal tayyorlaydigan robototexnologik kompleks bilan, Bolgariya ekspozitsiyasida tokarlik stanoklari va ishlov berish markazlariga xizmat ko'rsatuvchi robotlar bilan tanishish mumkin bo'li. Ayniqsa, ~~Chexoslovakiya ekspozitsiyasida~~ namoyish etilgan payvandlash uchun mo'ljallangan robototexnologik kompleks ko'rgazma ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi. Finlar olib kelgan ekspozitsiya ham turli xildir. Jumladan, Nokia firmasi stendida ko'rish qobiliya tiga ega bo'lgan robotli avtomatik sistema bilan tanishish inumkin edi. Avstriya ekspozitsiyasida yuklash tushirish qobiliyatiga ega bo'lgan robot, Yaponiya ekspozitsiyasida «Sanko seyki» firmasida tayyorlangan bo'yash operatsiyasini bajara oladigan, metallurgiya mabsulotini nazorat etishga oid operatsiyalarni amalga oshira oladigan robotlar namoyish etilgan edi.

Ko'rgazda ilmiy texnik simpozium so'lib, unda turli mamlakatlar mutaxassislari robototexnikaning bundan keyingi taraqqiyoti muammolarini taxlil etdilar.

Matbaachi roboti elektron sanoatida andoza asosida chop etish jarayonini avtomatlashtirishga mo'ljallangan. Ushbu robot o'zini o'zi zagatovkalar bilan ta'min etib, chop etiluvchi platalarga turli xil rasmlarni bosadi va tayyor mahsulotni konveyerga olib qo'yadi. Operatsiyalar programmalashtirilgan bo'lib, ish unumdarligini keng miqyosda rostlash mumkin. Matbaachi robotni qo'llash sog'liq uchun zarar bo'lgan zonadan operatorni bo'shatish imkonini berdi.

1980—1985 yillar mobaynida Toshkent traktor ishlab chiqarish birlashmasi zavodida beshta robotlashtirilgan texnologik komplekslar (RTK) yaratilib, ishga tushirilgan:

1. Kichik hajmdagi korpus detallariga ishlov beradigan RTK. Bu detallarning vakili qilib 102B kranning korpusi qabul qilingan. Bu liniya 3 ta raqamli programma bilan boshqariladigan 2R135F2 modelli parmalash stanogi, NT300 modelli tokar yarim avtomatdan, 2G135 stanogidan va 2 ta RB 231 robotidan tashkil topgan.

2. Alyumin qopqoqlarining uch turiga ishlov beradigan liniya, 2 ta 1N713 modelli stanoklardan, 2G175 modelli burg'ilash stanogidan va RB 231 robotdan tashkil topgan.

3. Shlitsali vallarga ishlov beradigan kompleks liniya bitta MR71 modelli stanokdan, 2 ta raqamli programma bilan boshqariladigan tokarli 1717FZ stanoklardan, 2 ta MSh300 T shlitsetokarli stanoklardan va 2 ta R505 robotlardan tashkil topgan.

4. Shponkali pazli va ariqchali vallarga ishlov beradigan liniya MR71M modelli frezerli markazlovchi stanokdan, 2 ta raqamli programma bilan boshqariladigan 1713FZ tokarli maxsus stanokdan va 2 ta R505 robotlardan tashkil topgan.

5. Shponkali va ariqchali vallarga kompleks ishlov beradigan liniya 2 ta MR71M frezerli markazlovchi stanoklardan, 2 ta 1N713

tokarli siⁿnokdan, 2 ta maxsus stanoklardan va 3 ta R505 robotlardan tashkil topgan.

Bu liniyalar mustaqil ishlab chiqarish struktura birligini tashkil qiladigan yagona uchastkaga biriktirilgan. Hammasi bo'lib bu liniyada 14 ta robot, 24 ta stanok bor.

Korxonalarning muvaffaqiyati, uning ekonomikaga, jamiyat turmushining hamma sohalariga samarali ta'siri faqat ilmiy xodimlarning kuch g'ayratlari bilangina ta'minlanishi mumkin emas, albatta. Halq xo'jaligi uchun benixoya katta ahamiyatga ega bo'lgan bu jarayonga ijtimoiy ishlab chiqarishdagi, xo'jalik mexanizmining hamma bo'g'iniaridagi barcha xodimiarni jalb etish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Korxonalar taraqqiyoti xo'jalik faoliyati uslubi va metodlarini tubdan o'zgartirishni, qoloqlikka qarshi keskin kurash olib borishni, fanga chinakam hurmat bilan qarashni, fan axllari bilan hammaslik bo'lib ish yuritishni taqozo etadi.

Ishlab chiqarish birlashmalari va korxonalarining hamma rahbarlari bu talabning nechog'li muhimligini to'la-to'kis anglab olganlaricha yo'q. Tugallangan ilmiy tadqiqot ishlari qoniqarsiz joriy etilayotganini, ilmiy muassasalar va oliy o'quv yurtlari bilan xo'jalik shartnomalari tuzishga xafsalasizlik bilan qaralayotganini, institutlar va oliy o'quv yurtlari bazasida tarmoq ilmiy tadqiqot laboratoriyalarini tuzishdan bosh tortilayotganini, korxonalarda tajriba eksperimental baza vujudga keltirish istagi yo'qligini ko'rsatuvchi faktlar mana shuni tasdiqlab turibdi.

Keynigi vaqtlarda robot, robotlashtirilgan komplekslar, epchil avtomatlashtirilgan sistemalarni korxonalarda qo'llash hayot taqozosi bo'lmay, modaga aylanib qolish xolatlari ham uchrab turibdi.

Robot, robotlashtirilgan komplekslar, epchil avtomatlashtirilgan sistemalar, eng avvalo, har tomonlama taxlil etib chiqilgan korxonalar sharoitida, ishonchli va yuqori unumdar uskunalar asosida

bunyod etilishi va ,*riy etilishi kerak. Ishlab c'iyarishni avtomatlashtirish, o'z navbatida, avtomatlashtirilgan loyixalash sistemasini epchil avtomatlashtirilgan sistema bilan birlgilikda olib borish vazifasini qo'yadi.

Avtomatlashtirilgan loyixalash sistemasini ishlab chiqish korxonani hozirgi zamон hisoblash texnikasi bilan jixozlash va shu asosda programmalar bilan ta'minlashdan iboratdir. Ilg'or texnologiyaga asoslangan epchil avtomatlashtirilgan loyixalash sistemalarini bunyod etish nazariy tadqiqot bilan ishlab chiqarishni birlgilikda qo'shib olib borishni taqozo etuvchi murakkab muammodir.

Shu narsani ishonch bilan aytish mumkinki, kibernetik metodlarning keng joriy etilishi ilmiy texnika taraqqiyotining bosh yo'llanmalaridan biri bo'lib qolmoqda. Kibernetik metodlarning eng muhim modellashtirishdi. Konstruktorlar biron bir mashinani qurishdan oldin uning xarakteristikasini har xil modellarda o'rGANIB chiqishadi.

Matematika tilida tenglamalar yordamida turli xil ob'ektga tegishli jarayonlarni bayon etib, raqamlarda ifodalangach javoblarga ega bo'lish mumkin. Tadqiq etilayotgan jarayonni bu tarzda bayon etish matematik modellashtirish deb ataladi. Hozirgi zamон tadqiqot ishlarida qo'llanilayotgan matematik modellar shunchalik murakkabki, ularni zamонавији yuqori unumli kompyuterlarsiz taxlil etib bo'lmaydi.

Tadqiqotchilar ob'ektda sodir bo'layotgan jarayonlarni matematik modelda qayta-qayta tekshirib ko'rib, jarayonning xolati xaqida to'liq ma'lumotga hamda konstruktsiyaning eng maqbul variantini loyixalash va samarali boshqarish imkoniga ega bo'ladilar.

Matematik modelni joriy etish tarixi yadro energiyasi va kosmik fazoni egallashdek yuksak muammoni hal etishdan boshlangan. Hozirgi kunda ana shu metodlarning amaldagi muhim tatbiqi texnologik jarayonlarni boshqarish, robotlashtirilgan kompleks va epchil

avtomatlashtirilgan sistemalarni ishlab chiqish muammolarini keltirib chiqarmoqda.

Hozircha matematik model ko'proq fizikada mukammal qo'llanib kelinmoqda. Galiley zamonidan boshlab fizika fani aniq fan sifatida taraqqiy eta borib, miqdoriy hisob kitoblar amalga oshirila boshlangan. Tabiatdagi har bir qonun formula bilan ifodalanib, aniq miqdoriy hisoblar olib borilsagina fizik qonun ko'rinishida tan olinadi.

Boshqa ayrim fanlar hali bu darajaga etishganlari yo'q, shuning uchun ham ularning gurkirab o'sishi boshi berk ko'chaga kirib qolmoqda. Misol uchun texnologik jarayonni boshqarish, robotlashtirilgan kompleks, epchil avtomatlashtirilgan sistemalarni olaylik. Texnolog va mashinasozlarning beqiyos katta mehnatini e'zozlagan holda, shu narsani qat'iy e'tirof etish kerakki, mashinasozlik texnologiyasi fani xali aniq va miqdoriy hisoblarga ega bo'lgan fan qatoridan o'rinni olganicha yo'q. Metallarga ishlov berish, texnologik jarayonlarni boshqarish, pochta xizmatini avtomatlashtirish robotlashtirilgan komplekslarni, epchil avtomatlashtirilgan sistemalarni bunyod etish muammolarning taraqqiyot qonuniyatlari xali to'liq tarzda tenglama va formulalarda aks ettirilganicha yo'q. Bunda ko'pchilik tadqiqotchi va injener, texnik, olimlar hisoblash texnikasini ayblaydilar. Vaxolanki, buning asosiy sababi hisoblash ~~mashinasozligina omras halki hayotiy matematik modellarning ishlab chiqilmayotganligidir~~. Shuning uchun ham matematik modellarni ishlab chiqishni hayot taqozo etmoqda.

Ko'pincha matematik modelni ishlab chiqib, uning asosida hisoblash tajribalarini olib borish matematiklar vazifasi degan mulohazani eshitish mumkin. Model va tenglamani mutaxassischalik yaxshi tushunadigan odam kam bo'lsa kerak. Har bir mutaxassis o'z soxasidagi jarayonlarni bayon etishda tajriba manti qidan tulik foydalanishi zarur. Ushbu muammolar to'lig'incha pochta xizmatiga ham taalliuqlidir.

Matematik, fizik, kimyogar, * biolog, texnolog va pochta mutaxassisini bilan hammaslak bo'lib ish yuritgandagina eng yaxshi model yaratiladi, ular bir — birlarini yaxshi tushunishlari, umumiyl til topishlari kerak. Shuning uchun hozir texnika kibernetikasi, meditsina kibernetikasi, qishlok xo'jalik kibernetikasi, kimyo kibernetikasi, mashinasozlik kibernetikasi va hokazo iboralarni eshitish mumkin. O'rta maktablarda, litsey va kasb-xunar kollejlarida oliy o'quv yurtlarida, malaka oshirish kurslarida kibernetik metodlarni, kompyuterlashtirish masalalarini chuqurroq o'rganishga da'vat etilayotganligining sababi ham ana shundadir. Pochta xizmati jarayonlarini chuqur taxlil etish va uning matematik modellarini yaratish navbatdagi vazifalardan biridir.

Robotlashtirilgan kompleks va epchil avtomatlashtirilgan sistemalarni keng joriy etishni intensiv yo'ldan olib borish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish zarur?

Birinchidan, litsey va kasb-xunar kollejlarida, oliy o'quv yurtlarida, malaka oshirish institut va kurslarida kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, robotlashtirish, elektronika kabi mutaxassislikka bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, o'quv jarayonlarini bevosita ishlab chiqarish bilan bog'lab olib borish kerak;

Ikkinchidan, korxonalarda, loyixa konstrukturlik byurolarida, institut va uning filiallarida rahbar hodim, ya'ni bosh injener, bosh texnolog, bosh konstruktor, bosh mutaxassis boshchiligidagi maxsus gurux, bo'lim va laboratoriylar tashkil etish;

Uchinchidan, korxonalardagi texnologik shart-sharoitni taxlil etish uchun tavsiyanomalar ishlab chiqishga mo'ljallangan regional va xududiy guruxlar tashkil etish;

To'rtinchidan, maxsus robot, robotlashtirilgan komplekslarni yaratish, sinash va takomillashtirish bo'yicha tajriba eksperimental tsexini qurish va ishga tushirish;

Beshinchidan, tayyor ro^zot va manipulyatorlarni kere^qli uchastka va tsexlarga o'rnatib, ularni ishlata bila oladigan mutaxassislarni tayyorlash;

Oltinchidan robotlar, robotlashtirilgan komplekslar, epchil avtomatlashtirilgan sistemalarni matematik, o'xshash modellarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan ilmiy laboratoriylar tashkil etish.

Ana shu tadbirlar muvaffaqiyatli amalga oshirilgandagina halq xo'jaligini rivojlantirishning intensiv yo'liga o'tib olish mumkin.

ROBOTOTEJ NIKANING CHET ELDAGI HOLA VI VA TARAQQIYOTI

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarda robotlarni ishlab chiqish va tayyorlash bilan ikki yuzga yaqin firma shug'ullanib kelayapti, jumladan G'arbiy Evropadagi 90 ga yaqin firmada 170 mingga yaqin robotlar ishlab chiqilgan. Chet el mamlakatlari robotlar ishlab chiqarishga 1990 yilgacha, bo'lgan davrga katta kapital mablag' ajratishgan edi. Masalan, AQSh va Yaponiya 1981—1986 yilda 0,5 va 1 milliard kapital mablag' ajratgan bo'lsa, 1986—1990 yilda har bir mamlakat 2 milliardga yaqin dollar ajratgan. Hozirgi vaqtida bitta robotning tannarxi 4 ming dollardan 200 ming dollargacha. Robotlarni ishlab chiqarish va bunyod etish bo'yicha Yaponiya birinchi o'rinni egallab kelmoqda. Dunyodagi mavjud robotlarning 38 foizi Yaponiyaga, 25 foizi AQShga, 22 foizi Frantsiyaga to'g'ri keladi.

Germaniya Italiya, Frantsiya, Angliya va boshqa mamlakatlarda ham sanoat robotlarini ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda.

Sanoat robotlarini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda Yaponiya birinchi o'rinni egallashining asosiy sababi sanoat robotlari bilan shug'ullanuvchi firmalariga katta kapital mablag'lar ajritilganligidadir. Agar bu sohaga 1969 yilda 0,4 milliard yen ajratilgan bo'lsa, 1976 yilda 15 milliard, 1977 yilda 18—20 milliard yen ajratilgan. Sanoat robotlarining bozor narxi 1977 yilda 100 milliard yenni tashkil etgan bo'lsa, 1985 yilda 260 milliard yenni tashkil etgan.

AQSh, Germaniyada ham sanoat robotlarini ishlab chiqarish uchun katta kapital mablag'lar ajratilmoqda. Sanoat robotlarining bozor narhi AQShda 1977 yilda 50 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 1985 yilda 1.400 million dollarni tashkil etdi.

Yaponiyadagi asosiy va yordamchi operatsiyalarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga oid vositalarni uch guruxqa bo'lish mumkin:

— operator yordamida boshqariladigan manipulyatorlar;

- okindan belgilangan dastur asosida³ ishlaydigan va qayta sozlanmaydigan avtomatik manipulyatorlar;
- dastur bilan boshqariladigan va avtomatik tarzda qayta sozlanadigan sanoat robotlari. Bunday robotlar, o'z navbatida, tsiklli va raqamli dastur bilan boshqariladigan robotlarga bo'lindi.

Yapon robotsozlari sanoat robotlarini maxsus texnologik maqsad bo'yicha ishlab chiqaradiilar. Hatto universal sanoat robotlari buyurtmani talab etgan qo'shimcha qismlar bilan jihozlanadi.

Juda ko'p jahon firmalari Yaponiya ishlab chiqarayotgan sanoat robotlariga qo'shimcha talablar qo'ymoqdalar, jumladan, robotlar baxosini kamaytirish, konkret operatsiyalarni bajara oladigan va gruppera robotlarni kompyuterlar orqali boshqara oladigan qurilmalarni ishlab chiqarish, robotlarning epchil qo'llarini tayyor lash, robotlarni kerakli pozitsiyaga surib qo'ya bilish; robotlarning xotira hajmini oshirish, boshqaruv sistemasi va ayrim qismlar ishonchligini oshirish, robotlarda rangni, predmetlar holati va shaklini aniqlash; sanoat robotlari turlarining texnikaviy xarakteristikasini standartlashtirish; avtomatlasingirilgan omborlar ishlab chiqarish uskunalari bilan bog'langan komplekslarni ishlab chiqish; robotlar yordamida buyumlarni joylash va taxlash ishlarini bajarish va hokazolar.

AQShda ishlab chiqarilayotgan dasturli birinchi avlod robotlarning imummu qurilmasi 1977 — 33 — 1985 yilda esa 370 million dollarni tashkil etgani.

AQShda sanoat robotlarining uch xil ko'rinishi seriyali ishlab chiqarilmogda:

- tik oyoqda turib ishlaydigan odamni almashtira oladigan robot (ish zonasasi 10 m³ va undan katta);
- o'tirib ishlaydigan odamni almashtira oladigan robot (ish zonasasi 1 — 1,2m³);
- eng aniq yig'uv va o'lchov operatsiyalarini bajaradigan robot (ish zonasasi 0,01—0,1m³).

2000 yilda sanoat robotining umumiy soni 45000 dona. 1 tashkil etdi.

G'arbiy Evropa mamlakatlari sanoat robotlari. G'arbiy Evropada birinchi sanoat roboti 1963 yilda Shvetsiyada tayyorlangan 1973 yilda Shvetsiyada 200 dan ortiq sanoat robotlari ekspluatatsiya qilingan. Shvetsiyada hammasi bo'lib sanoat robotlarini ishlab chiqsa rish bilan sakkizta firma band bo'lib, 900 taga yaqin sanoat robotlari ishlab chiqarildi, ularning 300 ta dan ortig'i Shvetsiya zavodlarida ishlatilmokda. Shvetsiya bir million aholi jon boshiga to'g'ri keladigan robotlar soni bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Bu ko'rsatkich Yaponiyada 19ga, AQShda 7 ga tengdir. 1980 yil ning oxirida Frantsiyada 500 ga yaqin, Italiyada 400 dan ortiq, Angliyada 371 ta, Germaniyada esa 1133 ta sanoat roboti ekspluatatsiya kilingan.

1981 yil may oyida Angliyada birinchi marta robotlashtirilgan va avtomatlashtirilgan yig'uv uskunalarini bo'yicha ko'rgazma o'tkazildi. Parallel tarzda yig'uv ishlarini avtomatlashtirish bo'yicha ikkinchi Halkaro konferentsiya o'tkazildi. Bu konferentsiyada Angliya, AQSh, Germaniyada yig'uv ish larini avtomatlashtirish, yig'uv mashinalarini konstruktsiyalash, programma asosida ishlaydigan manipulyatorlarga qo'yildigan talablar muhokama etildi.

Angliyada 180 ga yaqin firma sanoat robotlaridan foydalaniadi. Sanoat robotining o'rtacha bahosi 25000— 50000 funt sterlingdir.

Shvetsiya sanoat robotlari mayda seriyada ishlab chiqarishda yuqori unumdorlikni ta'min etish uchun ko'pincha kompyuter bilan jihozlangan bo'ladi. Robot kompyuter bilan aloqada bo'lib, raqamli programma bilan boshqariladigan stanok o'rtasiga joylashtiriladi va undan detallarni yuklash, tushirishda bir stanokdan ikkinchi stanokka uzatishda foydalilanadi.

Avstraliyalik mutaxassislar qo'y yungini olish jarayonini robotlarga havola etdilar. Elastik tutqichlar qo'yni osoyishta ko'tarib, elektr qaychili manipulyator tagiga qo'yadi. Hozircha robotlar insonga

nisbatan to'rt marta tekkin ishlasalar ham, biroq kun bogyi to'xtamay ishslash qobiliyatiga egadirlar.

Ilmiy texnika inqilobi o'ziga xos muammolarni keltirib chiqarmokda, shulardan eng asosiysi ijtimoiy muommolardir.

Ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalar qo'llanmokda. AQSh, Yaponiya, Germaniya va G'arbiy Evropaning boshqa mamlakatlari korxonalarida robotlar odamlar o'rnini egallamokda. Odamlarchi? Ko'pchilik xollarda ishsizlik namoyon bo'lmoqda. Ilmiy texnika taraqqiyoti mehnatga layoqatli aholining AQShda 8,5 foizi va G'arbiy Evropada 11 foizini boshqa ishga o'tishiga sabab bo'lmoqda. Sotsioloqlar nuqtaiy nazaricha, avtomatlashtirish oqibatida sodir bo'layotgan ishsizlik muammosini ham xal etish kerak. Keyingi vaqtarda g'arb matbuotida ilmiy texnika taraqqiyotining ijtimoiy oqibatlari bilan kurashishning yangi yo'li zo'r berib qidirilmoqda. Sanoatda yo'q qilinayotgan ishchi o'rinaliga maishiy xizmat ko'rsatish soxasida joylar tayyorlanayapti.

Yaponiya sanoat kompaniyalari korandalikni qo'llab kelmoqdalar. Ya'ni, ikkinchi darajali ishchilardan vaqtinchalik ishlarda foydalanmoqdalar.

ROBOTLAR BOSHQARUV SISTEMALARINING TAXLILI

Hozirgi vaqtida sanoatimizda sanoat robotlarining boshqaruv sistemalarida mikroprotsessor va kompyuterlar qo'llash ishi jadal sur'atlar bilan olib borilmokda.

Sanoat robotlarini boshqarishda uchta variant bor: tsiklli, pozitsiyali va konturli variantlar. Mamlakatimizda har bir variantdagi boshqarishni ta'minlovchi texnik vositalar seriyali ishlab chikarila boshlandi. Endigi asosiy masala boshqarishga mo'ljalangan texnik vositalarni ko'plab ishlab chiqarish va uning ishonchlilik darajasini oshirishdir.

Robototexnikada mikroprotsessor va kompyuterlarni qo'llash robotlarni va texnologik komplekslarni gruppali boshqarishdagi murakkab boshqaruv masalalarini xal etish imkonini beradi. Mikroprotsessor va kompyuterlarning qo'llanilishi, o'z navbatida, robotlarni boshqaruv sistemasi ishonchliligin oshirish, axborotni real vaqt masshtabida qayta ishlash, tsiklli, pozitsiyali, konturli rejimlarda robot harakatini programmalash tezligini ta'minlaydi. Biroq bularning hammasini programmali ta'minotni bunyod etmasdan, inson operator bilan bo'ladigan muomalani programmalashtirmasdan turib amalgalash oshirib bo'lmaydi. Hozirgi davrda mikroprotsessor va kompyuterlarni qo'llash yo'llidagi xal etilishi kerak bo'lgan muhim masalalardan biri programmali ta'minot masalasıdır.

Robototexnologik komplekslar uchun boshqaruv sistemasini bunyod etishdagi eng perspektiv usul konkret robototexnologik kompleks strukturasi va uning oldiga qo'yilgan masalani xal etish maqsadida buyurtma mikroprotsessor vositasini ishlab chiqish hisoblanadi.

Mashinasozlikdagı texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish vositalarining taraqqiyot tarixida boshqaruv programmasi sistemasini joriy etishning ikki yo'li yaqqol ko'zga tashlanadi: universal

* vositalardan foydalanish va maxsus sistemalarni bunyod etish. Universallik boshqaruv masalasining murakkabligi, turli xil uskunalarga o'rganish kerakligi va sistemani ishlab chiqish vaqtini qisqartirish bilan bog'liq. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishda programmalash vositalarini ishlab chiqishning o'sa borishi, o'z navbatida, elektronikada ishlab chiqarishni elementlar bazasida avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan maxsus yo'llanmani bunyod etilishiga olib kelmoqda.

Robototexnologik sistemani ekspluatatsiya etish sharoitiga moslashgan boshqaruv sistemaning mexanik, elektrik, elektromexanik, gidromexanik, o'ichovchi, signalli qurilmalarning yagona sistemadan iborat ekanligi robototexnikaning boshqarish sistemasiga bo'lgan maxsus talablarni keltirib chiqaradi.

Elektronikaning mavjud elementlari tezligi (taktli chastotasi 100 mgs gacha) ko'p surilish darajali (7 va undan oshiq) mexanik sistemalarni raqamlar yordamida real vaqt masshtabida boshqarish uchun etarli emas. Maxsus mikroprotsessorlarning qo'llanilishi boshqarishdagi mavjud chegaralarni olib tashlash imkonini beradi.

Robototexnologik sistemalardagi boshqaruv aniqligi axborot datchiklarining imkonи va aniqligiga, mikroelektron element bazalarining ishonchliligi sanoat robotlarini boshqarish sistemasidagi ishonchlilik darajasiga bog'iqar. Robototexnologik sistemalarni to'xtab qolishi yoki xatolikka yo'l qo'yishi, o'z navbatida, ishlab chiqarish programmasining bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hisoblash texnikasi nuqtai nazardan olganda boshqaruv sistemasining titrash, ifloslangan havo, harorat, namlik, elektromagnit holati ta'sirida ishlashi salbiy oqibatlarga olib kelishini ham nazarda tutish kerak.

Har bir robototexnologik sistemaning ishonchli ishlashi uchun tashqi muxit salbiy ta'sirining oldini olish hamda uskunalar elementlarini diagnostika qilish maqsadida mahsus choralarни ko'rib chiqish kerak.

ISHLAB CHIQLARISHNI ROBOTLASHTIRISHNING IQTISODIY VA IJTIMOIY MASALALARI

Sanoat korxonalarini robototexnologik sistemalar asosida texnik jihatdan qayta qurollantirishda yangi texnika samaradorligini aniqlaydigan metodika va yo'riqnomalarni hamda ijtimoiy faktorlarni hisobga olish ishlarini mukammallashtirish talab etilmoqda. Yangi texnikani joriy etishning ijtimoiy iqtisodiy samarasi ikki ko'rinishda — ijtimoiy masalani xal etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasini oshirish, mehnatni qisqartirishga olib keluvchi ishlab chiqarish vositalarini buniyod etish, o'z navbatida, yangi resurslarni ishga solishni, yangi texnikani joriy etish va uni ommaviy tarzda tarqatishni taqozo etadi. Yuqori darajada mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilga ishlab chiqarishni tushirib bo'lgandan keyingina oshirilgan resurslarning harajati o'zini oqlashi mumkin. Birinchi bosqichda mehnat hajmini kamaytiruvchi yangi texnikaning keng joriy etilishi asosiy fondlardan olinadigan samaraning vaqtinchalik kamayishiga, sanoat mahsuloti tannarxining o'sishiga olib keladi hamda iqtisodiy samaraga keskin ta'sir etadi. Robototexnologik sistemani joriy etishda eskirgan uskunalar yangisi bilan almashtiriladi, natijada korxona boshqa sifatdagi mahsulot ishlab chiqarishga o'tadi, mehnatining mazmuni va shart — sharoiti o'zgaradi.

Eski va yangi texnikani qo'llashning natijalarini o'zaro taqqoslash juda murakkab ish. Chunki sifat jihatdan yangi ko'rsatkichlar sodir bo'lib, bu ko'rsatkichlardan korxonani texnikaviy qayta qurollantirish ishidagi ijtimoiy iqtisodiy samarani aniqlashda foydalanish qiyin masaladir.

Agar jamoat manfaati nuqtai nazaridan aniqlangan talab va resurslar (mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha olingan buyurtma,

mehnat fachiyati sharoitiga oid normativlar) hisobga olinsa, u holda birlashma yangi texnikani joriy etish samaradorligi topshirilgan buyurtma va normativlarning bajarilishi bilan ifodalanadi. Demak, yangi texnikani shunday tanlash kerakki, qo'yilgan talablar eng kam resurslar harajati bilan amalga oshirilishi kerak.

Solishtirish yo'li bilan aniqlanuvchi variantlarda robotlarni bunyod etish va ekspluatatsiya etish bilan bog'liq bo'lgan hamma harajat va foydalar hisobga olinadi. Bunday hisob kitoblar ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirishning iqtisodiy afzalliklarini ro'yogba chiqarishni mushkullashtiradi.

Sanoat robotlarini joriy etishni tezlashtirish uchun, bu hayrli ishga oid hodimlar ishlab chiqarishni robotlashtirishda faol ishtirot etishlari, moddiy va ma'naviy qiziqishga ega bo'lislari lozim.

Real hayotda esa sanoat robotlarini joriy etishga sarflanuvchi harajat bilan undan olinadigan konkret natijalar orasidagi muddatning cho'zilib ketishi, o'z navbatida, sanoat robotlarini joriy etayotgan kollektivlarning yomon ahvolga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda. Hammaga ma'lum kundalik texnika va texnologiyani mukammallashtirish bilan shug'ullanayotgan xodimlar esa moddiy rag'batlantrish soxasida oldinga chiqib kelmoqdalar.

Robototexnologik sistemalarni ishlab chiqish va keng tarzda qo'llash uni iqtisodiy va ijumoriy samaradorligi amaliyotiga yug'um metodik ko'rsatmani talab etadi.

Korxonani kompleks texnik qayta qurollantirishdagi variantlarini solishtirish shu narsadan dalolat berayaptiki, qaerda qo'l mehnatinini o'rnni bosuvchi qimmat uskuna intensiv tarzda foydalanilayotgan bo'lsa, shu erda eng ko'p iqtisodiy samara mavjuddir. Sanoat robotlarini qo'llash ikki va uch smenali ishda samara beradi. Avtomatik uskunalarni donalab o'rnatish va ulardan kam smenali ishlarda foydalanish samara o'rniiga zarar keltirishi muqarrardir.

Sanoat robotlarini bu^uyod etish va joriy etishdan olin^udigan iqtisodiy samarani aniqlash metodikasi metall kesish stanoklari tajribaviy ilmiy tadqiqot instituti (ENIMS) tomonidan ishlab chiqilgan va 1984 yil yanvar oyida joriy etilgan yo'riqnomada o'z aksini topgan. Bu yo'riqnomada sanoat robotlarini bunyod etish va joriy etishda iqtisodiy samarani baholash yo'llari jamoat fondidan to'lanadigan pullar, ishlab chiqarishni tashkil etish shaklini yahshilash evaziga texnologik uskunalarining band bo'lish qobiliyatini hisobga olish, smenalararo yo'kotuvni qisqartirish ishlab chiqarishni robotlashtirishda rejalanashdirish va dispetcherlik ishlarining tartibga solinishi nazarda tutilgan.

Yo'riqnomada tarmoqlararo xususiyatga ega bo'lib, mashinasozlikning sanoat robotlarini bunyod etish va joriy etish bilan bog'lik bo'lgan turli xil tarmoqlarini (mexanik ishlov berish, quyuv ishlari, temirchilik — presslash, payvandlash, yig'uv va x. k.) o'z ichiga oladi.

Yo'riqnomada sanoat robotlari va robototexnologik komplekslarni bunyod etish (loyixalash va o'zlashtirish) hamda ularni mashinasozlik korxonalarida joriy etish bosqichida iqtisodiy samarani aniqlash usullari bayon etilgan.


Ushbu yo'riqnomada yordamida, shuningdek, sanoat robotlari va robototexnologik komplekslarni bunyod etish va joriy etish bilan bog'liq bo'lgan ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari uchun beriladigan mukofotlar o'lchamini aniqlaydigan ko'rsatmalar ham bor.

Shu bilan bir qatorda ushbu yo'riqnomada ijtimoiy iqtisodiy samarani hisobga oluvchi metodik masalalar to'la aks ettirilmagan. Robototexnikaning rivojlanishida kompyuterlarning bunyod etilishi katta ahamiyat kashf etdi. Chunki kompyuter dasturlovchi qurilma bo'lib uning asosida mutlaqo yangi ko'rinishdagi qurilma bunyod etish sharoiti tug'iladi. Shu munosabat bilan kompyuter yordamida

Ushqariladigan robotlar paydo bo'ldi. Keyingi yillardagi taraqqiyotning muhim xususiyatidan biri inson imkoniyatini mukammalashtiruvchi vosita mikroelektronikadan foydalanshilardan bo'lib hisoblanadi. Mexanika bilan elektronikaning birlashishi oqibatida mexatron qurilmalarini paydo bo'lishidir.

Hozirgi zamondagi robotlari tarkibiga bir yoki bir necha mexanik manipulyatorlar kiradi. Manipulyatorlar ilgarilama va burchakli holatda siljiy oладиган kinetik qismlardan iborat. Manipulyatorning oxirida maxsus asboblar bo'ladi. Robot manipulyatorlari avtomatik boshqaruva qurilmasiga ega bo'lib u o'z navbatida sezgi (sensorli) qurilmalariga egadi.

Demak robot (1-rasm) avtomatik tarzda harakatlantiruvchi mashina bo'lib o'zida ishchi va informatsion xislatlarini birlashtiradi. Rivojlangan robotlar xuddi insonga o'xshab tashqi muxit bilan o'zaro munosabatda bo'lib sun'iy intellektga ega bo'lishi mumkin.



1 – rasm. Robotning funktional sxemasi.

• Avtomatlashtirish vositasi sifatida robotlar boshqa shu kabi vositalaridan o'zinig ko'p funktsiyaligi (universalligi) va boshqa operatsiyalarga epchil tarzda o'ta olishi bilan ajralib turadi. Universallik deganda robot ishchi organlari va uning harakatlari universalligi tushuniladi.

Robotlar universalligi inson tomonidan bajariladigan har qanday operatsiyalarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Robot yordamida avtomatlashtirilgan tizim (sistema)larni robotlashtirilgan deb yuritiladi.

Robotlar asosiy vazifani bajarishga mo'ljallangan robotlashtirilgan tizim va majmualarni robototexnik deb ataladi. Robotlar ko'proq mashinasozlikda qo'llanib kelingan. Mashinasozlikdan boshqa mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish vositalari qo'llaniladigan soha pochta aloqasi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ushbu sohadagi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishda robototexnika vositalaridan foydalanish imkonini qidirib topish dolzarb masala bo'lib hisoblanadi.

Robototexnika vositalaridan foydalanishga oid olib borilgan tadqiqotlar va bu sohadagi mavjud tajribalar ya'ni, yuklash, transport va ombor operatsiyalariga oid ishlar pochta aloqasiga ham bevosita tegishlidir.

Umumiy ma'lumotlar va tushunchalar.

O'z vazifasini bajarish uchun har qanday robot quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

- 1) Boshqaruv tizimi (komp'yuter yordamida ishlovchi);
- 2) Ishchi organiga ega bo'lgan ish bajaruvchi mexanizm ya'ni, manipulyatorlar;

Manipulyator to'g'ridan – to'g'ri, masofaviy yoki avtomatik tarzda boshqariladigan bo'lishi mumkin. Mexanik qo'l yoki avtooperator (bikir dasturlangan robot) yordamchi va transport operatsiyalarini bajaruvchi qurilma. Robotlarning birinchi avlodи bikir dastur asosida ishlaydi.

Arinchi avlod robotlariga juda ko'ng tarzda qo'llaniluvchi mexanik qo'llar va raqamli dastur bilan boshqariluvchi tizimli robotlar kiradi. Ushbu robotlar tashqi muhit sharoitiga moslashaolmaydi. Shuning uchun ushbu robotlarni nisbatan oddiy bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlarida (detallarni tashish, joylash, payvandlash, bo'yash va h.k) qo'llaniladi. Bunda tizimga kirishda qat'iy tartib hamda mudosaa choralarini ko'rishga to'g'ri keladi.

Hozirgi vaqtida epchil dastur asosida ishlay oladigan ikkinchi avlod ya'ni, adaptiv – mosiashuvchani robotlar yaratilgan. Ushbu robotlar sezgi datchiklari bilan jixozlangan bo'ladi. Chunki ular ancha murakkab bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda qo'llaniladi.


Zamonaviy masalalarni xal etishda integral yoki intellektual robotlar uchinchi avlod robotlari deb ataladi. Ular har qanday ish va ishlab chiqarish sharoitiga moslashaoladigan bo'lib sun'iy intellekt bilan jihozzangan bo'ladi. Uchinchi avlod robotlari komp'yuterlar tizimi yordamida boshqariladi va evristik dasturlash usullari qo'llaniladi.

Mashina – avtomat sifatidagi sanoat robotlari harakatining aniqligi va tezligi bo'yicha inson bajaradigan ishlarni bajarish qobiliyatiga egadir.

RC OTLARNING TARKIBI VA TUZILISHI.

Hozirgi vaqtdagi robotni quyidagicha ta'riflash mumkin ; robot bu insonning turli – hil harakatlari va intellektual funktsiyasini bajaradigan va buning uchun kerakli ish bajaruvchi qurilmalardan, boshqaruvchi va axborot tizimlaridan iborat mashina – avtomatdir.

Robot tashqi muxit bilan faol o'zaro munosabatda bo'lib asosan quyidagi tizimlarga ega bo'lishi kerak : boshqaruvchi, axborot – o'lchov (sensorli), aloqa, ish bajaruvchi. Robot tiziminining tarkib – funktsional ko'rinishi 2 – rasmida keltirilgan.



2-PACM

Boshqaruv tizimi – bu robotning «miya»si bo'lib, belgilangan dastur asosida ish bajaruvchi tizim mexanizmini boshqarish uchun kerak bo'ladigan qonunlarni ishlab chiqish uchun xizmat qiladi.

Axborot – o'lchov tizimi – bu tashqi muxit va robotning o'zi haqidagi axborotni qabul qilish va o'zgartiruvchi sun'iy sezgi organlari.

Aloqa tizimi – robot bilan inson o'rtaida axborot almashinuvini bajaradi va robotning «tili» deb ham aytildi.


Ish bajaruvchi tizim – bu tashqi muhit ob'ektiga ta'sir qiluvchi yoki u bilan o'zaro munosabatda bo'luvchi qurulma. Sanoat robotining tarkibiy ko'rinishi va uning tizimlari bog'liqligi 3 – rasmida keltirilgan.



3-rasm. Sanoat robotining tarkibiy ko'rinishi.

DKQ – dasturiy kiritish qurilmasi, QBP – qo'l bilan boshqaruvchi pult,
KSHQ – komandan shakllantirish qurilmasi, U – uzaimmajar,
M – manipulyator, TU – texnologik uskuna, AT – axborot tizimi.

4-rasmda sanoat roboti texnologik uskunalar va tizimlarining o'zaro munosabati tarkibiy – funktsional sxemasi keltirilgan.



ALOQA KO'TARMA*- TRANSPORT QURILMALARI.

Ko'tarma – transport mashinalarining qo'llanilishi ko'p jihatdan hozirgi ishlab chiqarishning samaradorligini aniqlaydi. Zamonaviy potokli texnologik liniyalar, tsexlар va ichki tsexlарaro transportlar, yuklash – tushirish operatsiyalarining hammasi o'z navbatida ko'tarish – transport qurulmalarining qo'llanilishi bilan bog'liqdir.

Ko'tarma – transport qurulmalari uskunalarini o'rnatish va qayta o'rnatish hamda qurilish korxonalarini mexanizatsiyalashtirishda samarali vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtida yuqori unumli yuk ko'tarish va ta'shish mashinalari korxona ishlab chiqarish texnologik jarayonlarida qo'llaniluvchi mashinalar majmuasi va murakkab agregatlar tarkibiy qismi sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Hozirgi zamon kompleks avtomatlashtirilgan liniyalarni ko'tarma – transport qurilmalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ko'tarma – transport qurilmalari uch guruhgа bo'linadi:

Davriy (tsiklik)harakatlanuvchi – yuk ko'targichlar;

Uzluksiz harakatlanuvchi – yuk tashuvchi; yuklash – tushirish operatsiyalarini uzluksiz va davriy tarzda ta'minlovchi.

Ko'tarma – transport mashina va qurilmalari pochta yuklarini qayta ishslash operatsiyalarini mexanizatsilashtirishga mo'ljallangan .

Bunday operatsiyalarning mazmuni pochta jo'natmalari va texnologik jarayonlar xarakteri bilan belgilanadi.

Tranzit pochta yuklarini qayta ishslash texnologik jarayonlarni ko'rib chiqar ekanmiz ularni quyidagi kompleks operatsiyalarga bo'lish mumkin:

a) Ishlab chiqarishdagi transport vositalarida pochta jo'natmalarining og'irlilik nuqtai nazaridan zo'riqishi:

b) Joylanadigan yo'q qayta ishlov beriladigan joyga tashib olib borish:

v) Qayta ishlangan yuklarni tashqi transport vositalariga etkazib berish:

g) Manzillarga olib borish uchun transportga yuklash.

Texnologik jarayonlarning bir qismi transport vositalaridan (avtomashina, vagonlar)pochta korxonasining mexanizatsiyalashtirish vositalariga tashish bilan(va aksincha jarayon)bog'liqdir.

Bu erda quyidagilardan foydalaniladi :

Pochtaga oid vagonlarga yuk tashish va tushirish kompleks mexanizmlari pochta almashtirish darchalari,konteynerlarga yuklash uchun kerak bo'ladigan mexanizmlar va sh.k

Ushbu mexanizmlarning ko'pchiligi qo'l mehnatini imkor eta olmaydi,biroq operator mehnatini engillashtirib unumdonlikni oshiradi.

Pochta yuklarini qayta ishslash joylariga gorizontal yo'naliishda siljitim jarayoni konveyerlar,aravachalar, konteynerlar yordamida, vertikal yo'naliishda siljitim esa lift, ko'targichlar, konveyer mashinalari va inson ishtirokida amalga oshiriladi. Ushbu operatsiyalarda asosan umum xizmatga oid transport mashinalaridan jumladan ,belgilangan unumdonlikda yukning kelib tushgan joyidan unga qayta ishlov beriluvchi joygacha siljitim uchun mo'ljallangan konveyerlardan (lentali,zanjirli va sh.k) foydalaniladi.

Pochta jo'natmalarini manzil belgilari bo'yicha ajratish maxsus konveyerlarda amalga oshiriladi. Vazni og'ir pochta yuklari ya'ni, posilka, banderol, qutilar, qoplar oddiy transport konveyerlarida tashiladi.

Xat korrespondentsiyalarini ajratish qurilmalari faqat pochta aloqasiga bog'liqdir. Ularning asosini transport konveyerlari tashkil etgan bo'lib ular mashinasozlikdagi konveyerlardan tubdan farq qiladi. Xat korrespondentsiyalarining yuqori darajadagi standartlashuvi ularni qayta ishslashga avtomatlashirishni qo'llash imkonini beradi.Hozirgi

vaqtida xatlarni na'vlarga ajratish uchun y'sim avtomatik va avtomatik tarzda ishlovchi yuqori unumli qurilmalar qo'llanilmoqda.

Pochta jo'natmalari o'lchami, vazni va shu kabilarga qarab quyidagi ko'rinishlarga bo'linadi: xatlar, pochta kartochkalari, banderollar, posilkalar, pu'l jo natmalari va davriy nashrlar.

Pochta yuklarini transport yordamida tashish va qayta ishlashni mexanizatsiyalash vositalarini ishlab chiqishda ularning quyidagi xarakteristikasini bilish kerak: o'lchamlari, vazni, joylashtirish ko'rinishi. Pochta qoidalari pochta yuklarining o'lchami va vaznnini aniqlab beradi.

MIKROPROSESSOR TEHNika VOSITASIDAGI AVTOMATLASHTIRILGAN ISH JOYI.

Avtomatlashtirilgan ish joyi (AIJ)ni tashkil etish axborotni qayta ishlash soxasida muhim ahamiyat kashf etadi. Ayrim mamlakatlarning 50 foizdan ortiq band aholisi AIJ-lari shaxsiy kompyuterlar bunyod etilganidan so'ng rivoj olib ketdi.

AIJ-larning turli xil ko'rinishlari mavjud.

Konstruktiv ko'rinish bo'yicha turli xil variantlarda bo'ladi: yagona konstruktsiya yoki blok ko'rinishida; statsionar (stol, tumba, stol ustidagi variantda) yoki siljuvchan (portativ, ko'chiriluvchi variantlarda).

AIJ foydalanilishi bo'yicha avtonom yoki xisoblagichlar (lokal va boshqa tarmoqlar va sh.k.) da foydalanilishi mumkin.

Maqsadi bo'yicha AIJ lar quyidagilarga bo'linishi mumkin: loyixachilar va konstruktorlar (muxandislik ish stantsiyalari), shaxsiy ish stantsiyalari, o'qitish, tadqiqotlar o'tkazish ish joylari, nazorat o'lchash ishlari uchun, boshqaruv xisobchi va shu kabi ish joylari.

Muammoli mo'ljal usullari bo'yicha AIJ quyidagilarga bo'linishi mumkin; bikr va epchil; apparatli, dasturli, foydalanuvchi yoki tayyorlovchi tomonidan belgilanadigan mo'ljallি.

Maxsuslashtiriganlik darajasiiga qara AIJ shaxsiy kompyuterlari muammoli – mo'ljallangan kabilarga bo'linadi.

Keng tarzda foydalaniluvchi AIJ lar albatta shaxsiy kompyuterlarga asoslangan bo'ladi.

AIJ larning arxitektura va tarkibi nafaqat xal etiluvchi masalalar ko'rinishi mazmuni bilan balki iste'molchi ixtiyoridagi AIJ yadrosi bo'lib hisoblanish texnikaviy vositalar va tashqi qurilmalar jamlamasi bilan aniqlanadi.

POCHTA AL-QASINI AVTOMATLASHTIRISHDAXBOROT TIZIMINING O'RNI.

Pochta aloqasi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar davlat va jamiyat uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib juda ham ommabop bo'lib hisoblanadi.

Chunki u jamiyatning hamma qatlami ,davlat hokimiyati va boshqaruvining hamma bo'g'in va tartibini qamrab olgan. Pochta aloqasi korxonasi pochta xizmati ya'ni, pochta jo'natmalarini (xatlar, banderollar, posilkalar) qabul qilish,qayta ishlash va manzilga etkazib berish bilan bir qatorda davriy nashrlarni tarqatadi,kommunal xizmatlar,elektr energiya,gaz ta'minoti uchun to'lovlarini amalga oshirish va shu kabilar bilan shug'ullanadi

O'zbekiston Respublikasi pochta tarmog'i 3044 aloqa bog'lamasi, 38 avia, 5 temir yo'l, 384 avtomobil marshrutlaridan iborat. O'zbekiston 28 tadan ortiq mamlakat bilan pochta aloqalarini amalga oshiradi.O'zbekiston 1994 yildan boshlab jahon pochta ittifoqiga to'laqonli a'zo bo'lib kelayapti.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish xalqaro aloqalarning rivojlanishi o'z navbatida pochta aloqalarining rivojlanishi yo'nalishini chuqur tahlil etishni taqazo etadi.

Shu maqsadda pochta aloqasining avtomatlashtirilgan axborot tizimini bunyod etishning (1999 – 2010 yillarga) kontseptsiyasini ishlab chiqish va ushbu dastur asosida pochta tarmog'ini axborotlashtirish bo'yicha istiqbolli masalalarni aniqlab olish bo'ldi.

Qo'yilgan masalalarning xal etilishi o'z navbatida mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati, madaniyati va tezkorligini oshirib ko'rsatiladigan xizmatni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash ,sarflanuvchi qog'oz hajmining kamayishi va shu kabilarga olib keladi. Pochta aloqasining avtomatlashtirilgan axborot tizimi (PAAAT)ni bunyod etilishining muhim muammolarini xal etishda

avtomatlashtirilgan axborot – texnologik tizim (AATT) va boshqaruv tizimlariga oid masalalarni ishlab chiqish va joriy etishni taqozo etiladi. Ushbu masalalarga quyidagilar kiradi;

- pul o'tkazmalarini qayta ishlash va nazorat qilishga oid masalalar majmuasi;
- pochta jo'natmalarini qayd etish, hisobga olish va nazorat qilishga oid masalalar majmuasi;
- kommunal to'lannalarini rasmiylashtirish, xisobga olish va nazorat qilishga oid masalalar majmuasi;
- nafaqaga oid masalalar majmuasi;
- obuna va eikazib berishni qayta ishlashga oid masalalar to'plami;
- xalqaro jo'natmalarini rasmiylashtirish va nazorat qilishga oid masalalar majmuasi;
- buyruq va farmoyishlarni xisobga olish masalalar majmuasi;
- rahbarni axborot – ma'lumotlar bilan ta'minlashga oid masalalar majmuasi;
- AATT masalalar majmuasi;
- Hisoblash masalalari majmuasi;
- Tadbirkorlik axborot – qidiruv tizim va sh.k

PAAAT axborot masalalari kompleksini joriy etishni xal etish quyidagi tamoyillarda olib boriladi.

- a) pochta aloqasi korxonalarida dasturiy va texnologik masalalarni xal etish uchun yuqori malakali mutaxassislar guruxini tuzish kerak;
- b) Joriy etishning bosqichlarini tashkiliy va moliyaviy ishlarni e'tiborga olgan xolda ta'minlash;
- v) Joriy etishni murakkablik darajasidan tashkiliy va texnikaviy imkonlarni xisobga olgan xolda olib borish.


Kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ishi oddiy kichik masalalarni echishdan boshlanishi tabiiydir. Jumladan, pochta pul o'tkazmalariga ishlov berishni avtomatlashtirishdir.

5 – rasmida respublika xududitidan pul o'tkazmalari operatsiyalari, ra'zada xalqaro pul o'tkazmalari operatsiyalari, 6 – rasmida yirik pochta korxonasida pul o'tkazmalari operatsiyalari,

7 – rasmida yirik pochta korxonasida pul o'tkazmalari operatsiyalarini avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlar tizimi keltirilgan.


Pul o'tkazmalariga ishlov berishni avtomatlashtirishda quyidagi tavsiyalarни berish mumkin:

RESPUBLIKA HUДUDIDA PUL O'TKAZMALARI OPERASIYALARI



5—Rasm. Respublika hududida pul o'tkazmalari operasiyalari

HALQARO PUL O'TKAZMALARI



6—Rasm. Halqaro pul o'tkazmalari

№	Yo'nalish	Mazmun, moxiyati
1.	Sisteman aloqa bo'limida ishga tushirishga tayyorgarlik ko'rish	Sistema aloqa bo'limlarida ekspluataatsiyani boshlashdan oldin pul mablag'lari va pochta jo'natmalarini saqlanishini ta'minlash maqsadida kompyuterda kassa operatsiyalarini bajaradigan xizmatlarining hammasiga ishlatuvchi nomi va paroli beriladi. Farmoish bilan ishchilar ichidan parollarini ishlatishni tashkil qilish uchun mas'ul shaxs belgilanadi, u shuningdek ishlovchilar ma'lumotnomasiga ketganlar va kelganlar bo'yicha o'zgartirish kiritadi.
2.	Texnik jurnal	Texnik jurnal ishlab chiqarishda quyidagi xujjalalar kerak bo'ladi: — sistema ishchi vaqtini ishlatilish xisobi; — mas'ulalarda ishlaydigan operatorlarning individual mas'ulligini qayd qiladi; — ta'mirlashni ro'yxatdan o'tkazadi va kompyuter xolatining texnik xisobini oladi.
3.	Ish kunini boshlanishi	Sistemada kirish xuquqini beruvchi maxsus kurslarni tamom qilib, ruxsatnomalar olgan shaxslar ishlaslari mumkin. Hujjati yo'q shaxslar ishlashga qo'yilmaydi. Ish boshlashdan oldin operator kompyuterni ishga tayyorlashi uni texnik sozligi va kerak bo'lgan kvitantsiya lentalari va kundalik lentasi joyidaligiga ishonch xosil qilishi kerak. Kompyuterni va printerni tarmoq manbaiga ulashi lozim. Kompyuterni ishga tushirgandan keyin nazoratchi sbaxs "Pochtami" sistemasiga kiradi; o'zining nomi va parolini teradi va "kun ochilish" operatsiyasini bajaradi.
4.	Pul yordamlarini olinishi	Operator kassa operatsiyalarini olib borish yo'riqnomasi asosida nazoratchidan pul oladi, keyinchalik "Boshqa kassa operatsiyalari" rejimida summani kompyuterga kiritadi. Printer (talab kilinsa) kvitantsiyasi 2 ta nusxada chop qilib beradi. Bunda operatsiyaning turi, vaqt va summasi ko'satiladi, ular esa operator va nazoratchilarda saqlanadi va imzo qo'yiladi.
5.	Individual o'tkazmalarini qabul qilish	O'tkazmalar pochta qonunlari asosida qabul qilinadi va to'ldiriladi. O'tkazmalar

		va kvitantsiya blank'sini to'ldirishda operator operatsiyani o'tkazish uchun kerak bo'lgan hamma rekvizitlarni teradi, kerak bolsa qoshimcha xizmatlar va ekspluatatsion blankalarini tanlaydi, ko'z yordamida terilgan rekvizitlar to'g'rilingini tekshiradi, blankani printerga qo'yadi va operatsiyani saqlaydi.
6.	Partition o'tkazmalar	Pochta qonunlari asosida qabul qilinadi va to'ldirib tasvirlanadi "Pochtamp" sistemasida quyidagi tartibda olib boriladi: Operator tashkilotlar ro'yxatidan klient turini (axoli yoki korxona) birinchi o'tkazma summasini tanlaydi, monitordagi V tugmachani bosadi. Pastkni chap burchakda o'tkazma summasi va to'lov summasi yonib ko'rindi, keyin shu kabi sh103 ro'yxatidagi qolgan o'tkazmalar to'ldirib ta'svirlanadi. Oxirgi o'tkazma to'ldirilgandan so'ng, ko'z yordamida o'tkazmalar umumiyligi summasi, monitor ekranidagi to'lov summasi sh103 ro'yxati bilan solishtiriladi, agar hamma "saqlash" operatsiyalari to'g'ri o'tkazilsa, printerdagi o'tkazmalar blankalarida to'ldirilib tasvirlash boshlanadi.
7.	O'tkazmalar to'ovi	O'tkazma bo'yicha pullar pochta qoidasi bo'yicha o'rnatalgan tartibda to'lanadi. Operator kompyuterda to'langan o'tkazmalarni to'ldirib tasvirlaydi, buning uchun o'tkazmaning hamma rekvizitlari teriladi, ular monitorda ko'rsatilgandan keyin printerga blank qo'yadi va "saqlash" operatsiyasini bajaradi.
8.	O'tkazmalar qabuli va to'ovi bo'yicha «AKT KORREKTOR» operatsiyalarini shakllantirish	Operatsiya "AKT KORREKTOR" xato operatsiyalarni yo'q qilish maqsadida olib boriladi. Shunda avtomatik ravishda xato summa olib tashlanadi va xato operatsiya summasi va nomeri chop qilingan kvitantsiya chop qilinadi.
9.	Hujjatlarni o'tkazish tartibi	nazoratga Ish kuni oxirida operator kassa ma'lumotnomasi MS — 42 va unga taalluqli xujjalarni bilan hamma qabul qilingan va to'langan o'tkazmalarni nazoratga beradi. Aloqa bo'limi boshlig'i (nazoratchi shaxs) kompyuterda shakllantirilgan operatsiyalar miqdori va summasini nazoratga berilgan xaqiqiy miqdor va summalar bilan solishtiradi.

10.	Sistema xato ishlash holatida operatsiyalarni shakllantirish	Kassa ma'lumotlarini va birligida yo'naltiruvchi xujjalarni olish imkoniyati bo'lmaganlik natijasida sistemada xato bo'lmaganda, operatsion kundalik, jonli summlar har bir operatsiya ko'rinishida hisoblanadi, kundalik orqali va operator va nazoratchi shaxs imzolari bilan tasdiqlanadi.
-----	--	---

7 – Rasm. Pochta korxonasida pul o'tkazmalari operatsiyalarini avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlar tizimi

- pochta aloqa xizmati soxasida respublika xududidagi va halqaro pul o'tkazmalari bo'yicha xuquqiy me'yoriy hujjalarni ishlab chiqib joriy etish;
- pul o'tkazmalari operatsiyalarini bozor iqtisodiyoti sharoitida yo'lga qo'yish uchun xorijiy investitsiyalarni jalg qilish;
- respublikada pul siyosatiga mutasaddi bo'lgan organlar jumladan, bank va boshqa tashkilotlar ishtirokida pul o'tkazmalari operatsiya lari bilan shug'ullanadigan korxonalarining xuquqlari va majburiyatlarini, tashkiliy ishlari hamda kompyuter tarmoqlarini bunyod etishni aniqlovchi xujjalarni tayyorlash;
- chet eldag'i ushbu jarayonni olib borilishi siyosatini taxlil etib ,

O'zbekistonning qadriyatlari va xususiyatlarini hisobga olgan xolda pul o'tkazmalari siyosatini yaratish va aholiga yaxshi xizmat qilish sharoitini yaratish;

- «O'zbekistoi pochtasi» Davlat aktsionerlik kompaniyasi (DAK) tizimidagi aloqa korxonalarini kompyuterlash tarmoqlarini tashkil etish;
- pul o'tkazmalari operatsiyasining respublika xududidagi va halqaro ko'rinishdagilarga ishlov berishni yuqori saviyada o'tkazish uchun zamonaviy dasturlarni yaratish va h.k.

Inson o'zining butun umri davomida shaxsiy jismoniy ishlarini mexanik qurilmalarga yuklashga intilib kelgan. Ushbu intilishlar oqibatda richag, g'ildirak, shamol tegrimoni kabi mexanizmlarni

bunyod etilishiga olib keldi «bug', elektr va boshqa ko'rinishlari» agi energiyalardan foydalanish imkonini yaratdi. Sanoat inqilobi energiyalarni ishlab chiqarish jarayonlarida foydalanishga yo'naltirilgan. Keyinchalik o'zaro almashuv tamoyilidan foydalanilgan xolda faoliyat ko'rsatadigan ommaviy ishlab chiqarish paydo bo'ldi. To'xtovsiz intilish oqibati natijada mexanizatsiyalashning murakkab ko'rinishlarini bunyod etib inson jismoniy mehnatini engillashtirish mumkin bo'lgan sharoitda to'liq almashtirishga olib kelish uchun sharoit yaratdi Buning asosiy natijasi mehnat unumdarligini oshishi bo'lib hisoblanadi. Ommaviy ishlab chiqarishda xomashyo va detallar oqimi (potok) ni boshqarish uchun sistemali munosabat (yondoshish) keng tarzda qo'llanila boshlandi. Bunday sharoitda rahbariyat tomonidan qaror qabul qilish qo'yilgan muammoga sistemali munosabatda bo'lismeni taqozo etadi. Texnikaviy taraqqiyoti uzoq zanjirining navbatdagi qadami avtomatlashtirish bo'ldi. Oldin ta'kidlab o'tilganidek «avtomatlashtirish» ni turli tarzda tasavvur etish mumkin. Xoxlagan mulohazada ham avtomatlashtirish deganda mexanikaviy ishni odam ishtirokisiz bajarishda energiyadan foydalanishni tasavvur etiladi.

Avtomatlashtirish atamasi (termini) ishlab chiqarish jarayonini boshqarish uchun kerak bo'ladigan informatsiya oqimiga ham tegishlidir Shunday qilib, avtomatlashtirish bevosita ishlab chiqarishning o'zida informatsiyani qayta ishlash sohasida ham amalga oshirilishi mumkin.

MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH.

Ma'lumot bu tahlil etish uchun kerak bo'lgan dalil (fakt) lardir. Ma'lumotlarni qayta ishlash ma'lum bir maqsadni amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan ketma-ket bajariladigan operatsiyalardan tashkil topgan bo'ladi. Shunday qilib faktlar ma'lumotlarni qayta ishlash uchun xomashyo bo'lib hisoblanadi.


Hozirgi zamон kорхоналаридаги бoshqaruvning turli xil bo'lib jichlarida qaror qabul qilish uchun kerak bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlar juda keng miqyosdadir. Faktlar shunchalik ko'pki qayta ishllov uchun eng keraklilarigina uzatiladi. Ma'lumotlarni qayta ishlashning muhim masalalaridan biri kerakli informatsiyalarni yig'ish, ularni na'vlarga ajratish, klassifikatsiyalash, turli xil faktlarning o'zaro bog'liqligini topish bo'lib xisoblanadi.

FAKTLAR VA INFORMASIYALAR.

Korxonaning ichkari va tashqarisida juda ko'p vogeliklar sodir bo'lib turadi, biroq rahbariyat uchun ushbu vogeliklarning ayrimlarigina qiziqish uyg'otadi. Informatsion – hal etuvchi sistema shunday loyixalanishi kerakki, u kerakli ma'lumotlarni yig'abilishi va nohush, kerakli bo'limgaganlarini chetlatib qo'yishi kerak. Tanlab olingan ma'lumotlar rahbariyat tomonidan qaror qabul qilish uchun informatsiya rolini o'ynashi kerak.

Biroq informatsiya rahbariyat tomonidan qaror qabul qilishga foydali bo'lishi uchun ma'lumotlarni qayta ishlay bilish kerak. Boshlang'ich ma'lumotlarni tahlil etib chiqish uchun korrelyatsion tahlil usulidan foydalanish mumkin.

8 – rasmida boshlang'ich ma'lumotlarni informatsiyaga aylantirish uchun ularni qayta ishlash sistemasi tarxi (sxemasi) keltirilgan.



*shbu sistema asosiy uchta blokda. Tashkil topgan: kirish, qayta ishlash, chiqish. Kirishga dastlabki ma'lumotlar (faktlar) kelib tushadi. Ma'lumotlarni saqlash qurilmasini boshqarish, arifmetik yoki mantiqiy operatsiyalarni bajarish o'z navbatida qayta ishlash jarayonini namoyon etadi. Chiqishdagi informatsiya turli xil ko'rinishlarda jumladan, rahbariyat uchun xisobot ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Ma'lumotlarni qayta ishlash sistemasining ushbu ko'rinishda tasavvur etishda boshqaruvning turli hil bosqichlarida foydalilanuvchi murakkab texnikaviy uskunalarga oid belgilar keltirilmagan bo'lsada ma'naviy to'liq tasavvur mavjud deyish mumkin.

ISHGA OID MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH.

Boshqaruv uchun rahbariyatga informatsiya kerak. Faktlarni informatsiyaga aylantirish ma'lumotlarni qayta ishlash funktsiyasi bo'lib hisoblanadi. Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonining katta qismini kartoteka (fayl) tuzish ishi bilan solishtirish mumkin. Masalan, firma pul to'lash vedomosti (ro'yxat) o'zgarishini davriy aks ettirib turuvchi xodimlar kartotekasini bunyod etadi. Yangi – yangi faktlar to'xtovsiz tarzda yig'ilib ma'lumotlarni qayta ishlash sistemasiga kiritish uchun qulay bo'lgan shaklga (o'zgartirilib) keltirib turiladi. Ma'lumotlarni qayta ishlash doimiy ma'lumotlar va joriy faktlar kartotekasini birlashtirib borishdan iborat bo'ladi. Qayta ishlov jarayonida sodir bo'lib turadigan u yoki bu og'ishlar ajratib, belgilanib rahbariyat e'tiboriga xavola etib boriladi.

Zaxiralarni boshqarishga oid ma'lumotlarni qayta ishlashni ham kartotekani tuzish operatsiyasi deb qarash mumkin. Bu xolatda xodimlar ro'yxati o'rmini omborda saqlanayotgan detallar, mollar (buyumlar) shifrlari kartotekasi egallaydi.

Ishga oid ma'lumotlarni qayta ishlashning xoxlagan jarayoni juda ko'p bosqichlardan tashkil topgan bo'lib ularning hammasini to'rt

g'aruxga bo'lish mumkin: yig'ish, qayta ishlash, solishtirish, qaror qabul qilish.

Ma'lumotlarni yig'ish shu ma'lumotlar manbaiga qarab nisbatan juda oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin. Bunda og'zaki xabarlar, qulyozma materiallari, to'g'ridan – to'g'ri mashina qabul qilaoladigan shakldagi hujjatlarda foydalanilish mumkin. Ma'lumotni qayta ishlash sistemasi va uning texnikaviy vositalari murakkabligiga qarab kompyuterga kirgizish uchun kerakli shaklga keltirish talabi kelib chiqishi mumkin. Ma'lumotlarni qayta ishlash bosqichlari ma'lumotlarni saralash, ularni birlashtirish, hisoblash va yakunlashdan iborat bo'лади. Ushbu masalalar turli xil usullar orqali hal etilishi mumkin. Ma'lumotlarni qayta ishlashning oxirgi natijasi qaror qabul qilish uchun kerak bo'lgan informatsiya bo'lib hisoblanadi. Ushbu informatsiya odatda kutilayotgan qiymatlar yoki oldingi natijalar bilan solishtiriladi. Bunda rahbariyat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan tasavvurni aks ettirish uchun kerak bo'lgan raqobat va boshqa mezonlar ham xisobga olinadi. Solishtirish jarayoni qaror qabul qilish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumotlarni elektron qayta ishslash soxasining joriy etilgan eng birinchi soxalaridan biri maoshni hisoblash bo'lgan. Chunki birinchidan bu ancha mehnat talab etiladigan ish, ikkinchidan to'lov vedomostlarini tuzish o'ta og'ii jarayon. Birinchi qarashda oson bo'lib ko'ringan ish elektron sistemaga o'tkazish uncha engil bo'limgan.

Ma'lumki maosh (ish xaqi) ni hisoblashda juda ko'p turli xil o'zgarishlarni hisobga olish talab etiladi. Bizni qiziqtiradigan asosiy narsa, hozirgi va kelajakdagi jarayonlar nuqtaiy nazardan ma'lumotlarni dastlabki bosqichda qayd qilish va uzatishga oid qurilmalar yordamida elektron qayta ishlashni yaxshilash yo'llarini topish bo'lib hisoblanadi. Mashinaga kerakli ma'lumotlarni talab etilgan shaklda tayyorlash uchun kerak bo'lgan talablar qanday bo'lishi kerak va shy kabi

savollarga javob topish kerak. Shulardan kelib qniqib quyidagi masalalarni aniqlash kerak bo'ladi:

- 1) Rahbariyatni shunday informatsiya bilan ta'minlash kerakki, qaror qabul qilish uchun kerak bo'lgan xolatni muddatdan oldin namoyon etish kerak;
- 2) O'z vaqtida informatsiyani tayyorlash, uzatish yo'li bilan xodimlar bilan bo'ladigan muloqotlarga sarflanuvchi foydali vaqt va shu tariqa korxonadagi harajatlarni qisqartirish;
- 3) Xodimlarning ish vaqtlarini samarali boshqarish vositalarini yaratish;
- 4) Informatsiyani mashina sistemasidan o'tishi uchun sarflanadigan vaqtni kamaytirish uchun kerak bo'ladigan vositalarni yaratish;
- 5) Ishga oid hamma operatsiyalarni kompyuterda foydalanishga yaroqli bo'lishi uchun zudlik bilan tayyorlay bilish;
- 6) Mashinaga kiritiladigan informatsiyalarni tayyorlashga sarflanuvchi vaqtni qisqartirish;
- 7) Ma'lumotlarni elektron karta ishslash sistemasining kelajakdag'i rivojlanishi ikki soxadagi taraqqiyotga bog'liqdir: 1) Hisoblash texnikasini ishlab chiqarish texnologiyasiga va 2) informatsion xal etish sistemasining mukammallashishiga. Hozirgi zamон hisoblash mashinalarining ishslash tezligi hayolot darajasida bo'lsa ham, bu soxadagi tadqiqotchilar fikricha yana juda katta taraqqiyot ko'zda tutilmogda. Agar ma'lumotlarni kirgizishda xatolikka yo'l qo'yilmasa va programmalar to'g'ri tuzilgan bo'lsa hisoblash texnikasi juda ko'p masalalarni yuqori aniqlikda xal etishni ta'minlab beradi. Shubhasiz eslab qolish qurilmalarining hajmi ko'paytiriladi va bu o'z navbatida katta miqdordagi axborotlar massivini saqlash imkonini beradi. Ma'lumotlarni real vaqt birligida qayta ishslashga o'tish o'z navbatida ma'lumotlarni markazlashtirilgan xolatda qayta ishslashga imkon yaratadi.

SISTEMALI (IZIMLI) TADQIQOTLAR RIVOJLA-ISHINING AYRIM XUSUSIYATLARI

Sistemali munocabat tadqiqotlarining rivojlanishi sobiq Ittifoq davridan boshlangan bo'lib, taxminan 30 yil vaqtini o'z ichiga oladi. Eng avvalo shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki sistemali munosabat bilan shug'ullangan olimlar tadqiqotlarida ushbu yo'nalishning mazmuni, ma'nosи, tushunchalari, boshqa tadqiqotlarga bo'lgan munosabati, usuli, kelib chiqish tarixi haqida turli — tuman mulohazaiaar mavjuddir. Buning ustiga sistemali munosabatni fan va texnikaning juda ko'p sohalarida shiddat bilan qo'llanilayapqanligi yaqqol ko'zga tashlanib turibdi.

Ushbu sohadagi tadqiqot odat (moda) ko'rinishini olgan edi. Moda tez o'zgarishi mumkin bo'lganidek sistemali tadqiqot modasi ham o ta boshladi. Chunki bu tadqiqot modadan tabiiy ishga aylandi.

Sistemali munosabatning tushunchasi shundan iboratki. o'rGANILAYOTGAN real holatning tadqiqida to'liq tasavvurga ega bo'lishga harakat qilinadi. Albatta «to'liq tasavvur» absolyut bo'lmay nisbiydir.

Sistemali munosabatni, sistemali mo'ljal deb ham ifodalanadi.

Hozirgi zamon ilmiy texnikaviy taraqqiyot va bilishning asosiy xususiyatlaridan biri tadqiqot ob'ektlariga sistema deb qarashdir. Bunda sistema deganda bir-biri bilan bog'langan va o'ziga hos xususiyatlarga ega bo'lgan ob'ektlarni nazarda tutiladi. O'zaro bir — biriga ta'sir etuvchi elementlar ko'p bo'lganda, murakkab sistema (ob'ekt) lar sinfi alohida ajratiladi. Inson tomonidan ajratiladigan ko'pchilik sistemalar ichida turli hil operatsiya, ish, xislatlarni amalga oshiraoladigan texnologik va boshqa jarayonlar oqimini ta'minlaydigan, o'zi harakatlana-oladigan sistemalar ajralib turadi. Ya'ni, bunday sistemalar tomonidan qo'yilgan maqsadni hal etaoladilar.

O'zi harakatlana oladigan sistemalar texnikaviy, tashkiliy va inson-mashina ko'rinishlariga bo'linadi. Texnikaviy (avtomatik)

sistemalar inson tomonidan bezilanadigan masalalarni inson idroksiz bajarish qobiliyatiga egadir. Agar sistema tarkibida inson ishtiroki aks ettirilsa bunday sistemani tashkiliy deb ataladi. Tashkiliy sistemada agar masalan hal etishda inson va texnikaviy sistema o'zaro alohida bo'lsa bunday sistemani inson — mashina sistemasi deyliladi. Sistemani ushbu tarzda ta'riflashda inson ishtiroki bo'lmasa texnikaviy sistema, inson ishtirok etadigan texnologik rejimdagи mutanosiblik texnologik jarayonlarni, shahar xo'jaligini va boshqa murakkab ob'ektlarni (ya'ni, inson—mashina sistemalarini) avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari (ABS) bo'lib hisoblanadi. Kosmonavtlarni tayyorlashni tashkil etish sistemasi (KTTES) tashkiliy sistemadir.

Ko'rsatib o'tilgan sistemalarni boshqarishdagi asosiy xususiyatlarni taxlil etib chiqamiz chunki, tahlil etib chiqish uslubiyat va amaliyot nuqtaiy nazaridan muhimdir.

Taraqqiy etgan davlat iqtisodiyoti katta, murakkab sistemadir. Ushbu sistemada sanoat korxonalarini boshqarish haddan tashqari murakkablashib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida yirik zavodlar, kombinatlar, ishlab chiqarish, ilmiy — ishlab chiqarish va sanoat birlashmlari bunyod etilgan va bunyod etilayapti. Yangi texnika va texnologik jarayonlardan foydalanish evaziga ishlab chiqarish samaradorligi oshib borayapti, o'z tarkibiga minglab detal va operatsiyalarni, o'n minglab yig'uv birliklarini qamrab oluvchi buyumlar ko'rinishi murakkablashib bormoqda; foydalanuvchi materiallar va texnologik asbob—uskunalar nomenklaturasi (turi) kengayib bormoqda; korxonaning mutaxassislashuvi va kooperatsiyalashuvi chuqurlashib bormoqda; mahsulot tarkibida iste'molchilarining sifatga bo'lgan talabi juda tez o'zgarib bormoqda.

Ishlab chiqarish jarayonlarining to'xtovsiz mukammallashib borishi, mexanizatsiyalashuvi va avtomatlashtirilishi sanoat ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdonligini yuqori darajada o'sib borishini ta'minlayapti.

O'z navbatida ishlab chiqarish hajmining o'sishi, hamda boshqaruv qarorlarini (echimlarini) ishlab chiqishda juda ko'p miqdordagi ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olish kerakligi, boshqaruv uchun kerak bo'lgan axborot hajmini oshib borishi va uni qayta ishlashga sarflanuvchi vaqtini kamayib borishiga olib keladi. Korxonalardagi axborot oqimini o'rganish shu narsadan dalolat berayaptiki, hozirgi vaqtdagi mavjud axborot hajmi boshqaruv xodimlari qabul qilib olishi, qayta ishlashi va zudlik bilan qaror qabul qilishi imkonidan birnecha maria oshiqdir. Bu esa o'z navbatida korxonalarda hisob — kitoblarni o'z vaqtida olib borish oqsoqlanib, ayrim hisob — kitoblar mehnat hajmi katta bo'lganligi sababli umuman amaliga oshirilmay tajriba asosida qulosa chiqarishga olib keladi. Boshqaruvga oid echimlarni hal etish hozirgi kunda juda ham javobgar masalaga aylanib bormoqda. Boshqaruvga oid echimlar asosida katta ishlab chiqarish resurslari ishga tushiriladi, katta kollektiv faoliyati tashkil etiladi va bularning hammasi oqibat natijada ishlab chiqarish samaradorligiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Asoslanmagan qaror, echimlar esa ishlab chiqarish texnologiyasidagi yo'qotuvlardan birnecha marta ko'p bo'lgan yo'qotuvlarga olib kelishi mumkin.

Boshqaruvni yaxshilashga faqat kibernetika, informatika hisoblash mashinalari va iqtisodiy — matematik usullar va shu kabilar sohasida erishilgan yutuqlarni keng qo'llash ya'ni, avtomatlashtirilgan boshqaruv sistema (tizim) larini bunyod etish evaziga erishish mumkin.

Hozirgi zamon ilmiy — texnikaviy taraqqiyot asosini mashinasozlik sohalari majmuasi tashkil etadi. Mashinasozlikning keyingi taraqqiyoti bir tomondan ilm — texnika — ishlab chiqarish sistemasidagi bo'g'in (zveno) larning o'zaro ta'sirini mukammallashtirishni, ikkinchi tomondan texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni talab etadi. Hozirgi kunda avtomatlashtirishning ayrim muammolari mavjud. Buyumlarni avtomatlashtirilgan tarzda ishlab chiqarish muammosini hal etish

yagonasiga uslubiyati ishlab chiqilmagani buyum va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishga tayyorlash uchun taxlil etish usullari, mashina—avtomatlar, texnologik majmualari tuzilmasi (strukturasi) ni taxlil etish usullari hamda, nazorat va avtomatik boshqaruv vositalari bilan jihozlanganligi etarli darajada rivojlanmagan.

Xohlagan texnologik jarayonning avtomatlashtirilishi texnologik jarayon va uning elementlarini avtomatlashtirishdan boshlanadi. Pochta xizmatini avtomatlashtirishda sistemali munosabatni joriy etilishi kerak bo'lgan va xal etilmagan jarayonlar hamda muammolar talaygina.

Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishdagi texnologik jarayon deganda uskunalar ishlov berish organlari bilan mahsulot va boshqaruv sistemasining o'zaro ta'siri tushuniladi.

Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonni ishlab chiqish o'z ichiga quyidagilarni oladi; jarayon fizikaviy ma'nosi tahlili; ularning matematik bayoni;

texnologik jarayon parametrlarini belgilab beruvchi va ularning buyum sifati shakllanishiga ta'sir etish darajasini aniqlab beruvchi omillar (faktorlar) majmuasini aniqlash;

korrektirovka (tuzatuvchi) signalning ish bajaruvchi mexanizm yoki jarayonni ko'rgazmali tarzda aks ettirib beruvchi qurilmaga o'zaro ta'siri miqdorini aniqlab beruvchi miqdorlarni belgilash. Har bir konkret holatda ayrim faktorlar orasidagi aloqani topish usuli o'z navbatida jarayon ko'rinishi, uning (fizikaviy—kimyovyy, fizikaviy—mexanikaviy) qonuniyatlari holati va ularning amalda o'rganilganlik darajasiga bog'liq. Bu holatda texnologik jarayon yo'nalishini tajribaviy ma'lumotlar asosida aniqlash mumkin. Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayoni nazoratga va boshqaruvga moyil bo'lishi kerak. Buning uchun o'ziga xos va mos asbob — uskunalar, informatsiya datchiklari, aks ettirish qurilmalar, ish bajaruvchi qurilmalar qo'llaniladi. Informatsiya (axborot) ni qayta ishslash, hisoblash mashinalari yoki oddiy qurilmalar asosida olib borilishi mumkin.

* Ko'pchilik avtomat va yarim avtomatlarda dastur yo'naltiruvchisi tayanchlari bo'lgan boshqaruvi sistemasi qo'llaniladi. Ushbu tayanchlar yordamida ishchi organlar siljish miqdori chegaralanadi, turli xil ish rejimlari amalga oshiriladi va sh. k. Tayanchlardan kelib turadigan signalarni o'zgartirish elektrik yo'l bilan amalga oshiriladi. Keyingi vaqtarda ushbu vazifalar to'lig'icha kompyuterlarga yuklanilayapti. Bu xolatda datchiklar u yoki bu ishchi yoki xolis siljishlar haqidagi axborotni signal ko'rinishida berish vazifasini bajaradi.

Avtomatlashtirishning uch bosqichi ma'lumdir: 1) mashina ishchi tsiklini avtomatlashtirilishi, mashina—avtomatlar va yarim avtomatlarni bunyod etish; 2) mashinalar sistemasini avtomatlashtirish; 3) ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks (majmuaviy) avtomatlashtirish, avtomatik tsex va zavodlarni bunyod etish.

FUDYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.Bulanov E.A. i dr. Pod'emno – transportnie ustroystva pochtovoy svyazi. Izdatelstvo «Radio i svyazi» M. 1985 g.
- 2.Kurkin V.I. Osnovi robototexniki M 1988 g.
- 3.Nosov G.Ya. Mexanizatsiya predpriaty pochtovoy svyazi. M «Svyaz» 1974 g.
- 4.Sokolov V.P. Pochtoobrabativayushie mashini i mexanizmi M «Svyaz» 1980.
- 5.Titov V.K., Pronina T.S., Moroznikova G.V. Mexanizatsiya i avtomatizatsiya predpriaty pochtovoy svyazi. M «Radiosvyaz» 1988 g.
- 6.«O'zbekiston pochtasi» xizmat ko'rsatish takomillashadi. Xalq so'zi gazetasi 2004 yil 29 yanvar. «O'zbekiston pochtasi» davlat aktsionerlik kompaniyasi direktori Raxmonberdi Zikirovning intervysi.
- 7.Mixaylov S.D. Pochtoobrabativayuhie oborudovaniya M «Radio i svyaz» 1989 g.
- 8.Ismailov B. N.Mo'minov. Avtomatizirovannaya sistema nauchno – texnicheskoy informatsii Respublike Uzbekistan. Informatsionnie resursi Rossii №4 1997.
- 9.Mo'minov N.A. Kibernetikaning metodologik masalalari Toshkent «fan» 1984.
- 10.Mo'minov N.A. O nekotorix mexanizmax vnedreniya novix texnologiy i naukoyomkoy produktsii v usloviyax rinka (Preprint) Tashkent NPO «Kibernetika»1992.
- 11.Mo'minov N.A. Axborotiashtirish va hayot. Toshkent «Fan» 1992.
- 12.Mo'minov N.A. Informatsiya – materialniy resurs. Informatsionnie resursi Rossii №4 – 5. 1996.
13. Mo'minov NA i dr. Organizatsiya upravleniya i informatsionnaya texnologiya formirovaniya i otsenki nauchno – texnicheskix proektor. Tashkent.GFNTI.1994.
- 14.Mo'minov NA Robotlar va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish.T.Fan 1986.
- 15.G.N. Nazarova «Pochta xizmati» yo'nalishi bo'yicha bitiruv malakaviy bakalavr ishini bajarishga oid uslubiy qo'llanma. Toshkent. TATU 2005.

Босишга рухсат этилди

Бичими 60x84₁₇₆, Агади 50. Буюртма 274

Тошкент ахборот технологиялари университети

«ALOQAChI» нашриёт-машбас марказида

чоп этилди.

Тошкент шаҳар, Амир Темур кӯчаси, 108 уй.